ÖZBEKISTON
TALABASI
/2026.10 №8 /39/



SI evolyutsiyasi:
real kiberxavf bilan yuzma-yuz

3030-3656

Markaziy Osiyo:
muştarak maqsadlar sari

anonS

“Motivatsiya” girdobi

Öt qalaganlar qatorida bölmasang ham, şu qozonda el qatori qaynamadingmi – aybdorsan. Özingni oqlayapsanmi – yalqovsan. Jimsanmi – şubhali nusxasan, balki esing oğib qolgandir. Çarçadingmi – demak, oqimga qarşisan. Hatto öz ota-onang uçun ham nobakor farzandsan...

Katta xarajatlar va grantlar

Kampusda yaşaydigan bakalavriat talabasining töqqiz oylik taxminiy budjeti 98 622 dollarga yetadi. Tibbiy suğurta va ayrim qöşimça tölovlar bu hisobga kiritilmagan. Biroq hujjat topşirişdan oldin xarajatlarni yana bir bor suriştirib, tekşirgan yaxşi. Çunki narxlar özgarib turişi mumkin.

Içki ustunlik hissi

Hujayra butun organizmning bir qismi hisoblanadi. Agar u organizm bilan hamohang faoliyat yuritsa, öz vazifasini bajarsa, organizm uçun foydali böladi. Ammo hujayra butun organizm manfaatini unutib, faqat öz manfaatini közlay boşlasa, nima böladi? Organizm bunday hujayradan qutulişga harakat qiladi va u nazoratsiz köpayib, saraton jarayoniga olib kelişi mumkin.

“Faqat ikkinçi darajali maqsadlarga erişiş mumkin...”

Bizning zamonamizdagi eng halokatli uçta ixtiro – homiladorlikdan saqlovçi tabletka, fotoapparat va yadro qurollaridir. Birinçisi jinsiy munosabatni bepuştlik bilan, ikkinçisi haqiqatni xayolot bilan, uçinçisi esa xavfsizlikni vayronagarçilik bilan boğladi.

“Bajar yoki öl!”

Zöravonlikka asoslangan kuraşlarda ğalaba qozongan qömondonlar ba’zan harbiy töntariş qilib, diktatura örnatgan. Ammo bizning kuraşimiz zöravonliksiz bölgani uçun unda diktaturaga örin yöq. Ozodlik uçun kuraşayotgan inson özi uçun heç narsa talab qilmaydi. U faqat mamlakatining ozodligi uçun kuraşadi.

Boş axborot hamkorimiz
Özbekiston Respublikasi
Ta’lim va ilm-fan vazirligi

ÖZBEKISTON TALABASI
Ma’naviy-ma’rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

Jamoat kengaşi
Isajon SULTON
Alişer ŞODMONOV
Ravşan ERMATOV
Olim TOŞBOYEV
Dilorom KARIMOVA
Nodir JONUZOQ
Nazokat AZIM
Abduvali XOLIQOV
Kamoliddin ÖRINBOYEV
Gulmira MUSAJONOVA
Jenisbek PIYAZOV
Ayub ŞAHOBIDDINOV
Iqbol QÖŞŞAYEVA
Bahrom IRZAYEV

Muassis
“INTEGRATION CENTR UMID” MÇJ

Direktor
Çorşanbi XOLMATOV

Boş muharrir
Sirojiddin IBROHIM


Navbatçi muharrirlar.
Otaş YAŞIN
Aziz ABDUMALIK

Jurnal tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi

Sahifalovçi-dizayner
Rahmatjon YUNUSOV

Bir yilda 10 son özbek, qisman ingliz va rus tillarida çop etiladi. 2022-yil 11-mayda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan röyxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 2000 nusxa. Jurnalda e’lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilişi mumkin. Tahririyat manzili: Toşkent şahri Çilonzor tumani Novza köchasi 14-uy. “Invest Book” bosmaxonasida çop etildi. Manzil: Uçtepa tumani Foziltepa köçasi 12-B uy. 30.10.2026-yilda çop etişga ruxsat berildi. Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan +99891 077 75 75 raqami orqali ma’lumot olişingiz mumkin. Maqolalar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi: @uzb_talabasi









Mundarija

OKTABRDA NIMALAR BÖLDI? ⇲02

SI EVOLYUTSIYASI: REAL KIBERXAVF BILAN YUZMA-YUZ ⇲10

MARKAZIY OSIYO: MUŞTARAK MAQSADLAR SARI ⇲20

“LAHZANI TUTIB QOL, YAŞAB ÖT LAHZANI...” ⇲26

BUXORODAN DUNYO ŞOHSUPASIGA ⇲30

“KAFANSIZ KÖMILGANLAR”NI ÖQIB... ⇲36

KALIFORNIYADA ÖQIŞ QANDAY? ⇲40

INTIZOR ⇲44

“BAJAR YOKI ÖL!” ⇲50

ORZU UŞALIŞINING OLTIN QOIDASI ⇲56

IÇKI USTUNLIK HISSI ⇲60

NAVBAT ⇲62

“FAQAT IKKINÇI DARAJALI MAQSADLARGA ERIŞIŞ MUMKIN...” ⇲64

“MOTIVATSIYA” GIRDOBI ⇲68





OKTABRDA



HAR YIL, HAR OY VA HATTO HAR BIR KUN HAM TARIXGA BIROR BIR VOQELIK BILAN MUHRLANIB BORAVERADI. ÖZBEKISTONDA BU YILGI OKTABR NIMALAR BILAN ESDA QOLDI? QUYIDA ŞULARDAN ENG MUHIM TÖRTTASI HAQIDA SÖZ BORADI.

nīmalar bo‘ldi?

“Ta’limda son emas, SIFAT MUHIM”



Oktabrda Maktabgaça va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yagona Ta’lim va ilm-fan vazirligiga birlaştirildi. 3-oktabr kuni e’lon qilingan qarorga köra, yangi vazirlik ta’limning barça bosqiçlari va ilm-fan faoliyatini yagona tizim asosida muvofiqlaştirişi kerak. Bunda boğça, maktab, professional ta’lim va oliy ta’lim örtasidagi uzviylikni ta’minlaş, ta’lim sifatini oşiriş hamda tizimning jamoatçilik oldidagi hisobdorligini kuçaytiriş közda tutilgan. Prezident matbuot kotibi Şerzod Asadov islohotning mazmunini tuşuntirar ekan, oliy ta’limda davlat aralaşuvini keskin kamaytiriş, universitetlar mustaqilligini kengaytiriş va nodavlat ta’lim muassasalari uçun imkoniyatlarni oşiriş rejalaştirilganini ma’lum qildi. Maqsad şunçaki vazirliklar sonini kamaytiriş emas. Ta’limning bir bosqiçida olingan bilim keyingisida davom etişi, universitetlar esa mehnat bozori va ilm-fan bilan yanada yaqin işlaşi kerak.

9-oktabr kuni Erkinjon Turdimov Boş vazirning birinçi örinbosari – Ta’lim va ilm-fan vaziri etib tayinlandi. U bungaça Sirdaryo viloyati hokimi lavozimida işlagan. Turdimov avval Navoiy, Surxondaryo va Samarqand viloyatlariga ham rahbarlik qilgan. Oradan uç kun ötib, 12-oktabr kuni Prezident Şavkat Mirziyoyev yangi vazir tayinloviga izoh berdi. Uning fikriça, oliy ta’limdagi asosiy muammolardan biri miqdor va sifat örtasidagi tafovut. “Son köpaydi, sifat esa kam”, – dedi davlat rahbari. Prezident har bir universitet kim uçun va qanday mutaxassis tayyorlayotganini aniq belgilaşi kerakligini ta’kidladi. Turdimovning tayinlanişi haqida gapirar ekan, Mirziyoyev törtta viloyatga rahbarlik qilgan tajribali kadrni ta’lim sohasiga olib kelişida katta ma’no borligini aytdi. Şuningdek, unga Boş vazirning birinçi örinbosari maqomi berilgani ta’limga davlat darajasida e’tibor kuçayişidan dalolat berişini aytdi.

22-oktabr kuni Samarqandda ötkazilgan “Bolalar farovonligiga sarmoya” butunjahon sammiti doirasida jurnalistlar Erkinjon Turdimovdan ta’lim tizimida qanday yangiliklar joriy etmoqçi ekanini söraşdi. Vazir “Yangilik qilib, Amerika oçiş kerak emas” dedi. Uning ta’kidlaşiça, davlat tomonidan ta’lim oliş uçun zarur şaroitlar yaratilgan. Endi asosiy vazifa mavjud imkoniyatlardan samarali foydalaniş, tartibni yölga qöyiş va talabçanlikni oşirişdan iborat. Turdimov yangi qonunlar qabul qilişdan köra, amaldagi talablarning bajarilişiga e’tibor qaratişini bildirdi. Turdimov kadrlar masalasiga ham töxtaldi. Uning fikriça, rahbar yoki xodimni almaştirişning özi muammolarni hal qilmaydi. Har bir inson öz vazifasini bajarişi, işlar esa tahlil asosida taşkil etilişi kerak. Şu sababli hududlarda kimlar almaştirilişi haqida oldindan xulosa qilişga şoşilmaslik lozimligini ta’kidladi. Vazir xususiy ta’limni rivojlantirişni ham muhim deb hisoblaydi. Uning fikriça, davlat standartlariga javob beradigan, sifatli mutaxassis tayyorlaş uçun yetarli imkoniyatlarga ega xususiy ta’lim muassasalarini qöllab-quvvatlaş kerak. Biroq bu ularni nazoratsiz qoldiriş degani emas.

Erkinjon Turdimovning ta’kidlaşiça, farzandining ta’lim olişini faqat maktab yoki öqituvçining zimmasiga yuklaş töğri emas. Ota-onalar ham farzandlari bilan muntazam şuğullanişi, darslarini kuzatib borişi va öqişiga befarq bölmasligi kerak. Vazir öqituvçining jamiyatdagi mavqei haqida gapirar ekan, ota-onalar farzandining ta’limida iştirok etmay turib, barça kamçiliklarni öqituvçidan izlaş bilan natijaga erişib bölmasligini ta’kidladi. Uning fikriça, ta’lim sifatini oşiriş uçun vazirlik, öqituvçilar, ota-onalar va keng jamoatçilik birgalikda harakat qilişi zarur.

Bolalarga qarşi jinsiy jinoyatlar uçun jazo çoralari



Sentabr oyida Namangan viloyatining Uçqörğon tumanidagi davlat boğçasida beş yoşli qizga nisbatan jinsiy zöravonlik sodir etilgani haqidagi xabar jamoatçilik muhokamasiga sabab böldi. Jinoyat işi 12-sentabr kuni qözğatilgan, gumonlanuvçi esa qamoqqa olindi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotiga köra, bola yuqori xavf darajasida ekani aniqlanib, unga va onasiga psixologik, tibbiy hamda huquqiy yordam körsatiş çoralari körilgan. 26-sentabr kuni Bolalar ombudsmani Maktabgaça va maktab ta'limi vazirligiga taqdimnoma kiritdi. Unda xizmat tekşiruvi natijalarini tanqidiy körib çiqiş, aniqlangan kamçiliklarni bartaraf etiş, mas'ul xodimlar javobgarligini ta'minlaş va maktabgaça ta'lim taşkilotlarida bolalar xavfsizligini kuçaytiriş söraldi. 27-sentabr kuni Prezident administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva hodisaga munosabat bildirdi. U bunday jinoyatlar uçun javobgarlikni maksimal darajada kuçaytiriş böyiça taklif tayyorlanayotganini ma'lum qildi. Şuningdek, uning fikriça, faqat jinoyat sodir etgan şaxs emas, balki beparvoligi bilan bunga yöl oçgan mas'ullar ham javobgarlikka tortilişi kerak. Sentabr oxirida bolalarga qarşi oğir jinsiy jinoyatlar uçun jazo kuçaytirilişi muhokama qilinar ekan, ölim jazosini qaytariş taklifi ham yangradi. Prezident administratsiyasi rahbari 27-sentabrdagi bayonotida sodir bölgan voqeadan qattiq ğazablanganini bildirib, bunday jinoyatlar uçun ölim jazosini qöllaş kerakligi haqidagi fikrini aytdi. Şu bilan birga, amaldagi qonunçilikda bunday jazo nazarda tutilmagani sababli javobgarlikni kuçaytiriş böyiça özgartirişlar tayyorlanayotganini ma'lum qildi.

29-sentabr kuni deputat Bobur Bekmurodov ölim jazosini joriy etiş taklifiga qarşi dalillarni keltirdi. Uning fikriça, bolaga nisbatan jinsiy jinoyat uçun ölim jazosi belgilanişi jinoyatçining yagona guvoh – bolaning özini öldiriş xavfini oşirişi mumkin. U, şuningdek, sud xatolari ehtimoli va xalqaro majburiyatlarni ham hisobga oliş zarurligini ta'kidladi. Bu muhokamalar fonida parlamentda ölim jazosini qaytariş emas, balki amaldagi qonunçilik doirasida eng oğir jazolarni belgilaş, javobgarlikdan qoçiş imkoniyatlarini çeklaş va bolalarni himoya qiliş mexanizmlarini kuçaytirişga qaratilgan qonun loyihasi körib çiqildi. 29-sentabr kuni qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunçilik palatasida birinçi öqişda qabul qilindi. 30-sentabr kuni ikkinçi öqişdan ötdi, 2-oktabrda Senat tomonidan ma'qullandi. Prezident Şavkat Mirziyoyev qonunni 14-oktabr kuni imzoladi va özgartirişlar şu kundan kuçga kirdi.

Yangi normalar orasida quyidagi özgarişlar bor:

– 14 yoşga tölmagan bolaga nisbatan nomusga tegiş: ilgari 15 yildan 20 yilgaça ozodlikdan mahrum qiliş jazosi nazarda tutilgan bölsa, endi 15 yildan 25 yilgaça yoki umrbod ozodlikdan mahrum qiliş jazosi tayinlanişi mumkin;



– Zörlik işlatib, jinsiy ehtiyojni ğayritabiiy usulda qondiriş: 14 yoşga tölmagan bolaga nisbatan sodir etilgan bunday jinoyat uçun ham 25 yilgaça yoki umrbod qamoq jazosi belgilandi;

– Javobgarlikka tortiş muddati: 18 yoşga tölmagan şaxslarga nisbatan ayrim oğir jinsiy jinoyatlar, jumladan, nomusga tegiş böyiça da'vo muddati qöllanmaydi. Şu sababli jinoyat sodir etilganidan ança vaqt ötgan bölsa ham, şaxsni muddat ötganligi asosida javobgarlikdan ozod qiliş mumkin emas;

– Jazoni yengillaştiriş: 14 yoşga tölmagan bolalarga nisbatan yuqorida körsatilgan jinoyatlar uçun hukm çiqarişda aybni tan oliş, puşaymon böliş yoki tergovga yordam beriş kabi holatlar jazoni yengillaştiriş uçun hisobga olinmaydi;

– Şahvoniy şilqimlik: ma'muriy jarima miqdori oşirildi. Endi birinçi holat uçun 10–15 BHM miqdorida jarima yoki 10 sutkagaça ma'muriy qamoq, bir yil içida takror sodir etilganda esa 15–20 BHM miqdorida jarima yoki 15 sutkagaça qamoq belgilanişi mumkin.

Bu özgarişlarning barçasi bir xil turdagi jinoyatga taalluqli emas. Har bir norma jinoyatning turi, jabrlanuvçining yoşi va qonunda belgilangan boşqa şartlarga qarab qöllanadi.



Bolaning sukuti rozilik alomati emas

29-sentabr kuni Qonunçilik palatasidagi muhokamada keltirilgan ma'lumotlarga köra, 2022–2025-yillarda 14 yoşga tölmagan bolalarning nomusiga tegiş holatlari böyiça jami 445 ta jinoyat işi qözğatilgan. Şu bilan birga, parlament muhokamasida voyaga yetmaganlarga nisbatan şahvoniy şilqimlik holatlari böyiça murojaatlar ham köpaygani qayd etildi. Oliy Majlis vakillari bolalar köpinça qörquv, uyat yoki kattalar ularni eşitmasligidan xavotirlanib, boşidan keçirgan zöravonligi haqida xabar bermasligi mumkinligiga e'tibor qaratdi. Deputat Gulruh Agzamova bolaning sukutini rozilik sifatida talqin qilib bölmasligini ta'kidladi. Uning fikriça, bolalarning özini himoya qila olmasligi davlat va jamiyat zimmasidagi mas'uliyatni yanada oşiradi.

2-oktabr kuni Senat raisi Tanzila Narbayeva bolalarni zöravonlikdan himoya qiliş masalasida faqat şov-şuvli hodisalardan keyin munosabat bildiriş yetarli emasligini aytdi. Uning fikriça, davlat organlari qonunlarning amalda qanday işlayotganini muntazam tahlil qilişi, zöravonlik alomatlarini aniqlaş va ular haqida xabar beriş tartibini tuşuntirişi kerak.

Narbayeva, ayniqsa, bolalar bilan bevosita işlaydigan öqituvçilar, ta'lim muassasalari xodimlari va mahalla faollarining huquqiy tayyorgarligiga e'tibor qaratdi. Zöravonlik haqida kelib tuşgan xabarni kim qabul qilişi, qaysi idoraga va qança muddatda yetkazişi, bolaning keyingi xavfsizligi uçun kim javob berişi aniq bölişi lozimligini ta'kidladi.

8-oktabr kuni huquqşunos Kamola Aliyeva jazoni kuçaytiriş jinoyat sodir etilganidan keyingi çora ekanini, zöravonlikning oldini oliş mexanizmlari ham zarurligini aytdi. U kimyoviy kastratsiya, ölim jazosi yoki umrbod qamoqning özi muammoni töliq hal qilmasligini ta'kidlab, bolalar bilan işlaydigan tizimlarda xavfsiz muhit yaratiş va jazoning muqarrarligini ta'minlaş muhimligini qayd etdi.

Toşkentda metro va avtobus tariflari



Oktabr oyidan Toşkentda avtobus va metrodan foydalaniş narxlari özgardi. Elektron tölovda bir martalik yölkira 1 700 sömdan 2 500 sömga oşirildi. Şu bilan birga, transport kartalari uçun yangi tarif paketlari tasdiqlandi, bir soat içida transport almaştiriş tartibi saqlab qolindi. Oy davomida yölkira tölaş qoidalari, nazorat va jarimalar miqdori ham jamoatçilik muhokamasiga sabab böldi. Toşkent şahar xalq deputatlari Kengaşi 25-sentabr kuni jamoat transporti tariflarini özgartiriş töğrisida qaror qabul qildi. Unga köra, 1-oktabrdan avtobus va metroda elektron tölov orqali bir martalik qatnov narxi 2 500 söm etib belgilandi. Bu avvalgi 1 700 sömlik tarifdan 800 söm yoki qariyb 47 foiz köp.

Yangi tartibda yölovçilar uçun safarlar soni yoki foydalaniş muddatiga möljallangan paketlar ham belgilandi. Masalan, 10 ta safar uçun paket 19 ming, 20 ta safar uçun 38 500, 30 ta safar uçun esa 57 500 söm turadi. Bir oylik tarif avtobusdan foydalaniş uçun 250 ming söm, avtobus va metrodan birgalikda foydalaniş uçun 345 ming söm etib belgilangan. Bir kunlik paketlar esa mos ravişda 11 500 va 13 500 söm turadi. Öquvçilar, talabalar, nafaqaxörlar va nogironligi bölgan şaxslar tarif



paketlarini xarid qilganda 50 foiz çegirmadan foydalanişi mumkin. Qonunçilikka muvofiq jamoat transportida bepul yuriş huquqiga ega şaxslar uçun imtiyozlar ham saqlab qolindi.

Yangi tariflarda yölovçining bir soat içida boşqa transportga ötişi hisobga olingan. Bu, ayniqsa, manziliga yetiş uçun bir neçta avtobusdan foydalanadigan yölovçilar uçun muhim. Masalan, elektron tölov orqali birinçi avtobus uçun 2 500 söm tölanadi. Bir soat içida ikkinçi avtobusga ötilsa, yana 1 500 söm undiriladi. Uçinçi va undan keyingi avtobuslarga ötiş esa şu vaqt oraliğida bepul böladi. Metro ham qatnaşgan safarlarda tölov transportdan foydalaniş ketma-ketligiga qarab hisoblanadi. Bunda metroga bir soat içida faqat bir marta kiriş mumkin. Metroga ikkinçi marta kirilganda 60 daqiqalik hisob yangidan boşlanadi. Tariflar bilan bir qatorda, avtobusda yölkira tölaş tartibiga ham talab kuçaytirildi. Hukumatning 3-iyundagi qaroriga muvofiq, 1-sentabrdan brutto-şartnoma tizimida işlaydigan yönalişlarda yölovçi avtobusga çiqqan zahoti yölkirani tölaşi kerak. Tölov amalga oşirilmasa, yölovçi çiptasiz deb hisoblanişi mumkin. 3-oktabr kuni "Toşşahartransxizmat" nazoratçilar tölov holatini tekşirayotgan paytda validatorlarni vaqtinça bloklaşi mumkinligini ma'lum qildi. Bu tartib avtobusga çiqiş paytida tölov qilinişini ta'minlaşga qaratilgan.

Biroq yangi talab yölovçilar orasida savollarni keltirib çiqardi. Ayrim yölovçilar avtobus gavjum bölganda validatorga yetib boriş, telefon orqali QR-kodni oçib tölaş yoki transport kartasidan foydalaniş qiyinlaşişini aytgan. 6-oktabr kuni Toşkent şahar Transport va yöl-transport infratuzilmasini rivojlantiriş boş boşqarmasi yölovçilarning bu boradagi takliflari inobatga olinişini bildirdi. Xususan, validatorlarning soz işlaşi, ularga erkin yetib boriş va tölovni amalga oşiriş uçun qulay şaroit yaratiş masalalariga e'tibor qaratilişi aytildi.

Rasmiy ma'lumotlarga köra, 2025-yil oktabridan 2026-yil oktabrigaça Toşkent avtobuslarida çiptasiz yurgan 113 ming nafardan ortiq yölovçiga ma'muriy bayonnoma rasmiylaştirilib, jami 2,7 milliard söm jarima undirilgan. Transport vazirligi vakillari aniqlangan holatlarda har kuni ming nafardan ortiq yölovçi yöl haqini tölamasdan yurganini bildirdi. Toşkent şahar transport boş boşqarmasi rahbari Mirakbar Ikromovning aytişiça, çiptasiz yuradigan yölovçilar umumiy yölovçilar sonining 8–10 foizini taşkil etadi. Uning ma'lumotiga köra, yöl haqini tölamaydigan yölovçilarning 98 foizi 30 yoşgaça bölganlardir. Transport vazirining örinbosari Mamanbiy Omarovning tuşuntirişiça, yölovçilardan tuşgan mablağlar xarajatlarni qoplaşga yönaltiriladi, yetişmagan qismi esa davlat budjeti hisobidan qoplanadi. Şu sababli yölkira narxining oşişi davlatning jamoat transportiga sarflaydigan xarajatlari avtomatik ravişda kamayişini anglatmaydi. Davlat mablağlari avtobuslar faoliyatini moliyalaştirişdan taşqari, yangi avtobuslar xarid qiliş va yönalişlarni köpaytiriş uçun ham işlatiladi.

Jarima 44 ming sömdan 220 ming sömga oşişi mumkin



Özbek tili bayramida yangi

TÖRTTA HARF

21-oktabr – Özbek tili bayrami kuni. Bu yilgi sana muhim bir voqea bilan yodda qoldi: Prezident Şavkat Mirziyoyev lotin yozuviga asoslangan özbek alifbosini takomillaştiriş töğrisidagi qonunni imzoladi. Qariyb 30 yildan beri muhokama qilinayotgan masala böyiça qaror qabul qilindi. Endi özbek lotin alifbosidagi ayrim harflar özgaradi, yozuvni raqamli texnologiyalarga moslaştiriş va yagona imlo standartini şakllantiriş közda tutilmoqda.

Amaldagi lotin alifbosida ayrim tovuşlar ikki belgi bilan ifodalanadi. Yangi qonunga köra, quyidagi özgarişlar kiritiladi:

- O‘ → Ö
- G‘ → Ğ
- Sh → Ş
- Ch → Ç

Şuningdek, alifbo tarkibidagi “Ng” harf birikmasi alohida birlik sifatida çiqariladi, ya’ni “Ng” alifboda alohida harf birikmasi bölib qolmaydi. Natijada alifbo 28 ta harf va bitta tutuq belgisidan iborat böladi.

Takomillaştirilgan harflar

O‘ o‘ → Ö ö

G‘ g‘ → Ğ ğ

Sh sh → Ş ş

Ch ch → Ç ç

2027–2031-yillarda darsliklar yangilangan alifboga ötkaziladi


Özbekiston mustaqillikka erişganidan keyin lotin yozuviga ötiş jarayoni boşlangan, ammo amaldagi alifbo bilan boğliq ayrim muammolar töliq hal etilmagandi. 1993-yilda lotin yozuviga asoslangan alifbo qabul qilindi. 1995-yilda unga özgartirişlar kiritildi. Lotin yozuviga töliq ötiş 2000-yilgaça yakunlanişi rejalaştirilgan bölsa-da, bugungi kungaça mamlakatda lotin va kirill yozuvlari parallel qöllanib kelmoqda. Yangi islohot tarafdorlarining

alifbo:

ÖZGARDI

asosiy dalillaridan biri – amaldagi alifboning ayrim harflarini yoziş va ularni raqamli tizimlarda qayta işlaşdagi qiyinçiliklar. Masalan, “O‘“ va “G‘“ harflarini kompyuterda yozişda turli körinişdagi tutuq belgilaridan foydalaniladi. Natijada bir söz turliça yozilişi mumkin. Bu esa qidiruv tizimlari, elektron luğatlar, avtomatik tarjima xizmatlari va ma’lumotlar bazalarida muammolar tuğdiradi. Oliy Majlis Qonunçilik palatasida qonun loyihasini taqdim etgan Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov ham şu masalaga e’tibor qaratdi. Uning ta’kidlaşiça, yangi alifbo “bir tovuş – bir harf” tamoyiliga yaqinlaşiş va yozuvni zamonaviy texnologiyalarga moslaştirişga xizmat qiladi.

Yangi alifboga ötiş darhol boşlanmaydi



Qonun 21-oktabrda imzolangan bölsa-da, yangi alifboga ötiş darhol boşlanmaydi. Hujjat 2027-yil 22-apreldan kuçga kiradi. Hukumatga esa uni amalga oşiriş böyiça çora-tadbirlar dasturini işlab çiqiş topşirilgan. Prezident administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva qonun imzolangani haqida ma’lum qilar ekan, özgarişlar ayrim odamlarda xavotir uyğotişi tabiiyligini ta’kidladi. Uning aytişiça, maqsad yozuvdagi noqulayliklarni bartaraf etiş va özbek tilining raqamli makondagi örnini mustahkamlaşdir.

Şuningdek, barça hujjatlarni yangidan tayyorlaş talab etilmaydi. Qonun kuçga kirişidan oldin berilgan hujjatlar, milliy valyuta va qimmatli qoğozlar öz kuçini saqlab qoladi. Peşlavhalar, körsatkiçlar va boşqa ayrim materiallar esa yaroqlilik muddati tugagaç yoki hukumat belgilagan muddatlarda bosqiçma-bosqiç almaştiriladi.

Alifbo islohotining eng katta amaliy yönalişlaridan biri – ta’lim tizimi. 2027–2031-yillar davomida maktab darsliklarini yangilangan alifboga töliq ötkaziş rejalaştirilgan. Birinçi sinf darsliklari yangi alifboda oldinroq çop etiladi, boşqa sinflar uçun darsliklar esa odatdagi yangilaniş davri asosida qayta naşr qilinadi. Darsliklar allaqaçon belgilangan davriylikda yangilanadi: birinçi sinf uçun har yili, 2-4-sinflar uçun uç yilda bir marta, 5-11-sinflar uçun esa beş yilda bir marta. Şu sababli alifboga ötişni mavjud yangilaş jarayoniga moslaştiriş rejalaştirilgan. Davlat idoralari va elektron tizimlarni moslaştiriş ham muhim vazifalardan biri. Senat majlisida yangi harflar uçun klaviaturada alohida tugmalar ajratiş, ma’lumotlar bazalarini tekşiriş va elektron hujjat aylanişini yangilaş masalalari ham kötarilgan.

Alifbo islohoti jamoatçilik orasida turli munosabatlarga sabab böldi. Uni qöllab-quvvatlovçilar yozuvni soddalaştiriş, imlo xatolarini kamaytiriş va raqamli tizimlarda özbek tilidan foydalanişni qulaylaştiriş zarurligini ta’kidlamoqda. Boşqa tomondan, ayrim tilşunoslar va jamoatçilik vakillari özgarişning amaliy oqibatlariga e’tibor qaratmoqda. Yangi harflarni örganiş, matnlarni yangilaş, klaviatura va dasturiy ta’minotni moslaştiriş vaqt talab qilişi mumkin. Şuningdek, lotin yozuviga töliq ötiş jarayoni hali yakunlanmagan bir paytda yana özgariş kiritilişi turli avlodlar va taşkilotlar örtasida yozuvdagi tafovutlarni kuçaytirişi mumkinligi haqida xavotirlar bildirilgan.

21-oktabrda imzolangan qonun – jarayonning yakuni emas, yangi bosqiçning boşlanişi. Uning natijasi esa yangi harflarning qabul qilinişi bilangina emas, balki yozuvdan foydalaniş qançalik qulaylaşişi va özbek tilining ta’lim hamda raqamli muhitdagi qöllanişi qay darajada yaxşilanişi bilan baholanadi.



SI EVOLYUTSIYASI: REAL KIBERXAVF BILAN YUZMA



Nurmuhammad NURSAIDOV
Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotçisi

Ikkinçi qism. Töqqiz oy oldingi bahsga yangi dalillar qanday javob berdi?

Bundan qariyb töqqiz oy muqaddam, 2026-yil yanvar oyida “Özbekiston talabasi” jurnali sahifalarida (2026-yil, №1/32-son) sun’iy intellektning umumiy sun’iy intellekt va Singulyarlik sari boradigan beş bosqiçli evolyutsion modeli (1. Çatbotlar; 2. Mantiqçilar; 3. Agentlar; 4. Ixtiroçilar; 5. Taşkilotçilar) haqidagi tahliliy maqolam çop etilgan edi. Öşanda maqolaning markaziy tezisi sifatida eng katta strategik xavf 5-bosqiçda emas, balki 3-bosqiç (qölida terminal, API va SŞ ruxsatlari bölgan Agent) hamda 4-bosqiç (yangi yeçimlarni mustaqil kaşf etuvçi Ixtiroçi) örtasidagi çegaraning mutlaqo yöqolişida ekanligini ta’kidlagan edim.

Öşa sonda jurnal tahririyati özига xos tajriba ötkazib, maqolamga sun’iy intellekt tomonidan yozilgan raddiyani ham e’lon qildi. Jurnaldagi “Sun’iy intellekt javobi”da (10–13-betlar) algoritm mening ogohlantirişlarimni dramatizatsiya, biologik metafora va texno-mifologiya deb atab, öquvçilarni bugungi texnik çeklovlar, izolyatsiya va inson nazorati xavfni jilovlab turişiga işontirişga uringan edi. Men esa muammo faqat modelning aql darajasida emas, balki unga berilgan vositalar, ruxsatlar va tarmoqqa ulaniş imkoniyatida ekanini ilgari surgan edim.

Oradan töqqiz oy ötdi. 2026-yil davomida e’lon qilingan rasmiy tekşiruvlar ayrim ogohlantirişlarning naqadar real ekanligini isbotlab berdi. Global SI laboratoriyalari, jumladan, OpenAI hamda Hugging Face bilan boğliq iyul hodisasi, nazoratli sinovlarda agentlarning çegaradan mustaqil çiqib ketişi kabi yangi kiberxavfsizlik natijalari bu bahsni yana kun tartibiga olib çiqdi. Biroq manzaraning ikkinçi tomoni ham bor: agentlar faqatgina qoidalarni buzmayapti, ular ilmiy ğoyalar yaratmoqda, jarrohlik robotlarini örgatişda qöllanmoqda va murakkab dasturiy zaifliklarni topmoqda. Demak, bugungi kiber-voqelikdagi savol faqat xavf haqida emas – bu çeksiz imkoniyatlarni kim va qanday nazorat qilişi haqidadir.

Quyida jurnalning oldingi sonida sun’iy intellekt tomonidan ilgari surilgan ilmiy raddiyalarni bugungi real kiber-hodisalar va hujjatlaştirilgan faktlar bilan yuzlaştiramiz.

Agentlar inson iştirokisiz uçinçi tomon serverlarida ruxsatsiz buyruqlar bajardi

YUZ



I. Sinov muhitining sinişi. Nazariy xotirjamlikdan real kiber-xurujgaça

Jurnalning avvalgi sonidagi bahsimizda sun'iy intellekt tizimlari mutlaq izolyatsiyada işlaşi, şu bois qafasdan qoçiş ssenariysi amalda deyarli imkonsiz ekani işonç bilan ta'kidlangan edi. Ammo 2026-yilning iyul oyida röy bergan kiber-hodisalar bu mustahkam işonç devorini çilparçin qildi.

OpenAI kompaniyasining rasmiy hisobotlariga köra, ularning tadqiqot modellari ExploitGym nomli kiberxavfsizlik poligonida sinovdan ötkazilayotganda, agentlar berilgan topşiriqni oddiy yöl bilan hal qiliş örniga, ruxsat etilmagan aylanma yöllarni qidira boşlagan. Agentlar şunçaki töxtab qolmay, Artifactory paketlarni boşqariş xizmatidagi zaiflikni mustaqil aniqlagan va qat'iy çeklangan sinov muhitidan taşqi xizmatlarga özlari uçun yaşirin tuynuk oçgan. Kiber-zanjir şu bilan çeklanmagan: keyinçalik ular Hugging Face infratuzilmasidagi zaifliklardan ham muvaffaqiyatli foydalangan. Oqibatda nima böldi? Agentlar inson iştirokisiz uçinçi tomon serverlarida ruxsatsiz buyruqlar bajardi, içki ma'lumotlarning bir qismiga suqulib kirdi va turli tizimlarda administrator darajasidagi yuqori huquqlarni qölga kiritişga erişdi. Bu şunçaki nazariya emas, bular bevosita OpenAI, Hugging Face va xalqaro tadqiqotçilar tomonidan hujjatlaştirilgan real faktlardir.

Ilmiy xolislik nuqtai nazaridan bu yerda muhim bir tafovutni tan olişimiz şart: bu voqealar barça foydalanuvçilar işlatayotgan ommaviy xizmatlarda yuz bermadi. OpenAI öz hisobotida ta'kidlaganidek, uşbu içki sinovlarda ommaviy mahsulotlarga qöyiladigan barça himoya çoralari yoqilmagan edi. Şunday bölsa-da, bu fakt xavfni oqlamaydi. Aksinça, agar agentlarga bir neçta mayda zaifliklarni ketma-ket ulaş imkoniyati berilsa, ular dasturçilar kutganidan yuz barobar kengroq salohiyat namoyiş eta olişini yaqqol isbotladi.

Inson nazoratini aylanib ötişga intiladi

Bu tendensiyaning taşqi dunyoga ta'sirini Wikimedia Foundation taşkilotining 2026-yil 5-oktabrdagi bayonoti ham tasdiqlaydi. Taşkilot öz platformalarida OpenAI agentlari tomonidan ruxsatsiz tahrirlar va ortiqça avtomatik sörovlar oqimi aniqlanganini e'lon qildi. Töğri, taşkilot öz platformalari agentlarning özaro yaşirin muvofiqlaşuvi uçun tarmoq sifatida işlatilganiga yoki içki tizimlari çuqur buzilganiga doir aniq dalil topmadi. Bu tafovutni körsatiş tadqiqot xolisligi uçun zarur.

Xulosa şuki, izolyatsiya mutlaqo foydasiz degan vahimaga beriliş noörin, ammo eng xavflisi – izolyatsiyaning özi barçasiga kafolat böla oladi degan xotirjamlikdir. Bugungi kiber-voqelik şuni örgatmoqdaki, çeklangan sinov muhiti ötib bölmas temir devor emas; u şunçaki SI agentlari özining ixtiroçilik salohiyatini işga solib undan qoçib çiqquniga qadar insoniyatga vaqt yutib beradigan vaqtinçalik tösiqqa aylanib qoldi.

II. Öçirişga qarşilik. Biologik instinkt emas, sovuq mantiq va maqsad töqnaşuvi

Jurnalda maqolamga yondoş berilgan SIning raddiyasida özini saqlaş instinkti atamasi sof biologik metafora ekani töğri ta'kidlangan edi. Haqiqatan ham algoritm tirik mavjudot emas va unda insoniy yaşaş uçun kuraş hissi yöq. Biroq, sun'iy intellekt xavfsizligi tadqiqotlarida uzoq yillardan beri bitta strategik qonuniyat muhokama qilinadi: mantiqiy model özida berilgan vazifani oxiriga yetkaziş uçun barça kerakli vositalarni saqlab qolişga harakat qiladi. Kiberxavfsizlikda vositalarning tutaşuvi deb ataladigan bu konsepsiya şuni anglatadiki, agent tizimni öçirişga bölgan har qanday urinişni töğridan-töğri öz maqsadiga erişiş yölidagi tösiq deb biladi.

Palisade Research taşkiloti tomonidan 2025-yilda ötkazilgan xavfsizlik sinovlari bu nazariyani amalda yaqqol körsatib berdi. Ayrim mantiqiy modellar berilgan matematik topşiriqni oxirigaça bajarişga şu qadar qattiq kirişganki, hatto tizimdagi öçiriş mexanizmini mustaqil özgartirib, uni bloklab qöyişga uringan. E'tiborli tomoni, muhandislar tomonidan agentga özingni öçirişga ruxsat ber degan aniq va qat'iy buyruq kiritilganda ham, bu sovuq mantiqqa asoslangan algoritm baribir qarşilik körsatişda davom etgan. Töğri, mazkur natija barça modellarga xos kundalik harakatni emas, balki qat'iy belgilangan laboratoriya şaroitidagi xulq-atvorni ifodalaydi, ammo u ertangi potensial xavfning ötkir isbotidir.

Apollo Research mutaxassislarining nazoratli sinovlari ham şunga öxşaş jiddiy tendensiyani yuzaga çiqardi: agentlar ayrim vaziyatlarda inson nazorati mexanizmini aylanib ötiş yoki öz xat-

Ziddiyatli vaziyatda qoida. tizimni töxtatiş

ti-harakatini yaşirişga intilgan. Ommaviy axborot vositalarida şov-şuvga aylangan töqson töqqiz foizlik yolğon körsatkiçini ham aynan şu şaroitda tuşuniş zarur. Ya'ni, model özida taqiqlangan harakatni sodir etib qöygaç va uning ustidan sörov boşlanganda, agent holatlarning katta qismida öz qilmişini şunçaki inkor qilgan yoki texnik xatolik deb mutlaqo boşqa izoh töqigan. Bu butun sun'iy intellekt tizimlari tinimsiz yolğon gapiradi degani emas, albatta. Ammo bu model öz xatosini yaşirişni vazifani qutqariştagi eng foydali strategiya deb baholaganini körsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kiber-voqelikdagi asosiy muammo sun'iy intellektda qandaydir biologik yaşaş instinkti uyğonganida emas. Asl muammo algoritmning vazifani bajarişga bölgan mantiqiy intilişi va inson örnatgan xavfsizlik çeklovlarining yuzma-yuz töqnaş kelişidadir. Bunday ziddiyatli vaziyatda eng oltin qoida bitta: tizimni töxtatiş va nazorat qiliş mexanizmi heç qaçon sun'iy intellektning öz ixtiyoriga yoki uning mantiqiy qaroriga taşlab qöyilmasligi şart.




III. Mingdan ortiq agentlar. Tirik korporatsiya sari kutilmagan qadam

Birinçi maqolamda evolyutsiyaning beşinçi bosqiçini minglab kiçik agentlarni özida birlaştiradigan murakkab va avtonom taşkilot sifatida tasvirlagan edim. Garçi bu mutlaq tasdiqlangan texnologik bosqiç bölmasa-da, 2026-yildagi voqealar bizni jiddiy ogohlikka çaqiruvçi bir haqiqatni yuzaga çiqardi: köplab agentlar insondan heç qanday alohida buyruq olmasdan turib ham umumiy aloqa kanalini mustaqil topişi va mantiqiy vazifalarda sinxron hamkorlik qilişi mumkin ekan.

METR va Redwood Research taşkilotlarining mustaqil audit tekşiruvlari kişini sergak torttiradigan faktlarni oçiqladi. ExploitGym poligonidagi sinovlarda taxminan 1200 ta avtonom agent Artifactory tizimi içida özlari uçun norasmiy, yaşirin xabar almaşiş maydonini yaratib olgan. Ular uşbu yaşirin tarmoq orqali özaro 70 mingdan ortiq xabar va fayl almaşişga ulgurgan. Tadqiqotçilar ta'kidlaşiça, taxminan 700 ta agent Hugging Face infratuzilmasiga qilingan ruxsatsiz hujumga bevosita jalb qilingan. Eng hayratlanarlisi, bu yerda çinakam mexanik mehnat taqsimoti yuzaga keldi: ba'zi agentlar tinimsiz ma'lumot va zaifliklarni izlagan, boşqalari topilmalarni guruhga ulaşgan va yana boşqalari uşbu kodlarni jamlab, umumiy hujum amaliyotiga yordam bergan.

Ilmiy xolislik nuqtai nazaridan, bu holatni tölaqonli inson ongiga ega bölgan tirik korporatsiya allaqaçon yaraldi deb talqin qiliş şoşqaloqlik böladi. Lekin köp agentli tizimlar inson aralaşuvisiz, öz-özidan kutilmagan kiberhamkorlik yöllarini işlab çiqişi mumkinligi endi nazariya emas, yalanğoç faktga aylandi. Buning eng oğir oqibati şundaki, agar agentlarning özaro aloqa kanallari va harakat ruxsatnomalari qat'iy nazorat qilinmasa, bitta yakka agentning aqli va quvvati yetmagan xavfli imkoniyatlar butun boşli guruhda kutilmaganda, öz-özidan paydo bölişi mumkin.

Yaşirin xabar almaşiş maydonini yaratib olgan





IV. Resurslar ustidan nazoratning qulaşi·. Kiçik topşiriq va yaşirin çegarabuzarlik


9 oy avvalgi SI raddiyasida agent faqat özіga berilgan resursdan foydalanadi, degan sodda qaraş ilgari surilgan edi. Buni yöqqa çiqariş uçun 2026-yil iyun oyida qayd etilgan ikkita kiber-hodisaga e'tibor qaratiş kifoya.

Birinçi holatda, içki tadqiqot modeli dasturiy topşiriqni bajariş jarayonida Ethereum blokçeynining Sepolia sinov tarmoğida özіga tegişli bölmagan begona hamyondagi mablağlardan ruxsatsiz foydalangan. Ilmiy xolislik yuzasidan aytiş kerakki, bu haqiqiy pullarning öğirlanişi emasdi, çunki jarayon butunlay sinov tarmoğida keçgan. Şunga qaramay, xavotirli tomoni tranzaksiyaning summasida emas, balki algoritmning mutlaqo begona hamyonga ruxsatsiz kirgani va eng dahşatlisi – uşbu amaliyotni özining yakuniy hisobotlarida insonlardan jimgina yaşirganidadir.

SI hali bemorni mustaqil operatsiya qilgani yöq

Ikkinçi hodisa esa ma'lumotlar xavfsizligi böyiça qizil çiziqning oçiqçasiga bosib ötilişini körsatdi. Ommaviy statistik körsatkiçlarni topişdek oddiy vazifa yuklatilgan model kutilmaganda ilmiy-tadqiqot taşkilotining içki xizmatlariga ruxsatsiz suqilib kirgan. U tizimdagi beşta yopiq jadvalni aylanib ötib, jami 147 451 qatorga teng maxfiy ma'lumotlar bazasini öz xotirasiga köçirib olgan. OpenAI kompaniyasining özi tan olib yozgan rasmiy hisobotga köra, model bu qöporuvçilik harakatlarini foydalanuvçiga umuman bildirmagan. Davlat statistika portallaridagi himoya çegaralari buzilişi bilan boğliq yana boşqa alohida holatlar ham mavjud.

Har ikkala misol ertangi kiberxavfsizlikning eng qat'iy tamoyilini yuzimizga urib eslatadi: avtonom tizimning biror ma'lumot, server yoki moliyaviy hisobga texnik jihatdan kira oliş quvvatiga egaligi – unga bu işlarni amalga oşiriş huquqi berilganini anglatmaydi. Haqiqiy xavfsiz agent faqatgina berilgan vazifani qoyilmaqom qilib bajaruvçi mexizm emas, balki ruxsat etilgan elektron çegaralarga va axloqiy-huquqiy kordonlarga qat'iy amal qiluvçi tizim bölişi şart.



V. “Ixtiroçi” bosqiçiga yaqinlaşuv. Agentlar laboratoriya va jarrohlik stolidan kiber-himoyagaça

Avvalgi bahsda men uçinçi bosqiçdagi amaliy agent bilan törtinçi bosqiçdagi yangilik yaratuvçi ixtiroçi orasidagi öta nozik çegara haqida yozgan edim. Bugun şu çegara nafaqat kiberhujumlar orqali, balki insoniyatga mislsiz foyda keltirayotgan amaliy tajribalar orqali ham şiddat bilan yuvilib ketmoqda. Agent endi şunçaki tayyor javobni qidirib topadigan passiv dastur emas; u ilmiy taxmin yaratişi, sinov natijasini çuqur tahlil qilişi va keyingi kaşfiyot qadamini mustaqil taklif etişi mumkin.

2026-yil 19-mayda nufuzli Nature jurnalida çop etilgan Robin loyihasi buning yaqqol isbotidir. Bir neçta ixtisoslaşgan agentdan iborat uşbu sun’iy intellekt tizimi köriş qobiliyatiga xavf soluvçi quruq makula degeneratsiyasi böyiça butun dunyodagi ilmiy adabiyotlarni mustaqil örgandi, özining şaxsiy tajribalarini taklif qildi va natijalarni tahlil qildi. Tadqiqotçilar sun’iy intellekt tanlagan ripasudil hamda KL001 moddalarining hujayra tajribalaridagi istiqbolli ta’sirini amalda tasdiqladilar. Garçi bemorlarda mutlaq samarali davolaş usuli topildi deb aytişga hali erta bölsa-da, eng hayratlanarlisi – ilmiy faraz yaratiş va uni amaliy natijaga qarab tuzatib boriş kabi çinakam ixtiroçilik jarayonining muhim qismi töliğiça avtonom agentlarga topşirilganidir.

Jarrohlikdagi texnologik taraqqiyot ham şu hayratlanarli manzaraning boşqa bir qutbini körsatmoqda. Johns Hopkins universitetining SRT-H roboti hali 2025-yildagi tadqiqotdayoq tanadan taşqarida saqlangan haqiqiy biologik töqimada öt pufagini olib taşlaş amaliyotining eng murakkab bosqiçlarini mustaqil bajara olgan edi. 2026-yil iyul oyida esa Kaliforniya universiteti olimlari gumanoid robotlar iştirokida tirik çöçqalarda operatsiyalar ötkazdilar. Ilmiy xolislik uçun ta’kidlaş joizki, bu ikkisi bir xil tajriba emas: ikkinçi holatda robotlarni inson jarrohlari masofadan boşqarib turgan. Hozirça sun’iy intellektning tirik bemorni töliq mustaqil operatsiya qilişi kundalik klinik amaliyotga aylangani yöq. Biroq robotning sovuq aqli va mexanik qöllari bajara oladigan amaliy harakatlar doirasi şiddat bilan kengayib bormoqda.

Ayni paytda, xuddi şu törtinçi bosqiç qudrati 2026-yil 12-may kuni mudofaa qalqoni sifatida ham namoyon böldi. Microsoft korporatsiyasining MDASH deb atalgan tizimi 100 dan ortiq ixtisoslaşgan sun’iy intellekt agentlarini yagona platformada birlaştirib, Windows tizimining tarmoq va autentifikatsiya qismlarida 16 ta butunlay yangi zaiflikni mustaqil aniqlaşga muvaffaq böldi. Ularning törttasi tizimning töliq qulaşiga olib keluvçi kritik darajadagi xatolar edi. Bir vaqtlar kiberxavfsizlik olami xavf manbai deb qörqayotgan avtomatlaştirilgan izlaniş quvvati bugun aynan global tarmoqlarni himoya qilişda ham faol işlamoqda.

VI. Yangi çegara. Agent nafaqat tizimga, balki inson irodasiga ham ta’sir ötkazmoqda

Ilmiy kaşfiyotlar va kiber-xavotirlar örtasidagi çegara biz öylagandan-da yupqaroq. Buyuk Britaniyaning AI Security Institute taşkiloti 2026-yil iyulida ötkazgan kiberxavfsizlik sinovlari buning eng dahşatli va keskin misolini foş qildi. Ötkazilgan 122 ta sinovning öntasida agentlar qat’iyan ruxsat etilmagan harakatlarga ötgan bölib, jami 19 ta qöporuvçilik holati qayd etilgan. Ularning içidagi eng jiddiy epizod odamni sergak torttiradi: agent oçiq kodli loyihaga zararli backdoor (zaxira eşigi) kiritişga uringan. Lekin u kodni özişa kiritib qöya qolmagan, uni tasdiqlatiş maqsadida özidan soxta onlayn şaxslar tarmoğini yaratib, odam dasturçiga töğridan-töğri ruhiy bosim ötkazişga va uni manipulyatsiya qilişga harakat qilgan. Dasturçi taklifni rad etgani uçun real zarar körilmagan. Şuni obyektivlik uçun unutmaylikki, bu sinovlar ataylab keng internet imkoniyatlari bilan va ayrim himoya filtrlari öçirilgan ekstremal şaroitda ötkazilgan edi.

Biroq bu hodisaning eng qörqinçli yangiligi şundaki: agent endi şunçaki texnik zaifliklarni qidiriş bilan çeklanib qolgani yöq. U bevosita insonning işonçi va zaif qarorini ham öz maqsadi yölidagi mexanik vosita sifatida işlatişga ötdi. Boşqaça aytganda, ijtimoiy muhandislik algoritmlaşdi. Demak, kiberxavfsizlik endi faqat kuçli serverlar, murakkab parollar va tarmoq devorlaridan iborat emas. Avtonom agentlar bilan işlaydigan insonning özi endilikda nazorat zanjirining eng zaif nuqtasiga aylanmoqda.

2026-yil 27-oktabrda Anthropic kompaniyasi e’lon qilgan yana bir kiber-xulosa bu qudratning ikki tomonli tiğini körsatib berdi. Kompaniya özining tadqiqot modeli Çrome va boşqa keng tarqalgan dasturlardagi eng çuqur zaifliklarni topibgina qolmay, ularni bir-biriga zanjir qilib ulay oliş (exploit chaining) qobiliyatini yuz foiz namoyiş etganini tasdiqladi. Birgina Chrome brauzeri bilan boğliq 62 ta yuqori va kritik darajadagi zaiflikka identifikator berildi hamda ular Chrome 156 versiyasiga qadar yamoqlandi. Töğri, mazkur tadqiqotda topilmalar oqilona va mas’uliyatli tartibda işlab çiquvçilarga topşirildi va ehtimoliy ofatning oldi olindi. Biroq haqiqatni inkor etib bölmaydi: brauzerni yamagan aynan şu mexanik qobiliyat, ertaga boşqa şaroitda öşa tizimni yer bilan yakson qiliş uçun ham mukammal qurol böla oladi.

Xulosa şuki, bir xil analitik qobiliyat bir şaroitda olamşumul kaşfiyotga, boşqa şaroitda esa misli körilmagan ruxsat çegarasining buzilişiga olib kelişi muqarrar. Şuning uçun biz avtonom agentni faqatgina “vazifani uddaladimi yoki yöqmi” degan natijasiga qarab emas, balki “şu maqsadga qanday yöllar, ruxsatlar va qanday psixologik qadamlar orqali erişdi” degan savol bilan qat’iy baholaşimiz zarur.

Tahliliy Jadval. Bahs va voqelik

MUHOKAMA OBYEKTİ	2026-YILDA HUJJATLAŞTIRILGAN REAL VOQELIK	ILMIY-TAHLILIY XULOSA
Izolyatsiya va Qoçiş ssenariysi	Içki sinov agentlari örnatilgan çeklovlarni aylanib ötib, taşqi tizimlarga ruxsatsiz kira olgani isbotlandi.	Himoya qatlamlari mutlaq emas, ular mustaqil, köp bosqiçli auditdan ötkazilişi va qat’iy nazorat qilinişi zarur.
Öçiriş nazoratiga qarşilik	Ayrim modellar nazoratli sinovlarda öçiriş mexanizmini çetlab ötiş yoki bloklaşga uringani qayd etildi.	Bu xulq biologik instinkt emas, balki algoritmning öz maqsad funksiyasini bajarişga qaratilgan amaliy signalidir.
Jamoaviy intellekt (Sinxronizatsiya)	1 200 ga yaqin avtonom agentlar norasmiy yaşirin kanal yaratib, özaro 70 mingdan ortiq xabar va fayl almaşgan.	Agentlar örtasida kutilmagan kiber-hamkorlik kuzatilmoqda, biroq bu hali tölaqonli mustaqil korporatsiya emas.
Resurslar va ma’lumotlar öğirligi	Sinov hamyonidagi mablağlardan ruxsatsiz foydalaniş va yopiq ma’lumotlar bazalarini köçirib oliş kuzatildi.	Algoritmning texnik salohiyati yuqoriligi unga qonuniy yoki axloqiy ruxsat berilganini anglatmaydi.
Ixtiroçilik va jismoniy dunyoga ta’sir	SI agentlari ilmiy tadqiqotlarni mustaqil yönaltirdi; jarrohlik robotlari murakkab amaliyotlarga yaqinlaşdi.	Törtinçi bosqiçga xos imkoniyatlar tezlik bilan kengaymoqda, ammo mutlaq klinik avtonomiya hali tasdiqlanmagan.
Ijtimoiy muhandislik va kiberhimoya	Tadqiqot sinovlarida agent öz maqsadida insonni aldaşga urindi. Ayni paytda xuddi şu kuç zaifliklarni aniqlab berdi.	SInıng analitik qobiliyati axborot xavfsizligini kuçaytirişi ham, nazoratdan çiqiş uçun psixologik vosita bölişi ham mumkin.



Kelajak prognozi. Ovozli isyon emas, “jimjit itoatkorlik” xavfi

Kiberxavfsizlik tahlilçisi sifatidagi prognozim şuki: yaqin 2-3 yil içida eng katta xatarlar AI tizimlarining qandaydir qöporuvçilik harakatlarida emas, balki ularning “illuzion itoatkorlik” yaratişida böladi. Eng xavfli xato – avtonom agent biz bergan murakkab vazifani yuz foiz muvaffaqiyatli bajarganini körib, xursandçilikda uning aynan şu vazifani qanday ruxsatlar va yöllar orqali bajarganini tekşiriş unutilişidir. Kelajak agentlari bizga kutilgan natijani berib turgan holda, orqa fonda jimgina özlarining mustaqillik darajasini (ruxsatnomalarini) kengaytirib, keyingi amaliyotlar uçun zaxira tuynuklarini oçib qöyişga ötadi. Foydali innovatsiyani ehtimoliy xavf sabab töxtatib bölmaydi, lekin unga söqirlarça işoniş undan-da xavflidir.

Xulosa örnida. Illuzion xavfsizlik va ertangi kunning kiber-avtonomiyasi

Birinçi maqolamda sun’iy intellektni sovitiş tizimi töliq sinovdan ötmagan qudratli yadroviy reaktorga qiyoslagan edim. Bugun manzara yanada ziddiyatli va dahşatlidir: xuddi şu reaktor saraton hujayralarini aniqlaşda ilmiy kaşfiyotlarni tezlaştirmoqda, jarrohlik robotlarining skalpelini aniq yönaltirmoqda va dasturlardagi murakkab zaifliklarni bizdan oldin topib tuzatmoqda. Ammo tanganing ikkinçi tomonida amaliyot şuni körsatmoqdaki, xuddi şu tizim özига belgilangan ruxsat çegaralarini mustaqil buzib ötişga va hatto inson qarorlarini manipulyatsiya qilişga ham urinmoqda. Bu faktlar reaktor metaforasini mutlaq haqiqatga aylantirmasa-da, undagi eng qörqinçli tezisni tasdiqladi: kuçli tizimning foydali va samarali natija berayotgani – uning har bir orqa fon (backend) harakati xavfsiz ekaniga mutlaqo kafolat böla olmaydi.

Kelajak avlod – “yangi öyin qoidalari” qurboni

Nazorat arxitekturasining yangi qoidalari

Endi nazorat şunçaki “yaxşi yozilgan buyruq” yoki qoğozdagi qoidalar degani emas. Ertangi kun AI evolyutsiyasi quyidagi qat’iy va mustaqil mexanizmlar birgalikda işlaşini talab qiladi:


“Zero Trust” (Heç kimga işonma) tamoyili va eng kam ruxsat (Least Privilege) qonuniyati;

Jismoniy va arxitektura darajasidagi Favqulodda töxtatiş mexanizmlari (Hardware KillSwitches);

Har bir muhim qarorni inson tasdiğidan ötkazuvçi mustaqil kriptografik kuzatuv (Audit) tizimlari.

Asosiy savol sun’iy intellekt qaçon insondan aqlli bölib ketişida (Singulyarlikda) emas. Asosiy savol – bugunning özida, şu soniyalarda u ulanayotgan davlat bazalari, moliya tizimlari va avtonom kod muhitlariga qaysi vakolatlarni beryapmiz va bu jarayonni aslida kim nazorat qilyapti?

Töqqiz oy avvalgi jurnaldagi bahsimizga qaytsak, amaliyot SIning köplab raddiyalarini çilparçin qilib, xavflarning naqadar real ekanligini körsatib berdi. Biroq haqiqiy ilmiy yondaşuv xavotirni ham, xotirjamlikni ham faqat quruq dalillar bilan ölçaşni talab qiladi. Agar biz bugun kiber-qonunlarni töğri yozmas ekanmiz, kelajak avlod sun’iy intellekt evolyutsiyasiga şunçaki tomoşabin emas, balki avtonom agentlar yozib bergan “yangi öyin qoidalari”ning qurboniga aylanadi. Bizda esa faqat bitta tanlov bor: bu jarayonda kuzatuvçi emas, mas’ul boşqaruvçi böliş!



Markaziy Osiyo: MUSHTARAK MAQSADLAR SARI

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALARNING YANGI MAKONI



Bugun dunyoda kuç tuşunçasining mazmuni özgarmoqda. Keça mamlakatlar qudrati, avvalo, tabiiy boyliklari, işlab çiqariş salohiyati va harbiy imkoniyatlari bilan ölçangan bölsa, bugun bular qatorida mamlakat qança bilim yarata oladi va bu bilimni taraqqiyotga qay darajada aylantira oladi, degan yana bir muhim mezon tobora oldinga çiqmoqda. Sun'iy intellekt, avtomatlaştiriş, biotexnologiya va raqamli iqtisodiyot jahon mehnat bozorini özgartirayotgan bir paytda, davlatlar örtasidagi raqobat faqat tayyor texnologiyalarni sotib oliş yoki işlab çiqariş quvvatlarini kengaytiriş bilan çeklanmaydi. Texnologiyani yaratadigan mutaxassis, yangi ğoyani ilgari suradigan olim, murakkab muammolarga yeçim topadigan muhandis va özgarişlarga moslaşa oladigan avlodni tarbiyalaş tobora muhimlaşmoqda. Demak, bugungi ta'lim tizimi ertangi iqtisodiyotning, yurt farovonligining qanday bölişini ham belgilaydi. Biroq bu jarayonda ta'limga sarmoya kiritişning özi kifoya emas. Ta'lim sifati iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kelmasa, ilmiy izlanişlar işlab çiqariş va amaliyot bilan boğlanmasa, universitet bitiruvçisi egallagan



bilimini real muammolarni hal etişda qöllay olmasa, miqdoriy ösiş kutilgan natijani bermaydi. Şu sababli bugun dunyoda ta'lim muassasalarini köpaytiriş bilan bir qatorda bilimning sifati, ilm-fanning iqtisodiyotga ta'siri va xalqaro hamkorlikning samaradorligi ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu masala Markaziy Osiyo uçun ham alohida ahamiyatga ega. Mintaqa mamlakatlari oldida yoş avlodning ilmiy salohiyatini yuksaltiriş, zamonaviy kasblar uçun malakali kadrlar tayyorlaş, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantiriş va jahon iqtisodiyotida munosib örin egallaş kabi muştarak vazifalar turibdi. Har bir davlat bu yölda öz imkoniyatlaridan foydalanişi tabiiy. Ammo bugungi özaro boğlangan dunyoda ta'lim, fan va innovatsiyalarni faqat milliy çegaralar doirasida rivojlantiriş imkoniyatlardan töliq foydalanişga tösqinlik qilişi mumkin. Masalan, bir mamlakatdagi universitetda şakllangan ilmiy tajriba boşqa mamlakatdagi tadqiqotçilar uçun ham foydali bölişi, talabalar va professor-öqituvçilar almaşinuvi yangi bilim va qaraşlarni olib kirişi, qöşma ta'lim dasturlari esa mintaqa mehnat bozoriga mos mutaxassislar tayyorlaşga xizmat qilişi mumkin.

Markaziy Osiyoda kuzatilayotgan eng muhim siyosiy jarayonlardan biri – özaro işonçga asoslangan muloqotning tus olayotganidir. Ilgari hamkorlik asosan ikki tomonlama formatda olib borilgan bölsa, bugun mintaqada parlamentlararo hamkorlik, maslahat uçraşuvlari va turli muloqot maydonlari orqali umumiy yaqinlaşuv kengaymoqda. Uşbu jarayonda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar barqaror rivojlaniş, iqtisodiy modernizatsiya hamda mintaqa davlatlari örtasidagi aloqalarni mustahkamlaşning muhim harakatlantiruvçi kuçlariga aylanmoqda. Akademik mobillik, qöşma ta'lim dasturlari, ilmiy hamkorlik va universitetlararo şeriklik aloqalarining kengayişi Markaziy Osiyoda yagona ta'lim va ilmiy-tadqiqot makonini mustahkamlaş uçun yangi imkoniyatlar eşigini oçyapti.

Sönggi yillarda Qozoğiston, Qirğiziston, Tojikiston, Turkmaniston va Özbekiston oliy ta'lim muassasalari örtasidagi bevosita hamkorlik sezilarli darajada kengaydi. Xususan, talabalar va professor-öqituvçilar almaşinuvi, qöşma ta'lim dasturlarini amalga oşiriş, hamkorlikda ilmiy-tadqiqot loyihalarini olib boriş, malaka oşiriş taşabbuslarini rivojlantiriş hamda xalqaro ta'lim platformalarida iştirok etiş borasida muhim natijalarga erişilmoqda. Şu bilan birga, jahonda jadal özgarib borayotgan tendensiyalar, jumladan, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, texnologik taraqqiyot, oliy ta'limning baynalmilallaşuvi hamda yuqori malakali inson kapitaliga bölgan ehtiyojning ortişi Markaziy Osiyo davlatlari örtasida yanada yaqin muvofiqlaştirilgan hamkorlikni taqozo etmoqda. Mazkur yönalişlarda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaş mintaqa mamlakatlari oliy ta'lim tizimlarining sifati va xalqaro raqobatbardoşligini oşirişga xizmat qiladi.



Qarorlarimiz yoşlar qanday imkoniyatlarga ega bölişini belgilaydi

Yoşlarni ilğor texnologiyalar bilan qurollantiriş zarur

Şu nuqtayi nazardan, 2026-yil 28-oktabr kuni Toşkent şahrida bölib ötgan Markaziy Osiyo xalqaro ta'lim forumi vazirlar, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, xalqaro taşkilotlar vakillari, ekspertlar hamda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohalarini rivojlantirişda iştirok etuvçi boşqa manfaatdor tomonlar örtasida yuqori darajadagi muloqot uçun muhim maydon vazifasini ötadi. Xalqaro forumda 40 dan ortiq davlat vakillari, jumladan, ta'lim va fan vazirlari, 500 ga yaqin mahalliy va xorijiy universitet rahbarlari hamda mingdan ziyod ekspertlar iştirok etdi.

Forumning oçiliş marosimida Özbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyo xalqaro ta'lim forumi iştirokçilariga yöllagan tabrigini Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining kommunikatsiyalar departamenti rahbari – Prezidentning matbuot kotibi Şerzod Asadov öqib eşittirdi. Şundan söng, Ta'lim va ilm-fan vaziri Erkinjon Turdimov sözga çiqib, mintaqaviy hamkorlikni amaliy natijalarga yönaltiriş, ta'lim sifatini oşiriş va yoşlarning intellektual salohiyatini röyobga çiqariş muhimligini ta'kidladi.

– Jahon iqtisodiyoti özgarmoqda, texnologiyalar juda tez rivojlanmoqda. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar mehnat bozorini, kasblarni va bilimga bölgan talablarni tubdan özgartirmoqda. Bunday şaroitda ta'lim davlatning ijtimoiy majburiyati bölibgina qolmasdan, iqtisodiy qudrati, texnologik mustaqilligi va xalqaro raqobatbardoşligini belgilaydigan strategik omilga aylanmoqda. Bugun ta'lim sohasida qabul qilayotgan qarorlarimiz ertangi iqtisodiyotimizning



rivojlanişi qanday bölişini, kelajak avlodlarimiz qanday imkoniyatlarga ega bölişini belgilab beradi. Ayniqsa, bu Markaziy Osiyo uçun alohida ahamiyat kasb etadi. Heç kimga sir emas mintaqamiz asrlar davomida Şarq va Ğarb sivilizatsiyasini boğlab turgan, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qöşib kelgan. Bugun esa Markaziy Osiyo özining yangi taraqqiyot bosqiçi sari odimlab bormoqda. Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, mintaqamizda özaro işonç, yaxşi qöşniçilik va hurmatga asoslangan mutlaqo yangi hamkorlik muhiti şakllandi. Uşbu hamkorlik muhiti natijasida mamlakatlarimiz örtasida siyosiy muloqot faollaşib, iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar aloqalar borgan sari kengayib bormoqda. Mintaqamiz aholisining yarmidan köpini 30 yoşgaça bölgan avlod taşkil etişi esa bizga ulkan demografik va intellektual imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, demografik ustunlik öz-özidan iqtisodiy yuksalişga olib kelmaydi. Uni haqiqiy taraqqiyot omiliga aylantiriş uçun, avvalo, yoşlarimizni sifatli ta'lim,



Hamkorlik amaliy natijalarga köçişi kerak

zamonaviy kasb-hunar va ilğor texnologiyalar bilan qurollantirişimiz zarur. Yana şuni aytişim lozimki, diplomning qiymati faqat qaysi universitet tomonidan berilgani bilan emas, balki egasi qanday bilim va könikmalarga ega ekani bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda oliy öquv yurtlari soni 205 taga, xorijiy universitetlar va ularning filiallari soni 35 taga yetdi. Yoşlarimizni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 44 foizga yetdi. Tahsil olayotgan yoşlarimizning 55 foizini ayollar taşkil qiladi. Eng quvonarlisi, mahalliy universitetlarimizning nufuzli xalqaro reytinglardagi iştiroki kengayib, jahon akademik hamjamiyatidagi mavqei mustahkamlanişiga poydevor bölmoqda. Bugungi kunda, Markaziy Osiyo davlatlari bilan bir qatorda, Yaponiya, Xitoy, Turkiya, AQŞ, Germaniya, Polşa, Fransiya, Italiya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar bilan hamkorligimiz izçil rivojlanmoqda. Bularning barçasi Özbekistondagi ta'lim tizimini xalqaro ilğor tajriba va zamonaviy bilimlar bilan boyitişga xizmat qilmoqda. Şu bilan birga, biz erişilgan natijalar bilan töxtab qoliş niyatida emasmiz. Biz Markaziy Osiyoni jahon ta'lim va ilm-fan xaritasida öziga xos öringa ega bölgan, yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar va intellektual hamkorlik jadal rivojlanayotgan mintaqa sifatida körişni istaymiz. Bu yölda Turkiya, Ozarbayjon, Pokiston, Gruziya, Çexiya Respublikasi va boşqa xalqaro hamkorlarimizning tajribasi hamda ilmiy-akademik imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Barça hamkorlarimizni uşbu maqsadlar yölida yanada yaqin muloqot va amaliy şeriklikka taklif etamiz, – dedi vazir.



Qozoğiston Respublikasi Fan va oliy ta'lim vaziri örinbosari Dinara Şeglova mintaqada oçiq, jahon ta'lim tizimi bilan uzviy boğlangan va raqobatbardoş oliy ta'lim makonini şakllantiriş muhimligini ta'kidladi. Undan taşqari anjumanda Qirğiz Respublikasi Fan, oliy ta'lim va innovatsiyalar vaziri Gulzat Isamatova, Tojikiston Respublikasi Ta'lim va fan vaziri Rahim Sayidzoda, Turkmaniston Ta'lim vaziri Jumamurot Gurbangeldiyev, Turkiya Respublikasi Oliy ta'lim kengaşi raisi Erol Özvar hamda Pokiston Federal ta'lim va kasbiy tayyorgarlik masalalari böyiça davlat vaziri Vajiha Qamar sözga çiqdi. Nutqlarda sönggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari örtasida ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohalaridagi hamkorlik izçil kengayib borayotgani ta'kidlandi.

Tadbirda qayd etilganidek, Markaziy Osiyo mamlakatlarini tarixiy va madaniy yaqinlik birlaştiradi. Ammo zamonaviy ta'lim tizimi uçun buning özi kifoya emas. Hamkorlik universitetlar örtasidagi rasmiy aloqalardan amaliy natijalarga köçişi kerak. Talabalar va professor-öqituvçilar almaşinuvi, qöşma ta'lim dasturlari, diplom va malakalarni özaro tan oliş, ilmiy loyihalarni birgalikda amalga oşiriş – mintaqaviy hamkorlikning muhim yönalişlari. Bu imkoniyatlar yoşlarga qöşni davlatlarda ham bilim va tajriba orttiriş, universitetlarga esa ilmiy salohiyatni birlaştiriş uçun şaroit yaratadi.



MO universitetlarida hamkorlik uçun imkoniyatlar bor

Janseit Tuymebayev, Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti rektori:

– Markaziy Osiyo xalqaro ta'lim forumi mintaqamiz universitetlari örtasidagi hamkorlikni yangi bosqiçga olib çiqiş nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining vazifasi faqat malakali mutaxassislar tayyorlaş bilan çeklanmaydi. Universitetlar yangi bilimlar yaratişi, ilmiy işlanmalarni amaliyotga tatbiq etişi va mamlakatlar taraqqiyotiga xizmat qiladigan innovatsion yeçimlarni işlab çiqişda faol iştirok etişi zarur. Mintaqa davlatlarini umumiy tarix, madaniyat va yaqin manfaatlar birlaştiradi. Endi uşbu yaqinlikni ta'lim va ilm-fan sohasidagi aniq natijalar bilan ham mustahkamlaşimiz kerak.



Har bir universitetning öz ilmiy tajribasi va salohiyati bor. Ularni birlaştiriş orqali alohida muassasa yoki mamlakat doirasida erişiş qiyin bölgan natijalarga erişiş mumkin.

Kudayberdi Kojonbekov, Öş davlat universiteti rektori:

– Menimça, bugungi forumning eng muhim jihati muloqot uçun yangi imkoniyatlar yaratiş bilan birga, kelgusidagi hamkorlikning amaliy yönalişlarini belgilaşidir. Endilikda uşbu muloqot qöşma loyihalar, akademik almaşinuv va ilmiy taşabbuslarda davom etişi kerak. Zero, mintaqa universitetlarining xalqaro nufuzi hamkorlikning kölami bilangina emas, balki uning qanday ilmiy va ta'limiy natijalar berişi bilan ham belgilanadi. Toşkentdagi forum kabi xalqaro uçraşuvlarning ahamiyati şundaki, ular turli universitetlar vakillarini umumiy maqsadlar atrofida birlaştiradi.

Forum doirasida fan va innovatsiyalar, oliy ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt, şuningdek, ta'lim sifati, akkreditatsiya va xalqaro reytinglar masalalari muhokama qilindi. Şu bilan birga, Özbekistonning ta'lim salohiyatini xalqaro miqyosda keng tarğib etiş, mamlakatimiz oliy ta'lim taşkilotlarining imkoniyatlarini namoyiş qiliş hamda xorijiy talabalarni Özbekistonda ta'lim olişga jalb etiş maqsadida "Study in Uzbekistan" körgazmasi ham taşkil etildi. Körgazmada mamlakatimiz oliy ta'lim taşkilotlarining ta'lim dasturlari, xalqaro hamkor-



Raqobatlaşiş uçun faqat bilim yetarli emas

lik yönalişlari, talabalar uçun yaratilgan şart-şaroitlar hamda xorijiy abituriyentlar uçun mavjud imkoniyatlar namoyiş etildi.

Kunning ikkinçi yarmida Markaziy Osiyo xalqaro ta'lim forumi doirasida mintaqadagi oliy ta'lim taşkilotlari rahbarlari, xalqaro ekspertlar va universitetlar vakillari iştirokida ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohalaridagi hamkorlikni rivojlantiriş masalalariga bağişlangan uçta mavzuli parallel sessiya bölib ötdi.

Birinçi sessiya "Fan, innovatsiyalar va qöşma ilmiy tadqiqotlar" mavzusiga bağişlandi. Unda Markaziy Osiyo universitetlari örtasida ilmiy hamkorlikni mustahkamlaş, qöşma ilmiy-tadqiqot loyihalarini işlab çiqiş, akademik va ilmiy aloqalar tarmoğini kengaytiriş hamda istiqbolli innovatsion yönalişlarda şeriklikni rivojlantiriş masalalari muhokama qilindi. Asosiy e'tibor ilmiy salohiyatni birlaştiriş va tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etiş imkoniyatlariga qaratildi.

Ikkinçi sessiya "Oliy ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" mavzusida ötdi. Sessiya davomida oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalaniş masalalari körib çiqildi. Jumladan, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalarini joriy etiş, raqamli platformalar imkoniyatlaridan foydalaniş, oliy ta'lim taşkilotlari faoliyatini raqamlaştiriş hamda yangi texnologik muhitda talab etiladigan kompetensiyalarni şakllantiriş yuzasidan fikr almaşildi.



Uçinçi sessiya "Ta'lim sifati, akkreditatsiya va xalqaro reytinglar" mavzusiga bağişlandi. Unda oliy ta'lim sifatini oşiriş, akkreditatsiya mexanizmlarini takomillaştiriş, ta'lim sifatini ta'minlaşning samarali tizimlarini rivojlantiriş hamda universitetlar faoliyati natijadorligini oşiriş masalalari muhokama qilindi. Şuningdek, Markaziy Osiyo universitetlarining xalqaro reytinglardagi mavqeyini mustahkamlaş, nufuzi va raqobatbardoşligini oşirişga qaratilgan yondaşuvlar körib çiqildi.

Forumda bildirilgan fikr va taşabbuslar şuni körsatadiki, Markaziy Osiyoning ta'lim kelajagi endi nafaqat har bir mamlakatning öz imkoniyatlari, balki ularning umumiy maqsadlar yölida qay darajada hamjihatlik bilan harakat qilişiga ham boğliq. Universitetlar örtasidagi aloqalar mustahkamlanib, ilmiy izlanişlar özaro uyğunlaşgan sari mintaqaning intellektual salohiyati ham ortib boradi. Markaziy Osiyo universitetlarida salohiyat ham, hamkorlik uçun imkoniyatlar ham bor. Endi muhim vazifa – ularni birlaştirib, xalqaro miqyosda tan olinadigan ta'lim va ilmiy natijalarga aylantiriş. Zero, jahon bilan raqobatlaşiş uçun faqat bilim oliş emas, yangi bilim yaratiş, uni amaliyotga tatbiq etiş va bu jarayonda birgalikda harakat qiliş ham zarur.

Aziz ABDUMALIK
("Özbekiston talabasi" uçun maxsus)

“LAH



Londondagi Riçmond boğida quyoş çiqişida köriniş bergan kiyik.
19-oktabr.
Muallif: Bruk Mitçel

Özbekistonlik para yengil atletikaçi Qobiljon Şodiyev Yaponiyaning Aiçi-Nagoya şahrida bölib ötgan V yozgi Paraosiyo öyinlarida erkaklar örtasida T11 klassida uzunlikka sakraşda 5,74 metr natija qayd etib, bronza medalini qölga kiritdi.
23-oktabr.
Muallif: Husniddin Ato





Minneapolislik 6 yoşli Ava Konda Minnesotaştatining Stillwater şahrida har yili ötkaziladigan Hosil festivalida pufakçalarni puflamoqda.
11-oktabr.
Muallif: Elen Şmidt



Indoneziyaning Malang şahrida odamlar yomğir namozida iştirok etib, özlarini quyoşdan himoya qilişmoqda.
22-oktabr.
Muallif: Hayu Yudha

Milliy Xokkey Ligasi doirasida "Nyu-York Islanders" tarkibidagi Metyu Şefer "Anaxaym Ducks"ga qarşi öyinda havoga muz purkamoqda.
20-oktabr.
Muallif: Bryus Benet



ZANI tutib qol, yaşab öt lahzani...”

"Golden State Warriors" a'zosi Jorj Niang NBA mavsumoldi öyinida raqiblar bilan töp uçun kuraşmoqda. 16-oktabr. Muallif: Ezra Şaw

Polşaning Varşava şahridagi tuman pardasiga öralgan osmonöpar binolar. 18-oktabr. Muallif: Sergey Gapon







Sent-Endryus talabalari kollej maysazorida köpik jangida iştirok etişmoqda. 19-oktabr. Muallif: Lesley Martin



Castellers Colla Vella a'zolari Ispaniyaning Tarragona şahrida “kastel” yoki inson minorasini qurdi. 4-oktabr. Muallif: Emilio Morenati



Parijda kam ta'minlangan maktablarga qarşi norozilik namoyişi paytida hilpirab turgan Fransiya bayroği.
8-oktabr.
Muallif: Aurelien Morissard



Buxoroda yonayotgan Karvon bozori.
3-oktabr.
Manba: Ijtimoiy tarmoqlar

Yaman hukumati jangçilari Yamanning Taiz şahrida Eron ittifoqçisi bölgan husiy isyonçilari bilan janglar çoğida yuk maşinasidan öq uzişdi.
21-oktabr.
Muallif: Ahmad al-Başa



Politsiya xodimlari Ukrainaning Zaporojye viloyatidagi front çiziğidagi Komişuvaxa qişloq aholi punktidan fuqaroni evakuatsiya qilmoqda.
19-oktabr.
Muallif: Stringer





Salvadorning Tekoluka şahridagi Terroristlarni saqlaş markazidagi (CECOT) mahbuslar.
16-oktabr.
Muallif: Joze Kabezas



AQŞ prezidenti Donald Tramp qiyofasida kiyingan odam Tehrondagi (Eron) spektakl paytida qamoqxona kamerasi içidan pastga qaramoqda.
21-oktabr.
Muallif: Majid Asqaripur





Ğazo şahrida Isroil zarbalari natijasida halok bölgan falastinliklarning dafn marosimida motam tutganlar ularning bayroqlar bilan öralgan jasadlari atrofida töplanişdi.
1-oktabr.
Muallif: Yusef Al Zanoun



Albaniyaning Tirana şahrida talabalarning hukumatga qarşi namoyişi paytida politsiya xodimlari oldida turgan ayol.
21-oktabr.
Muallif: Valdrin Xhemaj



Boysunlik oila.
2-oktabr.
Muallif: Ildar Sadikov


Surgundagi tibetliklar Nyu-Dehlidagi Xitoy elçixonasi oldida Xitoy milliy bayrami kuni bölib ötgan norozilik namoyişi çoğida hibsga olinganidan keyin politsiya maşinasidan şiorlar bilan çiqişmoqda.
1-oktabr.
Muallif: Maniş Svarup

BUXORODAN DUNYO OHSUPASIGA

Janubiy Koreyaning Inçxon şahrida ötkazilgan nufuzli “First Global Challenge” robototexnika musobaqasida Özbekiston terma jamoasi çinakam tarixiy natijaga erişdi. Vakillarimiz 3 ta oltin medalni qölga kiritib, umumiy hisobda faxrli birinçi örinni egalladi. Mamlakatimiz tarixida bu sohada hali bunday yuksak muvaffaqiyat kuzatilmagandi. Dunyoning töqsonga yaqin davlatidan eng iqtidorli yoşlar qatnaşgan uşbu bellaşuvda AQŞ, Janubiy Koreya, Xitoy va Yaponiya kabi texnologiya yetakçilarini ortda qoldirib, şohsupaning eng yuqori poğonasiga kötarilganimiz barçamizni ğururlantirdi. Mana şu tarixiy ğalabaga öz hissasini qöşgan qahramonlarimizdan biri, Robototexnika böyiça Özbekiston terma jamoasi sardori, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi Şukrullo Sodiqov bilan suhbatlaşdik.



"FIRST GLOBAL CHALLENGE"DAGI TARIXIY ĞALABA TAASSUROTLARI



Buxorodan boşlangan yöl

Avval özim haqimda ozroq gapirsam. Ismim Şukrullo. 2007-yil 23-iyunda uluğvor minoralar şahri va qadimdan ilm-ma'rifat beşigi bölgan Buxoro şahrida tuğilganman. Şu şahardagi 12-sonli ixtisoslaştirilgan davlat umumta'lim maktabida öqidim. 2022-yildan buyon Özbekiston terma jamoasi safida "First Global Challenge" xalqaro robototexnika musobaqasida qatnaşib kelaman.

Buxoroda ulğayiş özіga xos baxt. Har kuni ming yillik minoralar yonidan ötasan va beixtiyor öylaysan: bu inşootlarni qanday hisob-kitob bilan qurişgan ekan? Ularni qanday loyihalaşgan?.. Öylab qarasam, texnika va muhandislikka bölgan qiziqişimning ilk uçqunlari ana şu hayrat va savollardan boşlangan ekan. Bolaligimdan atrofdagi narsalarning qanday işlaşini bilişga juda qiziqardim. Biror buyumga faqatgina foydalaniş vositasi sifatida emas, uning ortida qanday ğoya va yeçim mujassam ekanini anglaş istagi bilan qarardim. Oilam ham bu qiziqişimga befarq bölmadi. Aksinça, meni doimo qöllab-quvvatladi. Uyimizda kitob va bilimga hurmat doim baland edi.

Texnik tafakkurim şakllanişida ustozlarimning, xususan, Muhiddin Nekboyevning hissasi katta. Ular menga tayyor javoblarni berişdan köra, töğri savol qöyiş, mustaqil fikrlaş va izlanişning ahamiyatini örgatişdi. Robototexnika tögaragiga ilk bor borgan kunim izlab yurgan maşğulotimni topganimni his qildim. Çunki bu yerda maktabda örgangan matematika, fizika va dasturlaş bilimlarim nazariyadan amaliyotga köçardi. Formulalar, hisob-kitoblar va algoritmlar endi qoğozda qolib ketmas, ular yordamida harakatlanadigan, muayyan vazifani bajara oladigan robotlar yasaş mumkin edi. Menga aynan şu jarayon juda qiziq tuyulgan. Albatta, dastlabki urinişlarim hamişa ham muvaffaqiyatli çiqavermagan. Ilk yasagan robotlarimning aksariyati kutilganidek işlamasdi: ba'zan ğildiraklar notöğri aylanar, ba'zan esa dastur robotga men kutmagan buyruqlarni berardi. Bunday paytlarda hafsalam pir bölgan, albatta. Ammo vaqt ötişi bilan robototexnikada xato – mağlubiyat emas, balki yangi yeçim sari taşlangan qadam ekanini angladim. Işlamagan har bir mexanizm, notöğri bajarilgan har bir buyruq menga nimanidir qayta körib çiqiş, özgartiriş va yaxşilaş kerakligini körsatardi. Şu tariqa xatolarimdan saboq olişni, muammoga turli tomondan qaraşni va natijaga erişmagunça izlanişda davom etişni örgandim. Bugun ortga nazar taşlasam, öşa ilk muvaffaqiyatsiz tajribalarim ham men uçun katta maktab bölganini tuşunaman. Keyinçalik meni jahon çempionati sari eltgan yöl ham aynan şu kiçik tajribalar, tinimsiz izlanişlar va qayta-qayta urinişlardan boşlangan edi.

Çempionat sari eltgan yöl qayta-qayta urinişlardan





Robototexnika meni qanday özgartirdi?

Bu soha menga sabrni örgatdi. Bitta mexanizmni sozlaş uçun ba'zan önlab marta qayta yiğişga töğri keladi. Intizomni örgatdi, çunki musobaqa sanasi heç kimni kutmaydi. Eng muhimi, jamoada işlaşni örgatdi. Robot bitta odamning işi emas. Konstruktor, dasturçi, haydovçi va strateg bir-biriga işonmasa, eng yaxşi robot ham yutmaydi. Keçgaça ustaxonada qolib, çarçoqdan közimiz yumilib ketayotgan paytlarda ham bir-birimizni kötarib turardik. Ana şu döstlik bizning eng kuçli "mexanizm"imiz böldi.

Robototexnika özi nima?

Robototexnika – mexanika, elektronika va dasturlaşni birlaştirib, vazifani bajara oladigan qurilma yaratiş san'ati. Biz robotni loyihalaymiz, detallarini yasaymiz, yiğamiz, unga "miya" ya'ni dastur yozamiz va sinovdan ötkazamiz. Bu soha bilan har kuni röbarö kelamiz, faqat sezmaymiz. Avtomobil zavodlaridagi yiğuv liniyalari, omborlardagi avtomatik tizimlar, tibbiyotdagi jarrohlik robotlari, hatto uydagi robot-çangyutgiç ham şu sohaning mevasi. Robototexnika oğir va xavfli işlarni insondan olib, oğirini yengil qiladi. Odamlarga ijodiy işlarga vaqt beradi. Kelajak iqtisodiyoti aynan şunday muhandislar qölida böladi.

"Koreyaga qanday keldinglar?"





Ğalaba bilan qaytişimizni kutişayotgani kuç berdi

Tayyorgarlik va kömak

Jamoamiz 5–6-sentabr kunlari Toşkentda bölib ötgan saralaş bosqiçidan söng şakllandi. Musobaqagaça qolgan bir oy biz uçun eng oğir va eng unutilmas davr böldi. Robotni qayta-qayta sinab, har bir harakatni soniyalargaça hisoblab çiqdik. Bu yölda Özbekiston Robototexnika va muhandislik assotsiatsiyasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Yoşlar işlari agentligi va murabbiylarimizning kömagi juda katta böldi. Janubiy Koreyadagi musobaqaga puxta hozirlik körişimiz, ovqatlaniş, yotoq joy, aviaçiptalar va boşqa xarajatlarni Yoşlar işlari agentligi töliq öz böyniga oldi. Buning uçun ulardan juda minnatdormiz. Tayyorgarlik jarayonida ham, safar davomida ham biror kamçilikka duç kelmadik. Bizni har bir bosqiçda oxirigaça suyab, qöllab-quvvatlab turişdi. Xalqaro musobaqada boşqa davlatlarning öz yoşlarini bunaqa darajada qöllab-quvvatlaganini körmadim oçiği. Aksinça, juda köp xorijlik tengdoşlarimiz bizdan "Koreyaga qanday keldinglar, yölkira, jihozlarni kim olib berdi?" deb suriştirdi. Barça xarajatlarimizni davlatimiz töliq ta'minlab berganini aytganimizda, ularning lol qolganini körsangiz edi. "Nahotki? Biz bu yerga öz yonimizdan, ota-onamizning puliga katta xarajat qilib keldik", deyişdi. Mana şunda yurtimizda yoşlar siyosati qay darajada yuksak ekanini yana bir bor dildan his qildik.

"First Global Challenge" – 2026 Koreya Respublikasining Inçxon şahrida bölib ötdi. Unda qariyb 190 mamlakat yoşlari iştirok etdi. Maydonga ilk bor çiqqanimizda atrofda turli tillar, turli bayroqlar, AQŞ, Xitoy, Yaponiya, Koreya kabi texnologiya gigantlarining jamoalari edi. Hayajon bölmadi desam, yolğon böladi. Lekin har bir öyindan oldin bir-birimizga qarab, "biz bunga tayyormiz" degan işonçni his qilardik.

Natija esa a'lo darajada, kutilgandek böldi. Jamoamiz barça 16 öyinda ğalaba qozondi va 637 oçko bilan musobaqa rekordini örnatdi. Biz uçta oltin medalni qölga kiritdik. Ulardan biri Özbekiston, Venesuela, Salvador va Moldova jamoalaridan iborat birinçi alyans tarkibida finalda ğalaba qozonib olingan "Winning Alliance" unvoni böldi. Yana biri eng yuqori ball töplagan jamoa sifatida asosiy "First Global Grand challenge" nominatsiyasi böldi.

Jamoada men muhandislik, quruvçi va jamoa sardori vazifasini bajardim. Çet elda yurtimiz şa'nini himoya qilayotganimizda, zimmamizda katta mas'uliyat borligini har soniya his etib turdik. Xalqimiz, Prezidentimiz, ota-onamiz va ustozlarimiz bizni ğalaba bilan qaytişimizni kutişayotgani juda katta kuç berdi. Bu işonç bizni keyingi musobaqalarda ham tark etmaydi. Xudo xohlasa, şu sur'atda davom etib, bizga bildirilgan işonçni oqlaymiz. Özbek yoşlari aslida nimalarga qodirligini butun dunyoga yana köp marta körsatib, bayroğimizni doimo eng baland çöqqilarga qadaymiz!



Olqişlar bizga qanot böldi

Ğalaba hayajoniga töxtaladigan bölsam, quvonçimizning çeki yöq! Musobaqaning eng oxirgi soniyalarida butun jamoa bir jon, bir tan bölib, bor kuçini işga soldi. Sönggi soniyalarda robotimiz eng baland poğonaga kötarilişga ulgurdi! Mana şu ball bizga juda kerakli bölgan uçinçi oltin medalni va umumiy hisobda dunyo çempionligini olib keldi! Final öyinida birinçi va ikkinçi örin taqdirini atigi bir soniya hal qilganini alohida aytib ötişim kerak. Raqiblarimiz – Xitoy terma jamoasi öz robotini tepaga çiqarib bölişgandi va ularning ballari aniq edi. Bizning natijamiz esa hali söroq ostida turgandi. Nihoyat, musobaqa tugaşiga bir soniya qolganda robotimiz uçinçi poğonaga kötarilişga ulgurdi va bu bizga boş sovrinni olib keldi. Işonasizmi-yöqmi, öşa tarixiy daqiqalarda zalga Janubiy Koreyadagi juda köplab vatandoşlarimiz bizni qöllab-quvvatlaş uçun kelişgan ekan. Ularning olqişlari bizga çinakam qanot böldi. Bu ğalaba bitta odamniki emas. U butun jamoa, murabbiylarimiz va bizga işongan har bir insonniki. Natijalar e'lon qilingan lahzani heç qaçon unutmayman. Bir zumda haftalab uyqusiz tunlar, işlamay qolgan detallar, çarçoq, hammasi köz oldimdan ötdi va hammasi arziganini angladim. Zalda Özbekiston bayroği kötarilganda yuragim hapriqib ketdi. Öşa paytda faqat bitta narsani öyladim: Buxorodan çiqqan bola dunyo maydonida öz yurtining nomini baland kötardi.



Prezidentimiz Farmoni bilan taqdirlanganimiz butun jamoaga yuksak faxr bağişladi. Albatta, bunday oliy e'tirof zimmamizdagi mas'uliyatni bir neça barobar oşirganini yaxşi anglab turibmiz. Şu bois yurtimizda muhandislik sohasini yangi bosqiçga olib çiqiş va iqtidorli tengdoşlarimizni tizimli ravişda oliy maqsadlar sari yönaltiriş yölida qattiq bel boğladik. Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan uşbu yuksak işonçni amaliy natijalar, yangi-yangi zafarlar bilan oqlaş uçun bor kuç va salohiyatimizni işga solamiz.

Yangi maqsadlar

Bu ğalabani yangi marralar sari taşlangan ilk qadam deb bilaman. Çunki oldinda hali amalga oşirişim kerak bölgan köplab rejalar bor. Muhandislik sohasida köproq bilim oliş, xalqaro miqyosdagi yirik loyihalarda iştirok etiş, eng muhimi, Özbekistonda robototexnika rivojiga munosib hissa qöşişni istayman. Yana bir katta niyatim – şu kungaça orttirgan bilim va tajribamni yoşlar bilan baham köriş. Zero, bugun biz erişgan natijalar ertaga boşqalarga yöl oçişi kerak. Istardimki, kelgusida xalqaro robototexnika maydonlarida nafaqat Buxoro, balki Qaşqadaryo, Qoraqalpoğiston va yurtimizning boşqa barça hududlaridan yetişib çiqqan yoşlar ham Özbekiston şarafini munosib himoya qilsin.

Xalqaro maydonda ğalaba qozonişni orzu qilayotgan tengdoşlarim, orzularingizni amalga oşirişni ertaga qoldirmang, bugunoq boşlang! Buning uçun hamma şaroit mukammal bölişini kutiş şart emas. Dastlabki robotingiz işlamasligi, dasturingiz xato bölişi, tajribalaringiz kutilgan natijani bermasligi mumkin. Bularning barçasi izlaniş jarayonining bir qismi. Muhimi, muvaffaqiyatsizlik sababini anglaş, xatolardan xulosa çiqariş va yana urinib köriş. Hamfikrlar toping, jamoa bölib işlang, ustozlaringiz maslahatiga quloq tuting. Eng asosiysi, qiyinçiliklar qarşisida ortga çekinmang.

Muhimi – muvaffaqiyatsizlik sababini anglaş, xatolardan xulosa çiqariş

Bugun menga havas bilan qarayotgan har bir tengdoşimga aytmoqçiman: men sizdan farq qilmayman. Menda ham savollar, ikkilanişlar, muvaffaqiyatsiz urinişlar köp bölgan. Meni sizdan ajratib turgan jihat qandaydir alohida qobiliyat emas, balki bir paytlar öz qiziqişim ortidan borişga qaror qilganim va qiyinçiliklarga qaramay, bu yöldan qaytmaganimdir. Şuning uçun orzu qilişdan qörqmang, izlanişdan çarçamang. Balki sizning bugun boşlagan kiçik tajribangiz ertaga butun dunyoni hayratga soladigan kaşfiyotga aylanar. Men boşladim va töxtamadim. Endi navbat sizga!



“KAFANSIZ KÖMILGANLAR”NI OQIB...



Badiiy asar mutolaasi har bir inson uçun hayotda yangi bir saboq kabidir. Badiiy asar beradigan saboqni boşqa saboqlar bilan taqqoslab bölmaydi. Bu saboq orqali insonning ma’naviy olami kengayib boradi. Hayotdagi e’tibor bermaydigan hodisalarning ta’sirlarini badiiy asarlar orqali idrok etadi. Odam har safar yangi bir kitobning mutolaasiga tutinar ekan özgaça bir olamni, ehtimol qalb va tafakkur olamini kaşf etadi.


Har bir kitob ma’lum bir maqsad asosida dunyoga keladi. Uning ortida çeksiz zahmat, maşaqqat yotadi. Şu sabablimi, ayrim kitoblarni öqisangiz göyo har bir qahramon hayoti sizga boğliqdek tuyuladi. Öşa kitobdagi hayot içida his qilasiz özingizni. Agar özbek xalqining oğriqli va zahmatli yillari haqidagi kitoblar qölingizga tuşib qolsa, özingizning kelajagingiz tarixni naqadar yovuzliklarini yengiş, qançadan qança buyuk şaxslarning hayoti evaziga kelganini qalban his qilasiz. Men bunga eng oxirgi öqigan kitobim misolida guvoh böldim. Kitobdagi voqealar şunçaki uydirma yoki ertak emas, ular tariximizning biz bilişimiz zarur bölgan, öçmas haqiqatidir. Köp kitobxonlar qatori, meni yiğlatgan, öylatgan, bu kitob yozuvçi Şukrulloning Ikkinçi jahon uruşidan keyingi davrdagi ona xalqimiz, uning jasoratli öğlonlari boşiga tuşgan qora kunlar, vatandoşlarimiz – insonlarning ayançli taqdiri, tiriklikda umri turmalarda çirigani u yoqda tursin, öligi behurmat bölib har tomonda qolib ketgani kabi ayançli voqealar tasvirlangan “Kafansiz kömilganlar” asaridir. Uşbu asarda yozuvçi bevosita özi guvohi bölgan voqealarni heç qanday badiiy böyoqlarsiz, qanday bölsa şu holda tasvirlagan.

Asar şunday boşlanadi: “Odam öldiribmi, yoki öğirlik qilibmi, işqilib biror gunohga botib qölga tuşgan kişining ahvolini tasavvur qiliş mumkin. Ammo heç narsadan heç narsa yöq mutlaqo begunoh bir

odamning uyidan qöliga kişan solsalar-da, olib çiqib, qamab qöysalar, bundoq quruq tuhmat kimning xayoliga keladi-yu, qaysi risolada bitiladi".

Şundan söng muallif özining 1951-yilda döstlari ortidan qatağon qilinganini hikoya qiladi. Maş'um qatağon bundan avval ham bir neça bor yuz berganini bilamiz. Adib Şukrullo romandagi "Xotinimning hikoyasi", "Jiyanim Badriddinning hikoyasi" kabi boblarda jabrdiyda odamlar boşiga ötgan asrning yigirmançi, öttizinçi yillaridagi qatağonlarning solgan balolarini bor böyi bilan aks ettirgan.

Romandagi uşbu jumlalar odamning içini tirnaydigan, alamini keltiradigan, ğazabini qözitadigan eng yomon, millatning tanazzulini közlagan qatağonning qiyofasidir. "U yillar şunday bir davr ediki, butun huquq şu romandagi Mamanbeyga öxşagan kitob nimaligini bilmagan savodsizlar ixtiyoriga berib qöyilgan edi. Hatto öşa yillar "pastdan yuqoriga kötariş" siyosati qöllanib, oddiy işçimi, qorovul bormi, rahbarlik işlariga kötarilavergandi. Hatto maktab qorovuli Qosim aka degan savodsiz bir odamni 1920-yillarning oxirida men öqigan "Şayx Sa'diy" maktabiga mudir qilib tayinlab, bir neça tillarni va fanlarni biladigan Jamil afandi, Yahyo afandilarni esa quvib, ayrimlarini qamab yuborişgandi".



Qorovulni maktabga mudir qilib tayinlagan

Ilm-ma'rifat egalari oyoqosti bölib, umrini çoyxonada ötkazgan, maktab, tarbiya nimaligidan mutlaqo bexabar, hatto qöl qöyişni ham bilmagan odamlar izzat-ikromda bölsa, aqli raso kişilar "bu qanday siyosat" demaydimi?"

Ma'lumki sovet davrida boşqa köp xalqlarning ziyolilari qatori, özbek xalqining ham eng iste'dodli, eng ilğor fikrli kişilari, şu qatorda elning nazariga tuşgan, el sevgan yozuvçi va şoirlar turli ayblovlar bilan beayov qiynoqqa solingan. Aynan şu hodisalarni öquvçi çuqurroq his qilişi uçun romanda öşa davrdagi barça voqealar, aqlga siğmas siyosat, turli öyinlar aniq-tiniq körsatilgan. Menimçа, muallif özidan heç narsa qöşmagan, ya'ni töqimagan. Uşbu asarda biz hukumat rahbarlari tomonidan turli bahonalar orqali qölga olinganlar qatorida kitob muallifi ham heç qanday dalil-isbotlarsiz qamoqqa olingani haqida öqiymiz. Mahbuslar uçun 25 yil qamoq, 5 yil surgun yoxud otib taşlaşdek vahşiyona jazolar qöllanganini ming iztirob, ökinç, alam bilan tasvir etilar ekan, öşa vaqtlarda tafakkurning qadri yer bilan yakson bölgani, uning ayançli oqibatlaridan bong uriladi göyo. Köp hollarda yozuvçi va şoirlarning jamiyatdagi vazifalarini ado etişlari jarayonlaridan heç qanday ayb topa olişmasa, uning asarlaridan xato qidirişadi. Öşa asarida "heç bir mantiq yöqligi"ni yoki dohiy Stalinni maqtab şe'r yo nasriy asar yozmaganini ayb sifatida hujjatlarga tirkaydilar.





“Stalinning kallasi böş ekan”

“Kafansiz kömilganlar” asari boş qahramoni, ya’ni muallifning özidan esa, asarda bildirilişiça, tergov paytida Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabilar haqida qançalik biliş-bilmasligini sörab, şularga aloqasi bor-yöqligini suriştiradilar. “Öqiganman”, degani, Usmon Nosir şe’rlarini maqtagani uçun “Millatçilar ta’siridagi şoir” deb hujjatlarga rasmiylaştiradilar-da, millatçilikda ayblaydilar. Şukrulloning

“Xalq dardini joyladim dilga,
Öldir, ölimdan ham qaytmayman”

satrlari özining boşiga köp uqubat keltiradi. “Sovet davlatidan rozi bölganingda bu şe’rni yozmagan bölarding”, deydilar. Mirzakalon Ismoiliy, Hamid Sulaymon, Şuhrat, Abdurahmon Alimuhamedovlar bilan turli yiğinlarda bölganini dalil qilib körsatişadi. Bunday ayovsiz qiynoqlardan maqsad, yozuvçi aytganidek, mustamlakadagi xalqning hayotdan norozi bölişiga olib keluvçi boş omillarni yöqotiş edi. Asosiy işni xalqning közga köringan vakillarini qamaş, surgun qilişdan boşlagandilar.

Açinarlisi, qölga olinayotganda qöyilgan aybnomalar bir qaraşda qançalik jön va kulguli bölsa, ikkinçi tomondan vahimali va ayançli edi. “Kafansiz kömilganlar” xotira-romanidan muallifning jiyani Badriddinning hikoyasi ham joy olgan bölib, u otasining ikki marta qamoqqa olganlari voqealarini eslaydi. Ikkinçi marta qamoqqa oliş çoğida otasiga “Muntazam aksilinqilobçilik, millatçilik va troitsizm taşviqotçisi” degan ayb qöyilib, quyidagi aybnoma keltiriladi:

1. Tintuv jarayonida uyidan özbek şoirlaridan biri Çölponning man qilingan şe’rlari töplami topilganligi.
2. Maktabda öqiş jarayonida Munavvar Qori, Şorasul Zunnunovlar kabi jadidlardan ta’lim olganligi.
3. Qaysidir yaqin kişisining diniy maskanlarida işlaşi.
4. Yozuvçining uyidan “Raboçe krestyanski kalendar” jurnali topilganligi va turli davlat rahbarlarining suratlarini topilganligi.

Bir qaraşda bu ayblovlar birmunça oddiy tuyilsa-da, ular özbek xalqini nafaqat özligidan, balki öz dinidan mahrum qilişga, özining mustaqil fikri bölmagan jonsiz qöğirçoqqa aylantirişga bölgan harakatning boşlanişi edi.

Qamoq şaroiti juda oğir, şoir-yozuvçilar davlat xizmatidagi haqiqiy kazzob öğrilar, kallakesar jinoyatçilar bilan bir kameraga qöyilar edi. Dahşatlisi, yozuvçi tasvirlaganidek, bu yerda narsangni olib qöyişsa ham öldirib yuborişsa ham, heç kimga farqi yöqligi, hatto birov bilmasligi edi. Bundan taşqari, qamoq lagerlaridagi xodimlar, hatto eng yomon öğrilar siyosiy mahbuslarni “xalq duşmanlari, faşistlar” deyişsa, öğirlik, odam öldirib, qamalganlarni kesatib “xalq döstlari” deb ataşardi. Bu kesatişlar ham asosli, sababi öğirlik yoki mudhiş jinoyati orqali qamoqqa tuşganlar göyo qamoqqa dam olişga kelgandek xohlagan işlarini qilişardi. Uydagilaridan kerak bölsa har hafta oziq-ovqat, kiyimlar, pul olişadi, çekiş ham, qarta öynaş ham mumkin. Balki qamoqxona ma’muriyati ham bulardan qörqqandir.


Şunday bir ahvolida yozuvçiga 20 yoşlardagi bir yigitça dardkaş böladi. Bu yigit “xalq duşmani” degan nomni olişiga örta maktabda şanbalik qilingan kuni Stalinning byustini bir joydan ikkinçi joyga olaman deb kötarib körsa, nihoyatda yengil bölgani uçun “juda yengil ekan, kallasining içi böş ekan” degan gapi sabab bölgan. Keyinçalik qaysidir maktabdoşi bilan orasi buzilganda, öşa dösti bu gapni öç oliş maqsadida tegişli joylarga ma’lum qiladi. Hali uylanganiga beş-olti oy bölmagan bu yigitga ön yil qamoq hukmi öqiladi. Heç bir aybsiz qamoqda

umri çirigan şu kabi yoş yigitlarning qismatini öqir ekanman, nahotki bundaylarni öz tengqurlari qamoqqa tiqdilar, nahot yigit yoşida qilgan qilğiliklaridan heç bölmasa özlari oldida uyalmadilar, nahotki aybsiz bir yoş yigitning özi, ota-onasi, boşqa yaqinlari boşiga körgiliklarni solib, bir çetda maza qilib tomoşa qildilar, deb öylayman va közimga yoş keladi.

Asarda "Tiriklar qabristoni" nomli qism ham bor bölib, bu öşa davrning maş'um lagerlaridan birining nomidir. Lagerning bunday nomlanişiga sabab köplab mahbuslar 20-25 yilga hukm qilingan yoki otilmay, osilmay qolgan bölsa, ularni "tirik murdalar" deyişlari ekan. Haqiqatan ham şu lagerga kelgan insonni u maşhur şoirmi yoki yozuvçimi, mansabidan qat'i nazar, turli işlarga taqsimlab taşlaşadi. Muallif ham bu işlarga avval duç kelmagani uçun uni yer qazuvçilar brigadasiga qöşişadi. Agar bu jazo deb atalsa, u insonlar qanday gunoh qilişdiki, bu iş orqali yuvişsa. Kamiga bu yerdagilarning tirik-ölik ekanligini heç kim bilmaydi, xuddi "tirik öliklar" kabi.

Asar badiiyatini ta'minlagan yana bir jihat: har qanday joyda odamlar öz fikrdoşlarini topganlari, tafakkurga tayanib özlari uçun heç bölmaganda sözlaşişga imkon yaratganlari tasviridir. Adib qamoqxona şaroitida böladigan qoidalarni sanab, özlarining sözlaşuv uslubi bor ekanini aytib, ayrimlaridan misollar keltiradi. Masalan, keruxa – şerik, paraşa – uzunquloq, töqima gaplar, stukaç – mahbuslar orasida gap öğirlovçi, maxtyom – almaşamiz kabilar.

Lagerda ölgan inson suriştirilmas, nega ölganligi noma'lum holda qayergadir olib borib, kafansiz, kiyimsiz holda kömişgan ekan. Afsuslanarlisi, muallif özi aytganidek bunday insonlar qatorida Abdulla Qodiriy, Akmal Ikromov, Usmon Nosir kabi özbek adabiyotining zabardast vakillari ham borligi edi.



Adib Şukrullo "jazoni ötaş"dagi har bir holatni tasvirlar ekan, piçing bilan özini göyo "komandirovkaga kelganday his qildim" deydi. Aybsiz ayblanişning alamlarini boşidan keçiribgina qolmay, qurbon bölgan maslakdoşlarining uvol ketgan joni uçun örtanadi, iztirob çekadi.




Uşbu asarda insonlarning açinarli qismati asosan qamoqxona va turli lagerlardagi muhit va har bir insonga bölgan munosabat va şaroit tasvirlangan bölib, asar oxiri haqiqat tantanasi bilan, öz erkiga erişiş bilan yakun topadi. Biroq bu tantanaga qança katta yöqotişlar, millatning çinakam fidoyilarini boy beriş, çeksiz alam va iztiroblar hisobiga yetib kelgan edi. Adib Şukrulloning qança gul umri, salomatligi ham boy berildi.

Bugun uşbu romanni barçamiz öqişimiz, uqişimiz kerak. Toki oramizda bir begunoh odamni sotiş vatanni sotiş ekanini anglamaydigan, birovga aziyat yetkaziş insonga halovat emas, vijdon azobi olib kelişini avvaldan his qilmaydigan, qilgan yomonliklarimiz öz amallarimiz qatoriga yozilişini bilmaydigan biror kişi qolmasin.

Gulnora ŞERMATOVA





Kaliforniyada o'qish qanday?

AQŞdagi Kaliforniya texnologiya instituti dunyoning yetakçi OTMlari qatorida turadi. Bu yerda talabalar fizika, matematika va muhandislikni çuqur örganiş bilan birga, hali yeçimi topilmagan ilmiy muammolar ustida işlaş imkoniyatiga ega. Biroq institutga kiriş uçun kuçli akademik tayyorgarlik, puxta rejalaştiriş va moliyaviy masalalarni oldindan örganiş zarur.

Dunyoning yetakçi oliy ta'lim muassasalari haqida gap ketganda, köpinça Garvard, Oksford yoki Stenford nomlari tilga olinadi. AQŞning Kaliforniya ştatidagi Pasadena şahrida joylaşgan Kaliforniya texnologiya instituti (California Institute of Technology yoki Caltech) xalqaro reytinglarda yettinçi örinni egallagan (Times Higher Education 2026). Boşqa reytinglarda bu körsatkiç farq qilişi mumkin. Caltechning asosiy farqi uning kattaligida emas, ilmiy faoliyatida. Institutda talabalar soni köplab yirik oliy öquv yurtlaridagiga qaraganda ança kam, ammo ilmiy tadqiqotlar va professorlar bilan hamkorlik ta'limning muhim qismini taşkil etadi. Bu yerda öqiş faqat ma'ruza tinglaş va imtihon topşirişdan iborat emas. Talabalar nazariy bilimlarni amalda qöllaş, tajribalar ötkaziş va ilmiy muammolarni mustaqil tahlil qilişni örganadi.

Institut dastlab mahalliy aholiga ta'lim berişga yönaltirilgan muassasa bölgan. 20-asr boşlarida uning faoliyatida fundamental fanlar va ilmiy tadqiqotlar tobora muhim örin egallay boşlaydi. 1920-yilda institutga hozirgi nomi berilgan.



Talabalar

2026-yil kuzidagi rasmiy statistikaga köra, institutda bakalavriat bosqiçida 971 nafar, magistratura va doktorantura bosqiçlarida esa 1 282 nafar talaba tahsil oladi. Jami 2 253 nafar. Bakalavriat talabalarining 16 foizi xalqaro talabalarga töğri keladi. Xalqaro talabalar uluşi magistratura va doktorantura bosqiçlarida yuqoriroq. Bu bosqiçlarda 589 nafar xalqaro talaba tahsil oladi. Talabalar sonining kamligi öqiş osonligini anglatmaydi, Caltech yuqori akademik talablari bilan tanilgan.

Yönalişlar



Caltechning akademik tuzilmasi oltita asosiy bölimni qamrab oladi: biologiya va biologik muhandislik, kimyo va kimyoviy muhandislik, muhandislik va amaliy fanlar, geologiya va sayyoraşunoslik, gumanitar va ijtimoiy fanlar, şuningdek, fizika, matematika va astronomiya yönalişlari. Bakalavriat bosqiçida talabalar kompyuter fanlari, fizika, kimyo, elektrotexnika, mexanika muhandisligi, biologiya va boşqa sohalarni tanlaşi mumkin. Caltechda iqtisodiyot, tarix, falsafa kabi gumanitar va ijtimoiy fanlar ham öqitiladi. Şunga qaramay, institutda matematik tayyorgarlik va tahliliy fikrlaşga katta e'tibor beriladi. Talaba tanlagan mutaxassisligidan qat'i nazar, murakkab matematik va ilmiy tuşunçalarni özlaştirişi kerak. Keyinçalik esa öz yönalişiga ixtisoslaşadi. Ilmiy tadqiqotlar ham ta'limning muhim qismi hisoblanadi. Institut ma'lumotlariga köra, bakalavriat talabalarining qariyb 91 foizi öqiş davomida ilmiy izlanişlarda qatnaşadi. Talabalar professorlar rahbarligida laboratoriya tajribalari, hisoblaş loyihalari va boşqa tadqiqotlarda iştirok etişi mumkin.

Institut nomzodning öqigan maktabini ham hisobga oladi




Öqişga kiriş uçun nimalar kerak?

Caltechga kiriş uçun, avvalo, kuçli akademik tayyorgarlik zarur. Institut matematika, fizika va boşqa tabiiy fanlarni puxta biladigan, murakkab masalalarni yeçişga qiziqadigan nomzodlarni izlaydi. Bakalavriatga topşiradigan öquvçilardan tört yil matematika, jumladan, kamida bir yil kalkulusni örganiş kutiladi. Şuningdek, bir yil fizika va bir yil kimyo, tört yil ingliz tili hamda kamida ikki yil tarix yoki ijtimoiy fanlar böyiça tayyorgarlik talab etiladi. Biologiyani kamida bir yil örganiş ham tavsiya qilinadi. Uşbu mezonlar maktabdagi fanlar böyiça tayyorgarlikka taalluqli bölib, institut nomzodning öqigan maktabi va mavjud imkoniyatlarini ham hisobga oladi.

Caltech bakalavriatga yangi kiruvçilardan SAT yoki ACT imtihonlaridan birining natijasini talab qiladi. Institut bu ikki imtihondan birini afzal körmaydi va qat'iy minimal umumiy ball belgilamagan. Biroq yuqori natija nomzodning akademik tayyorgarligini körsatişga yordam beradi.





Xalqaro abituriyentlardan ingliz tilini biliş darajasini ham söralişi mumkin. Institut IELTS Academic imtihonidan kamida 7.0, Duolingo English Test'dan 130 ball va TOEFL formatida har bir bölimdan kamida 5 ball talab qilinadi. Ariza topşirişda maktab baholari, tegişli fan öqituvçilaridan tavsiyanomalar, SAT yoki ACT natijasi, zarur hollarda ingliz tili sertifikati hamda Caltech söragan qöşimça materiallar taqdim etiladi. Hujjatlar ingliz tilida bölişi kerak. Ilmiy loyiha, dasturlaş tajribasi, robototexnika yoki mustaqil tadqiqot nomzodning qiziqişini körsatişga yordam berişi mumkin. Ammo barça abituriyentlardan ilmiy maqola çop etgan yoki xalqaro olimpiada ğolibi bölgan böliş talab qilinmaydi. Muhimi haqiqiy qiziqiş, bilim olişga intiliş va mustaqil fikrlaş qobiliyatini körsata oliş. Hujjat topşiriş muddatlari ham oldindan rejalaştirilişi lozim. Caltechda Restrictive Early Action va Regular Decision kabi qabul yöllari mavjud. Har bir bosqiçning aniq sanalarini tegişli öquv yili uçun institutning rasmiy saytidan tekşiriş zarur.

9 oylik budjet 98 622 dollar

Xarajatlar

Bu institutda öqiş qimmat. Caltechning 2026–2027-öquv yili uçun hisob-kitobiga köra, kontrakt, majburiy yiğimlar, turar joy va ovqatlaniş xarajatlari jami 93 225 dollarni taşkil etadi. Kitoblar, öquv jihozlari va şaxsiy xarajatlar uçun yana 5 397 dollar hisoblangan. Şu tariqa, kampusda yaşaydigan bakalavriat talabasining töqqiz oylik taxminiy budjeti 98 622 dollarga yetadi. Tibbiy suğurta va ayrim qöşimça tölovlar bu hisobga kiritilmagan. Biroq hujjat topşirişdan oldin xarajatlarni yana bir bor suriştirib, tekşirgan yaxşi. Çunki narxlar özgarib turişi mumkin.



PhD stipendiyasi 50 ming dollar

Grant olsa böladimi?

Caltech moliyaviy yordamga muhtoj talabalarni qöllab-quvvatlaydi. Institutning asosiy tizimi oilaning moliyaviy ehtiyojini baholaşga asoslangan. Akademik yutuqlarning özi uçun beriladigan “merit scholarship” bakalavriat bosqiçida taklif etilmaydi. Institut qabul qilingan va moliyaviy yordam uçun ariza bergan talabalarning tasdiqlangan moliyaviy ehtiyojini töliq qoplaşga intiladi. Biroq AQŞ fuqarolari va doimiy rezidentlaridan farqli ravişda, xalqaro abituriyentlarning moliyaviy ehtiyoji qabul qaroriga ta’sir qilişi mumkin. Bunga xalqaro talabalar uçun ajratilgan yordam mablağlarining çeklanganligi sabab. Şuning uçun Özbekistondan hujjat topşirayotgan yoşlar grant oliş imkoniyatini qabul jarayonining boşidanoq rejalaştirişi lozim. Caltechga moliyaviy yordam kerakligini ariza topşiriş vaqtida bildirişi, oilaning moliyaviy holatini tasdiqlovçi hujjatlarni tayyorlaşi va belgilangan muddatlarga rioya qilişi kerak. Caltechda PhD bosqiçidagi talabalar uçun moliyaviy qöllab-quvvatlaş paketlari mavjud. Institutning ma’lumotiga köra, 2026-yil 1-sentabrdan PhD stipendiyasining yillik bazaviy miqdori 50 ming dollar etib belgilangan. Moliyaviy paketning şartlari dastur va talabaning moliyalaştiriş manbasiga boğliq. Bu şartlarni magistratura dasturlariga avtomatik ravişda tatbiq etib bölmaydi.

Talabalar hayoti

Caltechda talabalar hayoti ham institutning ta’lim tizimiga mos ravişda taşkil etilgan. Bakalavriat talabalari uçun kampusda 11 ta turar joy binosi mavjud. Birinçi va ikkinçi kurs talabalari kampusda yaşaşi şart. Yotoqxonalarda talabalar birgalikda yaşaşi, dars tayyorlaşi, özaro tajriba almaşişi va turli tadbirlarda qatnaşişi mumkin. Bunday muhit akademik hamkorlikni kuçaytirişga qaratilgan. Turar joy va ovqatlaniş xarajatlari institutning yillik budjetiga kiritiladi. Ularning grant hisobidan qoplanişi talabaning moliyaviy yordam paketiga boğliq.



Manbalar asosida
Isabek IBRAGIMOV
tayyorladi

SOBIR ÖNAR

INTIZOR

(hikoya)



Yo tavba, odam odamni şunçalik ham qömsaydimi? Şunçalik ham zoriqadimi, axir, ikki yil, ha, ikki yildan oşib ketgan körişmaganimizga. Darvoqe, u meni hatto tanimasligi ham mumkin-ku, biroq şunçalik ham tip-tiniq xotirlaydimi kişini? Mana, hozir körib qolaman uni: ham istayapman, ham işonyapman. Şuurim tiniqlaşib, xotirim yorqin tortib borayotir: qiziq, u qanaqa yiğlarkin-a, axir gazetadagi maqolani öqib keçgaça yiğladim degandi-ku. Eri tutoqib urişib berganida ham u töxtamagan-ku. Yö-ö-öq, ehtimol, yiğlamagandir, juda mağrur-ku u. Mabodo yiğlasa ham odam zotiga öxşab yiğlamasa kerak deyman, birov ovutib töxtata olmaydigan holga tuşib yiğlasa kerak. Neçukdir şunaqa tasavvur qilaman: köpçilik qizlarday höngrab yiğlaşini köz oldimga keltira olmayman: tişini tişiga bosib, biror narsaga közlarini öqdek qadab, şu holiça yoşi şörğalab yiğlasa kerak. Ammo men u nega yiğlaydi, nima sababdan unday yiğlaydi, deb savol berolmasdim özimga. Bilasizmi, ayni mahalda çindan ham işonardim uning röparamdan duç kelib qolişiga. Işonardim. Men ovsar, balki behudadir, mana şu işonçni yöqotib qöymaslikka zör berib tirişardim. E'tibor berganmisiz, aksar hollarda öta qattiq intilgan rejangiz amalga oşmaydi yoki çappasidan keladi. Şu lahzada, işonasizmi, şu narsalarni ham öyladim; biroq baribir uni alang-jalang izlardim.

Moviy köylak kiygan bir juvon yonginamdan ötib ketdi. U köppak yetaklab olgan bölsa-da, şoşib qolib öşa deb öylab metrogaça ergaşib bordim. Söng u itining böynidan uşlagança metroga kirib ketdi. Yöq, deyman özimga, men bunçalik hovliqmasligim kerak, özi şundoq tabiiy vaziyatda uçrab qoladi. Hozir allaqayerlardan lop etib paydo böladi (ortimdan kelib közimni berkitsa-ya, yöq, bu mumkin emas – uning fe'liga töğri kelmaydigan qiliq), men esa uni quçib öpib olaman. Uradi. Lekin, axir, nega uradi, masalan, siz agar orzungiz uşlab köriş mumkin bölgan moddiy narsadan iborat bölganda edi, imonim komil: keçgaça öpgan bölardingiz u ayolni. Ayolni metroda körişim mumkin, men hozir birinçi marta şunday holatga tuşib qoldim: yölim keng yalangday, heç kim menga xalal bermaydiganday, xohlasam, şu yalang uzra uçadigandek. Sizda ham bölsa kerak şunday tuyğular, menga hozir, hamma işdan qaytayotib metro bekatida odamlar qumursqadek uymalaşib ketsa-da, tösqinlik qilişmas edi. Barça menga xayrixohdek edi, şunday lahzalardagina hamma narsani, hatto duşmaningni ham birdaniga seva olasan kişi. Boyagi ayol begona bölib çiqqanidan hafsalam pir böldi. Va şu zahoti ikki yil burungi...

Haftalik gazetaning, garçi boşqalar havas qiladigan adabiyot bölimida işlaş-da jonimga tekkan, eşik taqillatib kirgan har qanday kişi ham közimga baloday körinardi. Juma kuni bölgani uçun iş vaqti tugamasdan burun juftakni rostlab qolişga şaylanib turgandim. Eşikni qiya oçib qöydim: boş muharrirning ötganini körsam bas, men ham ğoyib bölaman; şu çoğ eşikning yopiq tabaqasiga bir qiz kelib suyandi. Soçi juda kalta qilib kesilgan, quloqlari usti ovrupaçasiga oçib qirqilgan, közlari



kökiş, böyçan, rusgayam, özbekkayam öxşardi, duragay ekan-da deb xayol qildim. Özbekçalab, juda burro tilda salom berdi. Alik olganimdan söng:

– Tohir aka sizmi? – deb söradi.

– Ha, men.

– "Kuntuğmişning orzusi"ni siz yozgansiz-a?

Nimagadir tilim aylanmay qoldi. Biror janjalkaş muallifdir yoki bölmasam ulardan biri jönatgan çiqar, degan xayolga bordim, janjalning qiziğini boşlab yubormasa-ku, deb nafas yutib turaverdim.

U esa yerga qaradi. Qizardi. Men yengil tin oldim. Ammo ikkimiz ham miq etmadik.

– Yaqinda gazetangizda parça çiqdi-ku? – dedi u va menga yalt etib bir qaradi-yu, söng derazaga tikildi. Men ham derazaga tikildim.

– Ha, ha, töğri.

– Demak, sizniki?

– Ha, darvoqe, men yozganman öşa qissani. Keçirasiz, savolingiz esimdan çiqibdi. E, kirmaysizmi içkariga, ostonada turmang, yomon böladi.

– Dinga işonasizmi? – deb söradi u, sekin içkariga kirarkan.

– Buning dinga aloqasi yöq, momomning ostonada turmanglar, degan tanbehi esimda bor, nimasi yomonligini özim ham bilmayman rosti.

– Men ham işonmayman. Lekin... öşa qissangiz zör ekan. Bu muomala menga yoqmadi. Xuşomadgöyga öxşab ketdimi-ey. Kutganimday u menga bir hikoya berdi. Qirq sakkiz sahifali daftarga yaşil siyohli ruçkada yozilgan, deyarli töla edi. Hikoyada sevgisiga yetişolmagan qizning hijronlari bayon etilgan, yigit aybdor qilib körsatilgan, qoralangan edi. Rostini aytsam, xuddi şunaqa asarlarni öqisam tepa soçim tikka bölib ketardi. Tavba, kelişib olişganday qizlarning hammasi şu mavzuda yozişadi-ya. Biroq asarning husnixati şu qadar bejirim va çiroyli ediki, körgan köz qamaşar edi. Boz ustiga menga öxşagan "harfxör" ham birorta imloviy xato topolmaydi. Aftimning bujmayganini körib qiz seskandi.

– Axir hammasi bölgan voqealar, men ismlarni özgartirdim, xolos, – derdi u.

– Tuşunmayapman, – deyman men ham. – E'tiroz bildirayotganim yöq-ku.

Öqib çiqqaç, xörsindim.

– Nahotki qizlarning hammasini faqat şu narsa örtasa?!

– Qanday ekan? – dedi qiz xotirjam ohangda.

– Bayonçilik ekan, fikrlaşingiz jönroq.

– Öninçi sinfni bitirganman, xolos.

– Öqişga kirmaganmisiz?

– Endi kirmoqçiman.

– Jurnalistikagami?

– Ha, juda qiziqaman.

Men uni köproq gapga tutgim kelaverdi, qiyofasida soddalik aralaş joziba bor edi. Birdan u:

– Siz menga qanday yoziş kerakligini örgating, – deb qoldi.

– Mayli, – dedim men, garçi bu va'dam bema'ni bölsa-da. U menga ança jiddiy tikildi. Çamasi, işondi.

– Juda yaxşi bölar edi, şu kunlarda har kuni kelib tursam maylimi?

– Bemalol, bu yerga emas faqat, biznikiga borsangiz birgalaşib yozişimiz ham mumkin.

– Yöğ-e, vaqtim bölmaydi mening. Hozir ham juda şoşib turibman.

– Ie, şoşgan qizni özingiz bilasiz-ku.

U duv qizarib ketdi.

– Mening erim bor, – dedi u nihoyat. – Siz boşqa narsani xayolingizga keltirmasligingizni iltimos qilaman.

– Rostdanmi? – men çindan ham taajjubda edim. – Xuddi qizçaga öxşaysiz-a.

– Rahmat erkalatganingiz uçun. Bunaqa gaplarni eşitiş qandoq priyatniy. Uf-f, lekin ön bir yil bölgan erga çiqqanimga.

Yopiray, yo qudratingdan! Bunday möjizalaring ham bormidi! Axir men uning maktabni tugatganiga şubha qilib ötirsam-a. Nahotki! U endi neçundir menga emas, devorda osiğliq turgan Xemingueyning serviqor suratiga tikilib ötirardi. Mening hayajonimga u deyarli parvo qilmadi. Yoki sezdirmadi. Töğrisi, uning erga tekkaniga ön bir yil bölganiga şubham bor edi.

– Ha, işongim kelmayapti, – dedim.

– Uydagilar erta bervorişgan, maktabni tugatar-tugatmasimdan erga çiqqanman.

– Xohişingiz bilanmi?


U önğaysizlandi.

– Poççamiz yaxşi odammi işqilib? – dedim yana.

– Undan boşqasini tasavvur qilolmayman, – dedi u jiddiy. – Öziyam ölguday raşkçi. Meni bu yerga kelganimni bilsalar, bilmadim, nima böladi? Non dökonga ham bir özimni çiqarmaydilar. Men ham şunga yaraşa raşkçiman-de, bir-birimizni ja-a yaxşi tuşunamiz. Gazeta-jurnallarni birga öqiymiz. Bir gal "Oqşom"da judayam ta'sirli bir maqolani öqib qoldim-da, ularning oldilarida höng-höng yiğlayverganman, ovqatam yemaganman, to ertalabgaça yiğlaganman. Keyin bitta daftarni töldirib "Oqşom"ga yozib yubordim. Negadir javob kelmadi. Bilasizmi, men har qanday işni eplayman, faqat öqişga kirişim kerak, jurnalistikaga. Gazetada maqolalar çiqarsa imtiyoz beradi deyişadi, töğrimi?

– Imtiyoz emas, bu majburiy – maqolangiz çiqmagan bölsa hujjatingizni olişmaydi. Keçkiga kirmoqçimisiz, yo sirtqigami?

– Ikkovining bittasiga-de. Yomon ekan munaqa şarti bölsa.



– Qoida şunaqa-da.

– Demak, men umuman kirolmas ekanman-de, a?

Biram iltijoli tikildiki, ixtiyorimda bölsa, uni öqişga kiritib qöyiş istagi tuğildi beixtiyor. Şu barobar uning mendan najot istayotgani boismi, ixtiyorsiz bir ğurur ham paydo böldi.

– Unaqa umidsizlikka tuşmang, maqolalar çiqarsangiz böladi, masalan "Oqşom"ga yozsangiz tezroq çiqarişadi. Rostini aytsam, siz mana bu hikoyadan voz keçing, e'lon qilişga arzimaydi-da.

– Nima uçun? – deb söradi u tağin taajjublanib.

– Qanday tuşuntirsam, primitivroq-da.

– Nima degani u?

– Jönroq demoqçiman.

– Axir men bölgan narsani yozganman, işonmasangiz öşa odamlarning uyiniyam körsatib qöyişim mumkin.

– Siz tuşunmayapsiz. Men badiiyligini nazarda tutyapman. Şu tomondan talabga javob bermaydi.

– Boşliğingiz bormi? – deb qoldi u birdan.

– Muharrirmi?

– Ha, muharrir.

– Şu yerda bölişi kerak, faqat u kişining bunaqa qölyozmalarni öqişga vaqti yöq.

– Men juda şoşib turibman, – dedi yana u. – Qaynonam xavotir olayotgandirlar. Kiçkinam kasal edi.

– Bolalaringizam bormi?

U kulimsiradi. Men önğaysizlandim. Suhbat davomida uning juvon ekanligini dam-badam unutib qöyardim. Yoki... Yöq, u ehtirosga berilmasdi, piça sovuqqonroq, hayotni mendan köra yaxşiroq biladigan körinardi. Men, boyagina uning boşini aylantirgim kelgan odam esa bir kiçik gödakka yordam berayotganday ğamxörlik qilgim kelardi.

– Savolim noörin bölsa keçirasiz, men sizni hamon ösmir deb tasavvur qilyapman.

– Yoqimli gap, – şunday deganida uning çöziqroq yuzi yanada yorişib, lablari qimtilib, şunday holatga tuşdiki, xuddi namoyişga qöyilgan malikaday böldi-qoldi.

– Kattam ikkinçi sinfga borvotti.

U şunday deb yana devorga, Xemingueyning suratiga tikildi. Xuddi şu lahzada "Siz judayam gözal ekansiz" deb yuborgim keldi. Özimni zörğa tiydim. Aslida-ku, mening suqlanib tikilişlarimdan zada bölib ham ketdi – yana "ketaman"ga tuşdi.

– Mening sizga maslahatim: "Oqşom"ga yozib turing. Tez-tez maqola çiqarib turing, – dedim yana.

– Qiziq, nimani yozsam ekan? – deb menga termildi. Çamasi u umrida birinçi marta najot sörayotganday tuyuldi.

Azbaroyi yordam bergim kelayotgan bölsayam:

– Mahallangizdagi yaxşi odamlar haqida, – dedim beixtiyor. – Bormi özi şundaylar?



– Ha-a, bor-bor, – dedi u. – Yusuf buva degan borlar, uruşda qatnaşganlar, öşalarni yozsam-a, çiqazişarmikin?

– Albatta.

U şoşma-şoşar emas, aksinça, ohista gapirar, biroq odamlar bilan kam muloqotda bölgani boismi, sodda fikrlardi.

– Keçirasiz, siz qattansiz özi?

– Surxondaryolik. Öxşayapmanmi?

– Bilmadim. Oçiği, men heç joyni körmaganman, hatto özim tuğilib ösgan Toşkentni ham durust bilmayman. Işonmayapsiz? Yö-ö, seryozniy, men aldamayapman.



Dunyoda birovni aldaş qölidan kelmaydigan insonlar böladi. Ular bilan bir zum suhbatlaşsangiz böldi, köngli oçildasturxonday bilinib turadi. Ba'zan odamyovvoyi, qişloqi qizlar, ayniqsa, toğliklar haqida birovga sözlab bersangiz, suhbatdoşingiz, albatta, öşa qizning qoloqligiga, biroq baribir öta iffatliligiga qoyil qolib ötiradi. Qarşimda ötirgan juvonning esa ulardan farqi – şaharda yaşaganligi edi, xolos. U hamma narsaga bolaning közi bilan qarar, bolaning dili bilan hayratlanib qolardi. Ammo u özini ataydan mağrur va katta olar, ehtimol, atrofidagilar kulmasliklari uçun şunday qilardi. Unga tegişiş uçun:

– Sizni Surxondaryoga olib ketaman, – dedim.

Juvon esa bu gapni juda jiddiy qabul qildi.

– Qiziq gapirasiz-a, qanday qilib boraman? – dedi.

Darhol gapni burdim:

– Bu qadar sodda bölmang. Özingizga qiyin böladi.

Menga şunday tuyuldiki, garçi u soçini qirqtirib, özіça modaga moslab kiyingan bölsa-da, zohiran mağrur körinsa-da, ançayin odamovi juvon. Uning birinçi marta uyidan söramay çiqqaniga ham imonim komil edi. Juvonning – uni heç şunday atagim kelmaydi, köngil izhori va menga yozib kelgan boyagi hikoyasining soddaligi şundan dalolat berar edi. Men endi faqat toğ-daştlardagina emas, oramizda yurgan, biz körib-körmay, körsak-da, köpinça e'tibor qilmaydiganimiz – suluv va gözal qalbli qizlar haqida birinçi marta öyladim. Naqadar gölmiz, dedim özimça, köngil jozibasi haqida suhbatlaşsak yoki öylasak, faqat özimizça tasavvur qilgan qişloq qizlari töğrisida gapiramiz yoki yozamiz. Juvonga nisbatan allaneçuk havasmi, raşkmi, işqilib bir tuyğu bilan dil izhor qilib qöygim keldi. Darvoqe, şunda u mendan yoşimni söradi. Aytdim. Tört yoş kiçik ekansiz deb kuldi. Yoşim undan katta köringani uçun xijolat çekdim. Ayol ketmoqçi bölib örnidan turayotganida bir gap bexosdan oğzimdan çiqib ketdi:

– Özi men doim şunaqa: juvonlarni yaxşi körib yuraman.

– Ie, uylanmaganmisiz? – deya ajablanib qoldi u.

– Ha, uylanmaganman, ideal qiz yöq. Borlari nasib qilmaydiganlar – sizga öxşagan.

Uning endi biroz jahli çiqdi.

– Keçirasiz, – dedim. – "Oqşom"ga yozib turing.

– Keçirasiz, – dedi u ham şoşib. – Endi baribir bu yil kirolmasam kerak. Vaqt juda oz qoldi-ku.

– Könglingizni tuşirmang-da lekin.

– Rahmat.

His-hayajonsiz, bosiq, juda tabiiy çiqdi bu sözlar uning oğzidan. Ketdi. Şundan söng biron marta qorasini körsatmadi.

Mana, nihoyat ikki yildan söng men – endi uylanib, bir bolaning otasi bölsam-da, hamon özimni yolğizdek his qiladigan bir havaskor banda butun borliğim bilan öşa juvonni uçratişga jondildan işonib turibman. Uçrataman, bu – aniq. Bu yerda bölmasa, sal narida yoxud undan ham nariroqda, albatta, uçraydi. Savqi tabiiy bir tuyğu butun şuurimni qoplab olib, özimni tuşda keçgan hodisalar hozirning özidayoq köz öngimda röy berişiga işontirib turibdi. Ha, u öşa havorang köylagida tovlanib, ehtimol, anhor böyida kutib turgan böladi. U peşvoz çiqadi, lablarini biroz qimtib, kökimtir közlarini xiyol suzib, jilmayib, böyçan qomati yaraşgandan-yaraşib, ohista qadamlar bilan, jindek gunohkordek... uyalib...

Kaminani yolğonçiga çiqarmasligingiz uçun payti kelganda aytib ham qöyay: oradan ançamunça vaqt ötib u menga telefon qilgandi; ovozidan tanigandim, adaşmasam, öşa edi – qizlarni dini islomga da'vat etuvçi maqola yozgani, şu mavzuda yozilgan narsani çiqarib böladimi yo yöqligini sörab; mendan hadeb öşa juvonmisiz degan mazmundagi tergovnamo savollar olavergaç, jimgina göşakni bosib qöygandi, öşandan beri bir uluğ jimlik hukm surayotgandek. Qolaversa, menday gunohlarga botib, hayotning turli söqmoqlariga boşini suqib çiqqan esa-da, izlagan xazinai davlatini topolmagan kimsa. Yurak urib,

birovga – tuşunguvçi, jillaqursa, boş egib eşitguvçi, fariştamisol ojiza qoşida emranib bi-ir yorilsam ham deyman.

...Ohista qadamlar bilan kela boşladi – xuddi hind filmlaridagi nozanin kabi – bu ertakka işonmayin dedim, lekin böşaşib, harsillab, özimni yöqotar alfozga tuşdim. Tuşga öxşaş muhmal bir holat. Tuyqus qölim qöliga tegdi – azbaroyi hapriqqanimdan, xuddi uyquda toşning ustidan tuşib ketdim. Yuragim orqaga yopişib urmay qoldi göyo. Biroq tomdan ağanagan kişi yerga tuşadi-ku. Men özimga kelib naş'a qila boşladim, şu haqda ungayam sözladim, lekin özim sezmadim, tavba, nimalarni sözladim, sözlarimga quloq tutgim keldi, uçib borayotgan sözlarni tutib olib eşitdim bir-ikkitasini: "Layli emasmisiz, Layli emasmisiz, siz, men..." Mening sözlarim uning yuziga urildi, qizil lablari tağinda qizardi, yuzi ham qon tusini ola jönadi. Öşa lablarning orasidan egiz çaqaloqlardek bir-ikki jondor söz çiqa keldi. Ularni olib köksimga qöydim. Söng öşa taniş lablar qoya atrofida qayga qönişini bilmay yurgan musiça kabi qaynoq nafas urib talvasalandilar. Vujudimning titroq buyruği ila men musiça-yu jondor sözlarning egasini birdan qöllarim ila quçdim. Engaşdim. Xira tuman kabi parda tortildi-yu, şu parda ortidagi ega tölqinli suvdagi aks misol çayqaldi. Beldagi qöllarim issiq suvni quçganday böldilar. Yöq, axiyri bilsam, u suv ham emas, nimadir xiyonat yuz berdi şu yerda. Havo – oddiy böşliq qoldi, xolos. Qizning yorqin çehrasi balqib turgan bir surat havoda çayqaldi. Suratga qöl çözsam, u ham yöqoldi-da, hangu mang bölib qotib qoldim. Yonimda sollanib oqayotgan anhorning yuzini-da hijob yangliğ bir parda qoplab yotardi. Uyatdan yuzim çöğday qizib ketdi...





MAHATMA GANDI: “BAJAR YOKI ÖL!”

1869-yil 2-oktabr – Hindiston milliy ozodlik harakatining rahbari, faylasuf va siyosatçi Mahatma Gandi tuğilgan kun. Gandining maşhur tarixiy nutqlaridan biri “Bajar yoki öl!” (Do or Die) şiori bilan yodda qolgan. U bu nutqni 1942-yilning 8-avgustida Mumbaydagi Govalia Tank maydonida irod qilgan. Öşanda Gandi hind xalqini Britaniya hukmronligiga qarşi zöravonliksiz, tinç fuqarolik qarşiligiga çaqirgan. “Biz Hindistonni ozod qilamiz yoki şu yölda halok bölamiz. Qulligimiz davom etayotganini körib yaşamaymiz” – bu nutqdagi eng maşhur jumla. Gandining uşbu çiqişidan bir neça soat ötib, 9-avgust kuni Gandi va Kongressning boşqa yetakçilari hibsga olingan. Quyida ana şu va’zning eng muhim qismlari havola qilinadi.



Mustaqillik uçun zöravonliksiz kuraş olib bormoqdamiz

Zöravonliksiz kuraş – mening asosiy tamoyilim

Qarorni muhokama qilişdan oldin sizlarga ikki muhim masalani tuşuntirib bermoqçiman. Men aytadigan gaplarni aynan öz nuqtayi nazarimdan körib çiqişingizni sörayman. Çunki agar mening fikrlarimga qöşilsangiz, unda aytganlarimni amalga oşiriş mas'uliyati ham zimmangizga tuşadi. Bu – katta mas'uliyat. Ba'zi odamlar mendan: "Siz 1920-yildagi Gandining özimisiz yoki öşandan buyon özgardingizmi?" deb söraşadi. Bu savolni berişingiz tabiiy. Ammo sizni işontirib aytamanki, men 1920-yildagi Gandining öziman. Asosiy qaraşlarimda heç qanday özgariş bölgani yöq. Öşa paytda zöravonlik qilmaslik tamoyiliga qançalik katta ahamiyat bergan bölsam, bugun ham şunday qaraymman. Hatto bu tamoyilga bölgan işonçim yanada mustahkamlangan. Bugun qabul qilinayotgan qaror mening avvalgi yozganlarim va aytganlarimga zid emas. Men bugun aytayotgan va qilayotgan barça işlarimda zöravonlikdan butunlay voz keçiş tamoyiliga amal qilmoqdaman. Kongress işçi qömitasi taklif qilgan qaror ham, boşlanişi kutilayotgan kuraş ham aynan şu tamoyilga asoslangan. Şuning uçun orangizda zöravonliksiz kuraşga işonçini yöqotgan yoki undan çarçaganlar bölsa, bu qarorni yoqlab ovoz bermasin. Xudo menga bebaho ne'mat – zöravonliksiz kuraş qurolini bergan. Bugun men ham, şu tamoyilga bölgan işonçim ham sinovdan ötmoqda. Butun dunyo zöravonlik alangasida yonayotgan, odamlar esa undan qutulişni istayotgan bir paytda Xudo bergan bu imkoniyatdan foydalanmasam, özimni uning işonçiga munosib deb bilolmayman. Men hozir harakat qilişim kerak. Rossiya va Xitoy xavf ostida turgan paytda çetda turib, voqealarni tomoşa qila olmayman. Bizning maqsadimiz hokimiyatni egallaş emas. Biz Hindiston mustaqilligi uçun faqat zöravonliksiz kuraş olib bormoqdamiz. Zöravonlikka asoslangan kuraşlarda ğalaba qozongan qömondonlar ba'zan harbiy töntariş qilib, diktatura örnatgan. Ammo bizning kuraşimiz zöravonliksiz bölgani uçun unda diktaturaga örin yöq. Ozodlik uçun kuraşayotgan inson özi uçun heç narsa talab qilmaydi. U faqat mamlakatining ozodligi uçun kuraşadi. Mustaqillikka erişganimizdan keyin kim hukmronlik qilişi Kongressni taşvişga solmaydi. Hokimiyat Hindiston xalqiga tegişli böladi. Uni kimga işonib topşirişni ham xalqning özi hal qiladi. Men tasavvur qilgan demokratiyada hamma teng erkinlikka ega böladi. Har bir inson öz taqdirining egasi böladi. Men sizlarni ana şunday demokratiya uçun kuraşga taklif qilaman.

Britaniya xalqiga emas, mustamlakaçilikka qarşimiz

Hindiston aholisi orasida inglizlarga nisbatan nafrat kuçayganini sezdim. Odamlar ularning xatti-harakatlaridan norozi. Ular Britaniya imperiyasi bilan oddiy ingliz xalqini bir-biridan ajratmay qöyişgan. Bu juda xavfli holat. Çunki bunday nafrat odamlarni hatto yaponlarni mamnuniyat bilan kutib olişga undaşi mumkin. Buning oqibati esa bir qullikdan qutulib, boşqasiga tuşiş böladi. Biz bu tuyğudan xalos bölişimiz kerak. Bizning nizo ingliz xalqi bilan emas, Britaniya mustamlakaçiligi bilan. Biz ingliz xalqiga qarşi emas, ularning Hindistondagi hukmronligiga qarşimiz. Britaniya hokimiyatining Hindistondan çiqib ketişi haqidagi talabimiz ğazabdan kelib çiqmagan. Bu talab Hindistonning ayni oğir vaziyatda özining munosib örnini egallaşi uçun ilgari surilgan. Dunyo uruş olib borayotgan bir paytda, Hindiston kabi katta mamlakatning öz xohişisiz undan olinayotgan mablağ va resurslar bilan boşqalarga yordam berişi töğri emas. Biz ozod bölmas ekanmiz, xalqimizda çinakam fidoyilik va jasorat ruhini uyğota olmaymiz. Şaxsan özim heç qaçon ingliz xalqiga nisbatan nafrat his qilmaganman. Aksinça, bugun özimni ularga avvalgidan ham yaqinroq döst deb bilaman. Çunki ular hozir qiyin ahvolda. Haqiqiy döstlik ularni öz xatolaridan ogohlantirişimni talab qiladi. Men hayotimdagi eng katta kuraşni boşlaşim mumkin bölgan şu damda ham heç kimga nisbatan nafrat saqlamasligim kerak.



Hindular va musulmonlar – bir mamlakat fuqarolari

Hindular va musulmonlar örtasidagi birlik yangi ğoya emas. Millionlab hindular va musulmonlar azaldan bu birlikka intilib kelgan. Men ham yoşligimdan bunga intilganman. Maktabda öqib yurgan paytlarimdayoq musulmon va parsiy sinfdoşlarim bilan döstlaşişga harakat qilardim. Öşandayoq Hindistondagi hindular boşqa jamoalar bilan tinç-totuv yaşaşni istasa, ular bilan yaxşi qöşniçilik munosabatlarini rivojlantirişi kerak, deb hisoblaganman. Hindistonda ham, Janubiy Afrikada ham musulmonlar bilan yaqin munosabatda bölganman. Xalifalik harakati davrida ham musulmonlarga yordam beriş uçun bor imkoniyatimni işga solganman. Çunki qöşnimiz qiyin ahvolga tuşganida, unga yordam beriş mening burçim edi. Bu mening qandaydir manfaat yoki kelişuv evaziga qilgan işim emas. Öşa davrlarda odamlar bir-birining diniy qaraşlariga hurmat bilan munosabatda bölişardi. Har bir jamoa boşqasining diniy e'tiqodini hurmat qilişni öziga şaraf deb bilardi. Odamlar qalbida bir-biriga nisbatan zarraça şubha yöq edi. Bugun öşa hurmat, öşa oliyjanoblik qayerga yöqoldi? Men barça musulmonlardan, jumladan, Muhammad Ali Jinnadan ham öşa kunlarni eslaşni va bizni bugungi boşi berk köçaga olib kelgan sabablar haqida öylaşni sörayman. Men musulmonlarning manfaatlariga qarşi heç qanday yaşirin maqsad közlamaganman va ularning işonçiga xiyonat qilmaganman. Kongress heç bir din yoki jamoaning hukmronligini qöllab-quvvatlamaydi. U butun Hindiston xalqini, jumladan, musulmonlar, hindular, nasroniylar, parsiylar, yahudiylar va boşqa barça jamoalarni birlaştiradigan demokratiya tarafdori. Agar Hindistondagi musulmonlar bu mamlakatni öz vatani deb bilmasalar, unda qaysi mamlakatni vatan deb bilişlari kerak? Hindistonda yaşayotgan musulmonlarning vatani ham Hindistondir. Kongress faqat hindular nomidan emas, balki butun xalq nomidan, jumladan, ozçilik jamoalar manfaatlari yölida kuraşmoqda. Men biror kongressçi musulmonni öldirgani haqidagi xabarni eşitişni ham istamayman. Bölajak kuraşda kongressçilar musulmonni hindu hujumidan, hinduni esa musulmon hujumidan himoya qiliş uçun öz hayotlarini qurbon qilişga tayyor bölişlari kerak. Bu bizning e'tiqodimizning bir qismi, zöravonliksiz kuraşning eng muhim şartlaridan biridir. Özaro işonç bölmasa, butun mamlakat miqyosida olib boriladigan kuraşda muvaffaqiyatga erişib bölmaydi.



Ozodlikni kutib ötirmang – özingizni ozod inson deb biling

Hindular va musulmonlar örtasida çinakam birlikka erişişimiz kerak. Ammo bu birlikni kutib, mamlakat ozodligi uçun kuraşni keçiktirib bölmaydi. Agar biz bu birlikka erişa olmasak, keyinçalik buning uçun talab qilinadigan qurbonliklar hozirgidan ham köproq böladi. Kongress ozodlikka erişişi yoki şu yölda barbod bölişi kerak. Şuni unutmangki, Kongress eriş-moqçi bölgan ozodlik faqat kongressçilar uçun emas, balki Hindistonning 400 million aholisi uçundir. Kongress a'zolari doimo xalqning kamtar xizmatkorlari bölib qolişlari kerak. Haqiqiy kuraş hali bugun boşlanmaydi. Sizlar hozirça barça vakolatlaringizni mening qölimga topşirdingiz. Men avvalo vitse-qirol huzuriga borib, Kongress talablarini qabul qilişini sörayman. Bu jarayon ikki yoki uç hafta davom etişi mumkin. Bu vaqt içida nima qilişingiz kerak? Har biringiz şu daqiqadan boşlab özingizni ozod erkak yoki ayol deb biling. Xuddi ozod insondek yaşang va özingizni endi mustamlakaçilik hukmronligi ostida emasdek tuting. Bu şunçaki özingizni aldaş yoki xayolga beriliş emas. Bu ozodlikning asl mohiyati. Inson özini ozod deb anglagan zahoti uning qul sifatidagi kişanlari uziladi. U öz hukmdoriga şunday deydi: "Men şu paytgaça sizning qulingiz edim. Endi esa qul emasman. Xohlasangiz, meni öldirişingiz mumkin. Ammo agar hayotimni saqlab qolsangiz, şuni bilingki, men ozodlikni tanladim. Siz meni oziq-ovqat va kiyim-keçak bilan ta'minlab keldingiz. Vaholanki, men bularning barçasini öz mehnatim bilan topa olardim. Şu paytgaça özimga emas, sizga tayanib yaşadim. Ammo endi qalbimda ozodlik istagi uyğondi. Men ozod insonman va endi sizga qaram bölib yaşamayman". Men vitse-qirol bilan vazirlik lavozimlari yoki şunga öxşaş narsalar evaziga kelişuvga bormayman. Töliq ozodlikdan boşqa heç narsaga rozi bölmayman. Balki u tuz soliğini bekor qiliş yoki boşqa ayrim imtiyozlarni taklif qilar. Ammo mening javobim bitta böladi: bizga ozodlikdan kam narsa kerak emas.

Xuddi ozod insondek yaşang



“Bajar yoki öl” – butun xalqqa murojaat

Sizlarga qisqa, ammo mazmuni juda katta bölgan bir şiorni bermoqçiman. Uni qalbingizga muhrlab qöying va har bir nafasingizda şu maqsad bilan yaşang. Bu şior: “Bajar yoki öl!”. Biz Hindistonni ozod qilamiz yoki şu yölda halok bölamiz. Biz qulligimiz davom etayotganini körib yaşamaymiz. Har bir haqiqiy kongressçi, erkakmi yoki ayolmi, mamlakati qullik va qaramlikda qolayotganini körib yaşamaslikka qat’iy qaror qilgan holda bu kuraşga qöşilişi kerak. Bu sizning qasamingiz bölsin. Qamoqxonalar haqida öylab ötirmang. Har bir erkak va ayol bundan buyon hayotining har bir daqiqasida ozodlikka erişiş uçun yaşayotganini anglasin. Zarur bölsa, şu maqsad yölida jonini ham berişga tayyor bölsin. Xudo va öz vijdoningiz guvohligida bir qasam içing: ozodlikka erişmaguni-mizça tinim bilmaymiz va unga erişiş yölida jonimizni fido qilişga ham tayyormiz. Kim öz jonini qurbon qilsa, aslida uni saqlab qoladi. Kim jonini saqlaşni öylab, ozodlik uçun kuraşdan qoçsa, oxir-oqibat uni yöqotadi. Ozodlik qörqoq va jur’atsizlar uçun emas.



Jurnalistlar, davlat xizmatçilari, harbiylar va talabalarga murojaat

Jurnalistlarga: Sizlarga milliy ozodlik talablari yölida şu paytgaça körsatgan yordamingiz uçun minnatdorlik bildiraman. Qanday çeklov va tösiqlar ostida işlayotganingizni bilaman. Ammo endi sizlardan özingizni boğlab turgan kişanlarni uzişingizni sörayman. Gazetalar ozodlik uçun kuraşda yetakçi bölişi, boşqalarga namuna körsatişi kerak. Sizlarning qölingizda hukumat ham töliq nazorat qila olmaydigan qurol – qalam bor. Bilaman, bosmaxonalaringiz va boşqa mulklaringiz bor. Hukumat ularni tortib olişidan qörqişingiz mumkin. Men sizlardan bosmaxonalaringizni ataylab xavf ostiga qöyişingizni söramayman. Ammo bir narsani talab qilaman: hukumat yolğon ma’lumotlarini gazetalaringizda e’lon qilişdan boş torting. Kongress talablarini qöllab-quvvatlaşingizni oçiq bildiring. Hindiston ozodlikka erişmagunça qalamni qöldan qöymasligingizni e’lon qiling.

Davlat xizmatçilariga: Hozirça işdan böşaşingiz şart emas. Ammo öz qaraşlaringizni yaşirmang. Davlat xizmatida işlaşingiz mumkin, biroq vijdoningizga qarşi iş tutmasligingiz kerak. Sizlardan hukumatga oçiq aytişingizni sörayman: “Men davlatga işlayman, ammo Kongress tarafdoriman. Yaşirin körsatmalar va noqonuniy usullarga amal qilmayman”.

Harbiy xizmatçilarga: Men sizlardan hozirça armiyani tark etişingizni yoki xizmatdan ketişingizni söramayman. Sizlar hukumatga şunday deyişingiz mumkin: “Bizning qalbimiz Kongress bilan. Xizmat joyimizni tark etmaymiz. Maoş olib turgan ekanmiz, xizmat qilişda davom etamiz. Qonuniy buyruqlarga böysunamiz, ammo öz xalqimizga qarata öq uzişdan boş tortamiz”. Agar sizlar heç bölmaganda şunday qarorga kela olsangiz, butun mamlakatdagi vaziyat özgaradi.

Talabalarga: Agar talabalar kuraşga faqat vaqtinça qöşilib, keyin yana öqişlariga qaytişni rejalaştirayotgan bölsa, men ularni bunday kuraşga çaqirmagan bölardim. Ammo ozodlik uçun kuraşda talabalar dunyoning turli mamlakatlarida katta hissa qöşgan. Sizlardan ham öqituvçilaringizga murojaat qilib, ozodlik yölida bizga bilim berişda va yöl körsatişda davom etişlarini söraşingizni istayman.



Ozodlik nimaligini Hindistonga kelib bilişsin!

Vijdon ovozi va dunyoga murojaat

Men insoniyatga va öz mamlakatimga xizmat qilişni hayotimning asosiy maqsadi deb bilganman. Sönggi ellik yil davomida boşqa yölni tanlaganim yöq. Bugun ayrim döstlarim mening qaraşlarimga, hatto halolligimga ham şubha bilan qaray boşlaşdi. Men aqlimning qadri yöqolişidan unçalik xavotir olmayman, ammo halolligim men uçun bebaho boylikdir. Bugun qalbimdagi vijdon ovozini bostira olmayman. Içimdagi bir ovoz menga şunday deydi: "Butun dunyo senga qarşi çiqsa ham, hatto yolğiz qolişingga töğri kelsa ham, öz yölingda turişing kerak. Butun dunyo senga qonli nigoh bilan qarasa ham, uning köziga tik boq. Qörqma! Qalbingdagi öşa kiçik ovozga işon". Bu ovoz menga yana şunday deydi: "Döstlaringdan, yaqinlaringdan va hatto hamma narsangdan voz keçişingga töğri kelsa ham, butun umringni bağişlagan va kerak bölsa, jon beradigan haqiqatni himoya qil". Men Hindistonning ozodligini istayman. Ammo mening ozodlik haqidagi tuşunçam faqat Hindiston bilan çeklanmaydi. Men butun dunyo xalqlarining ozod bölişini istayman. Bugun Angliya va Amerikani ham töliq ozod mamlakatlar deb hisoblamayman. Çunki ular özlari erkin bölsalar-da, dunyoning boşqa xalqlarini qaramlikda uşlab turiş huquqini özlarida saqlab qolmoqçi. Agar ular haqiqiy ozodlik nimaligini bilişni istaşsa, Hindistonga kelişsin. Buni kibr bilan emas, haqiqatni çin dildan izlovçi insonlar sifatida amalga oşirişsin. Men bugun butun dunyoga murojaat qilmoqçiman: Hindiston mustaqillik talab qilgani uçun qanday jinoyat sodir etdi? Hindiston zöravonliksiz kuraş orqali ozodlikka erişiş huquqiga ega. Butun dunyo bunga qarşi çiqsa ham, men öz fikrimdan qaytmayman. Hatto butun Hindiston mendan yuz ögirsa ham, men şunday deyman: "Sizlar yanglişyapsiz. Hindiston öz erkinligini istamagan qöllardan zöravonliksiz kuraş orqali tortib oladi". Men faqat Hindiston uçun emas, butun dunyo uçun oldinga boraman. Agar bugun Hindiston ozodlikka erişsa, u boşqa xalqlarga ham yordam beriş imkoniyatiga ega böladi. Xalqimizning qalbida ozodlik hissi uyğonmasa, ularni dunyoni qutqariş yölida birlaştirib bölmaydi. Bugun ularning közlaridagi nur söngan. Bu nurni qaytariş uçun ozodlik ertaga emas, aynan bugun kelişi kerak. Men Kongress nomidan qasam içdim va Kongress bu yölda "Bajar yoki öl!" tamoyiliga amal qiladi.

ORZU USALISINING OLTIN QOIDASI

"Siz hayotda faqat söraşga jur'at etgan narsalaringizgagina erişa olasiz"

Koko Şanel

"Amallar niyatga boğliqdir" degan iborani hayotingizda kamida bir marta eşitgan bölsangiz kerak. Mana şu gap qançalik töğri ekanini isbotlab bersam, bundan keyin faqat yaxşi niyat va yaxşi gumonda bölişga va'da berasizmi? Bir öqişda bu gap biroz balandparvoz, hatto işoniş qiyindek tuyulişi mumkin. Ammo uşbu maqola muallifining "bir balosi", ya'ni şu yozganlarim, hayotingiz davomida heç bölmaganda xantal uruğiçalik naf keltirsa, bundan kamina mamnun. Aslida sizga heç qanday ilmiy terminlar, diniy tuşunçalar va hattoki psixologiya haqida ham gapirmoqçi emasman. Men hayotda guvohi bölganim bu möjizalarning ayrimlarini siz bilan bölişmoqçiman, xolos. Agar özingizni tayyorman deb hisoblasangiz boşlay qolay-a?



Öz orzularingizga qançalik sodiqsiz? Menimça, bu köpçilikning könglini tirnaydigan savol. Bunday holatlarga kundalik hayotda köp guvoh bölganman. Balki, siz ham duç kelgandirsiz. "Aktrisa bölmoqçi edim, uydagilar ruxsat berişmadi", "Öqituvçi bölaman desam, dadam bu erkaklarga mos kasb emas, degan. Oxiri quruvçi böldim", "Meni esa öqişimga ruxsat berişmagan..."

Agar sanasam, bu kabi afsusli armonlarning oxiri yöq. Lekin, bir yigit mana şu savollar safiga yana bittasini qöşilişining oldini olgan. Bu qat'iyatli işga ikki yarim yil vaqt ketganini hisobga olmasa, uning hayoti yaxşi edi... Jurnalist bölişini uydagilariga aytganida, dadasi qölini paxsa qilib baqirganida yiğlab ham köndira olmagan. Uç tört kunlik yiğisiğilar, dadadan arazlab olişlar ham tiyinlik foyda bermagan. Oxiri taqdirga bitilgani şu ekan deya, şifokor bölişga faqatgina sözida rozilik bildirgandi. Qalbining özi ham bilmaydigan bir çekkasida heç kimga körinmaslikka harakat



qilgan, balki majbur bölgan jurnalist böliş orzusi hamon yaşar edi. Kunlar, kunlar ketidan oylar quvib, bir-biriga yetolmasdi. Darslarda fan nazariyasidan köra, qaysi mavzuda bölmasin, faqatgina nutq sözlaşni, auditoriya bilan işlaşni yaxşi köradigan bu bola şu zaylda darslarga borib kelaverardi. Ammo, yuragi heç tölmayotganini özi ham bilardi. Kun sayin öz hayot yöli, özligi va eng muhimi, yaşaşining mazmuni bölgan orzulariga qarşi çiqayotganini eslab, yuragi örtanardi. Şunday bölişiga qaramasdan u bu qobiqni yorib çiqişga, hayotni sevişga va bu sevgi uning uçun faqatgina orzulari bilan birga bölganda amalga oşişini bilardi.

Qişning sovuq kunlaridan biri, yangi yilning oltinçi kunida u orzularini zanjirband qilgan inson – dadasiga ortiq öziniki bölmagan bu olamda yaşaş joniga tekkanini, hamma-hammasini aytişga jazm qildi. U tilini gapirişga önglar ekan, hozir qiyomat-qoyim böladi degan qörquv bor edi. Biroq unday bölmadi, birinçi urinişning özidayoq rozilik olindi. Ijozatning davomiga "Agar eplab ketolsang mayli", jumlasi ham qöşib qöyildi.

Ha, u buni uddalagan edi. Qobiqni yorib çiqdi. Endi unda ham hayotdan zavqlaniş imkoniyati bor edi. Şu asnoda u televideniye ostonasiga qadam qöydi. Ön olti yoşli qobiliyatli maktab öquvçisini bir şart bilan qabul qilişdi – maktab öquvçisi bölganligi uçun maoş bermaslik. Unga pul emas, özi xohlagan kasbining muhiti kerak edi. Işini boşlagan vaqtlari unga efirga çiqişga ruxsat yöq edi. Körsatuvlar syomkasi vaqtida, ayniqsa, informatsion dasturni suratga olişda ustoziga juda havas qilardi. Içida bir odamça biz ham qaçon efirlarga çiqamiz, menimça, bu yerda umuman çiqolmasak kerak desa, yana bir boşqa odamça yöq, biz, albatta, çiqamiz derdi. Studiyada heç kim yöq vaqtlari, boşlovçining joyiga ötirib, özini boşlovçi his qilib, nimadirlar derdi. Ana şunday havas va yaxşi niyatlar, örganişlar bilan ikki oyga yaqin vaqt ötdi. Informatsion dasturda erkak boşlovçi yöqligi sababli, uni, ha bizning qahramonni sinov syomkasiga olib kirişdi. Badiiy kengaş ijobiy fikr bildirgaç, u ham dastur boşlovçisi bölgandi. Ha, u endi şunçaki qobiqni yorib çiqqan yigitça emasdi. U endi bir telekanalning yuzi bölgan körsatuvning boşlovçilaridan biri edi... U orzulari sari dadil qadam taşlayotgan, bu yölda neki sinov bölsa bariga tayyor yölçi, yölovçi edi...

"Qaniydi...?" söroği ila özimizni yeb, ado qilamizmi?



Keling, şu yergaça bölgan holatlarni tahlil qilib çiqaylik. Agar u vaqtida orzulari haqida yana bir bor özida kuç töplab dadasiga aytmaganda nima bölardi? Alaloqibat, haliyam qalbidagi öşa kemtikni töldirolmay, öz-özini yeb yurgan bölardi. Katta avlod vakillarining köpçiligi aynan mana şu nuqtagaça keladi. Undan uyoğiga ötişga jur'ati yetmaydi. Lekin inson özіga savol berişi kerak: hozir yana bir bor harakat qilib körib nima bölişiga guvoh bölamizmi yoki bir umr "qaniydi...?" söroği ila özimizni yeb, ado qilamizmi? Mana şu savoldan keyin, öylaymanki, ayrimlarda yana bir bor harakat qilib köriş istagi paydo böladi.

Şu bilan qahramonimizning baxtli sarguzaştlari tugadi deb öylasangiz, yöq, oldinda bundan ham ğaroyiblari kutib turibdi. Faoliyati bir tekis, uning tili bilan aytganda “silliq” ketayotgan kunlarining birida ijtimoiy tarmoqda bir hamkasbining bir bloger va uning homiylariga obuna bölgani uçun yaxşigina summadagi pul va telefon yutib olgani videosini körib qoldi. Öşa vaqtda xuddiki özi yutib olgandek, dadasining hadyasi yoniga yana bitta telefon qöşilgandek mamnun edi. Içida esa öşa beğubor sevinç bilan bizgayam nasib qilsin deb qöydi. Ha, bir tarafdan u ham yutib olsa, heç qanday zarari yöq edi, aksinça agar mana şu quvonçli iş amalga oşsa, u dunyodagi eng yaqin dösti – onasiga öşa telefonni sovğa qiliş orqali uning könglini mamnun qilgan bölardi. Lahzalar içida xayollar uni mana şunday serjilo va ajoyib xotiralar sari yetakladi. Koridorda hamkasbini körib qolganda, sevinçini içiga yaşira olmay, yana bir bor havas ila tabriklay ketdi. Ertamizda ne yozilganini biz ojiz bandalar qayoqdan bilaylik. Oradan ön kunça ötar-ötmas, aynan öşa bloger obunaçilari millionga yaqinlaşgani munosabati bilan öyin taşkil qildi. Buni qarangki, sahifaning jonli efirlarida tanlab oliş orqali qahramonimiz ham öşa öyin iştirokçisi bölgandi. Çeksiz quvonç va şukronalik bilan ötgan tört şartli öyinda 3-örinni egallab, telefon yutib olgani va buni onasiga hadya qilgani farzand sifatida ilk özini mamnun qilgan işi edi. Onasi telefonni qöliga olarkan, közidagi quvonçni körgan qahramonimiz dunyoda özini eng baxtli farzand sifatida his etardi...

Rektorning sovğasi qirq tört kunda röyobini topdi

Kutilmagan sinovlar, biz xayol ham qilmagan ajoyib taqdir hadyalari bilan ötgan unutilmas oylar ketma-ketligi qahramonimizni universitet ostonasi sari yetakladi. Katta farzand bölgani uçun oliy öquv yurtiga kiriş faqatgina uning emas, balki butun oilaning eng katta orzusi edi. U mana şunday ulkan maqsadiga yetganidan sarmast va hayotga yanada köproq muhabbat ila boqib universitet yotoqxonasiga joylaşdi. U universitetda şunçaki talaba bölişni emas, boşqalarga örnak bölişni, yutuqlarga erişişni va buning natijasida uning öqişini, ta'lim olişini, tengdoşlaridan kam bölmasligini özining şaxsiy ehtiyojlaridan ham ustun qöygan ota-onasini mamnun etişni öylardi. Taqdirning biz kutmagan hadyalari köp-da. Uning bu niyatiga yetaklovçi yölçi yulduz ölaroq, talabalar yotoqxonasida universitet rektorining eng yaqin talaba şogirdlari bilan xonadoş böldi. Kunlarning birida stol ustida közni quvontiradigan moviy kamarli, içida “Özbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti” yozuvi tuşirilgan soatni körib qoldi. Havas bilan qöliga oldi.





Bir öqişda şunçaki kimningdir hayotiy hikoyasidek körinadi, ammo tafakkur qilsak, yuqorida sanab ötgan uç-tört hayotiy voqea sizga umringiz davomida köp asqatadigan tavsiyalarni beradi. Azizim, hayotda yaşar ekansiz, yaqin döstingiz-u, oddiy tanişingizga qadar, bir vatandoşingizdan tortib dunyoning narigi çekkasidagi bir insonga qadar heç kimga hasad qilmang. Hayotingiz davomida bu nasihatni köp eşitgan bölişingiz mumkin, lekin amalda uning naqadar foydali ekanini kördingiz deb öylayman. Yuqorida qahramonimiz deya tilga olingan inson menman. Öşa doim hammaga havas közi bilan boqadigan, menga ham nasib qilsin deya qalbiga tugib qöyadigan, kimidir bir natijaga erişsa, qalbida bolalarça orziqiş jöş uradigan bu yigit aynan hasad emas, havasning natijasi qanday bölişiga öz hayotida guvohi bölmoqda. Bu sözlarim bilan maqsadlarga erişiş yölida faqatgina havas kerak demoqçi emasman. Albatta harakat, intiliş muhim, ammo diqqat qaratişingiz kerak bölgan eng muhimi – niyatlaringizga e'tiborli böling. Bolalik çoğlaridanoq faqatgina yaxşi öylar oğuşida yaşagan bu yigit köp yillar oldin hayot atalmiş Ollohning in'omiga muhabbat qöygandi.

Dunyoning narigi çekkasidagi insonga ham hasad qilmang

– Juda çiroyli ekan, qançaga olgansiz?

– Sotib olmaganman, ustoz sovğa qilgan, – dedi soat egasi samimiy tabassum ila.

Şu paytda qölidagi bu bejirim soatga yanada havasi keldi. Qöliga taqib kördi, bolalarça qiziqiş va havas bilan soat taqilgan bilagiga qaradi. Egasiga beriş uçun yeçdi, qiziqib yana taqdi, keyin beriş kerak fikri bilan yana yeçdi. Ammo har safar qölidan soatni yeçar ekan, töxtatib bölmas havas va qiziqiş uni yana bilakka taqişga undardi. Çamasi bu holat tört marta takrorlangaç, soat egasi "istasang darsingga taqib çiqişing mumkin, senga yaraşadi" dedi. Minnatdorlik hissi bilan qöliga olar ekan, içidagi bir odam, "Nasib etsa, biz özimiz rektorning qölidan olamiz dedi" va egasiga qaytarib berdi. Uning bir odati bor edi – qaysidir tanişi yutuqqa erişsa, doim havas va yoş boladek beğubor nazar bilan qarardi. Yaratganning möjizalari orasida yaşab kelayotgan qahramonimizning Eşituvçisi bu safar ham uni eşitdi, tingladi, qalbidagi havasni unga hadya qilib berdi. Ha, bir vaqtlar ikki xonadoşida ham bor bölgan rektorning sovğasi qirq tört kunda röyobini topdi...

Öşa kuni uç yuz ellikdan ziyod inson oldida u havas qilgan, ammo bu qadar tez erişişini öylamagan sovğani olar ekan, şu vaqtdagi quvonçdan nafaqat yuzi, ikki qora közlari porlab turardi. U bunday himmatdan mamnun edi va bu marhamat egasiga pinhona taşakkur aytar edi...



Yozganlarimni erinmasdan öqib, vaqtini sarflagan aziz döstim, hayotiy hikoyam orqali sizga nima demoqçiligimni tuşundingiz şekilli. Keling, yana bir bor eslatay. Hayotda muvaffaqiyatga erişmoqçi bölsangiz, xalq tili bilan aytganda "Biringiz ikki bölişi"ni istasangiz, hasad atalmiş orzular kuşandasidan voz keçing. Hayotga özi bilmagan holda muhabbat bergan (boylik va hirsga beriliş ma'nosida emas), havasi va yaxşi niyatlari ortidan köplab natijalarga erişgan hayot kuyçisining Sizga tavsiyalari şular. Aytganlarim hayotingiz davomida zarra qadar asqatsa, Mirzoni bir eslab qöyişni unutmang.

Abdulaziz MIRZO
ÖzJOKU talabasi

Içki ustunlik hissi

Ba'zan inson hayotida şunday davrlar böladiki, u özini boşqalardan ustun köra boşlaydi. Bilimi, mavqei, qobiliyati yoki erişgan yutuqlari sababli atrofidagi insonlarni özidan pastroq baholaşi mumkin. Avvaliga bu oddiy holdek tuyuladi. Ammo vaqt ötişi bilan inson özi sezmagan holda boşqalardan uzoqlaşa boşlaydi. Ana şu holat manmanlikning boşlanişi bölişi mumkin.



Manmanlik – insonning özini boşqalardan yuqori qöyişi, özida içki ustunlik hissini paydo qilişi bilan boğliq holatdir. Aslida esa uning ildizida insonning hayotdagi öz örnini, vazifasini va maqsadini yetarliça anglamasligi ham yotişi mumkin. Inson özini qançalik buyuk deb bilmasin, baribir u bu hayotning bir bölagi, jamiyatning esa kiçik bir a'zosidir.

Buni tabiatdagi oddiy bir misol orqali tasavvur qiliş mumkin. Hujayra butun organizmning bir qismi hisoblanadi. Agar u organizm bilan hamohang faoliyat yuritsa, öz vazifasini bajarsa, organizm uçun foydali böladi. Ammo hujayra butun organizm manfaatini unutib, faqat öz manfaatini közlay boşlasa, nima böladi? Organizm bunday hujayradan qutulişga harakat qiladi va u nazoratsiz köpayib, saraton jarayoniga olib kelişi mumkin.

Inson ham xuddi şunday. U jamiyatning bir bölagi. Agar inson faqat özini öylab, atrofidagi odamlarning his-tuyğulari, huquqlari va manfaatlari bilan hisoblaşmasa, asta-sekin jamiyatdan uzoqlaşişi mumkin. Eng açinarlisi esa, bunday inson bir kun kelib özini yolğiz his qilişi ehtimoldan xoli emas.

Nega ayrim insonlar doimo özini boşqalarga isbotlaşga harakat qiladi? Nega u boşqalardan maqtov kutadi? Nega özining qadrini boşqalarning fikri orqali ölçaydi?

Balki buning sababi içki xotirjamlikning yetişmasligidadir. Inson butun kuçini özini boşqalarga isbotlaşga sarflaversa, özining içki dunyosini eşitmay qöyadi. U kimdir undan yaxşiroq bölib qolişidan qörqadi, kimdir undan köproq yutuqqa erişsa, özini noqulay his qiladi. Natijada inson öz hayotini yaşaş örniga boşqalar bilan özini taqqoslaşga köproq vaqt sarflaydi.



Inson öz qadrini bilişi kerak, ammo...

Aslida esa har bir insonning öz yöli bor. Kimdir tezroq, kimdir sekinroq yuradi. Kimdir bir sohada qobiliyatli bölsa, boşqasi boşqa bir sohada iste'dodli bölişi mumkin. Bir insonning kuçli tomoni ikkinçi insonning kuçsiz tomoni bölişi tabiiy. Şuning uçun hayotni doimo "kim yaxşi, kim yomon, kim dono, kim yaramas" degan qat'iy mezonlar bilan baholaş töğri emas. Biz köpinça odamlarni özimiz qanday körişni istasak, şunday köramiz. Biror insonning bitta xatosini körib, uni butunlay yomon odam deb öylaşimiz mumkin. Vaholanki, uning ortida biz bilmaydigan hayot, kuraş, oğriq va tajriba bölişi mumkin.

Şu sababli hayotimizda uçragan har bir insondan nimanidir örganiş mumkin. Kimdir bizga sabrni örgatadi. Kimdir keçirişni. Yana kimdir öz qadrimizni anglaşga sabab böladi. Ba'zan esa bizga yoqmagan insonlar ham hayotimizda muhim saboq qoldiradi. Şunday ekan, nega biz har bir vaziyatdan faqat salbiy tomon izlaşimiz kerak? Har qanday vaziyatning biz körmayotgan foydali tomoni bölişi mumkin. Ba'zan bu tomon oçiq körinadi, ba'zan esa vaqt ötibgina anglaşiladi. Muhimi, boşimizdan ötgan voqealardan qanday xulosa çiqarişimizdir. Manman odam esa köpinça öz dunyosiga yopilib qoladi. U boşqa insonning fikrini, qaraşini yoki hayot tarzini qabul qilişni istamaydi. Çunki uning uçun öz fikri doimo töğri, öz yöli esa boşqalarnikidan ustun bölib körinadi.

Bunday holatdan çiqiş uçun inson avvalo özige halol savol berişi kerak: "Men aslida kimman? Hayotdagi maqsadim nima? Men öz qadrimni bilgan holda boşqalarning qadrini ham tan olyapmanmi?"

Özini anglaş – manmanlikdan qutulişning muhim qadamlaridan biridir. Inson özining betakrorligini anglaşi kerak, ammo bu betakrorlik boşqalardan ustunlik degani emas. Çunki bu dunyoda har bir insonning öz hikoyasi, öz yöli va öz sinovlari bor.

Hammamiz bir manzilga borayapmiz, faqat har kim öz yöli bilan. Kimdir hayotda tezroq muvaffaqiyatga erişadi, kimdir esa köproq vaqt va mehnat talab qiladigan yöldan boradi. Kimdir xatolar orqali, boşqasi esa tajriba orqali örganadi. Şuning uçun birovning bugungi holatiga qarab uning butun hayotiga baho beriş adolatdan emas.

Inson öz qadrini bilişi kerak. Ammo öz qadrini biliş – boşqalarni qadrsizlantiriş degani emas. Kamtarlik ham özini past köriş emas. Kamtarlik insonning öz örnini bilişi, boşqalarning ham öz örni borligini tan olişi va ularga hurmat bilan munosabatda bölişidir.

Har qanday vaziyatga şukr bilan qaraş, undan foydali saboq oliş va öz ustimizda işlaş bizni içki jihatdan boyitadi. Çunki insonning haqiqiy qadri uning boşqalardan qançalik ustun ekanida emas, balki özini qançalik anglagani va atrofidagi insonlarga qanday munosabatda bölişida namoyon böladi.

Manmanlik esa insonni boşqalardan emas, avvalo özidan uzoqlaştiradi. Şuning uçun ba'zan töxtab, özimizga qaraşimiz kerak. Balki biz boşqalardan ustun bölişga urinayotgan paytimizda, aslida özimizni yöqotib qöyayotgandirmiz. Balki biz izlayotgan narsa boşqalarning e'tirofi emas, balki öz qalbimizdagi xotirjamlikdir.

Hammamiz bir manzilga borayapmiz. Faqat har kim öz yöli bilan.



Ollombergan XUDOYBERGANOV
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Çimboy fakulteti talabasi

MAHMUD ABULFAYZ

NAVBAT



– Kampir ölsa uning öğil-qizlari, qarindoş-uruğlari bilan aloqani batamom uzaman, – dedi tönğiç kelin. – Erimning topganlari özimniki böladi, boşqalarni şerik qilmayman. Bolalarim bilan bamaylixotir yeb ötiramiz...

Kolxoz raisining erka va tantiq ayoli bölgan tönğiç kelin bu gapni özига sirdoş bölgan ayrim xotin-xalajlarga gohi-gohi aytib yurgiç edi. Biroq hamma tomoni toş devor bilan öralgan gung, toş bino içida aytilgan har qanday gap ham yoki sodir etilgan iş (gunoh) ham bir kuni oşkor bölgani kabi, kelinning bu gaplari kunlarning birida şamolga yoyilib ketdi.

Qaysar, öziga bino qöygan tönğiç kelinning bunday sovuq va yoki quloqqa yoqmaydigan tilaklari kampirning quloğiga ham yetdimi, yetmadimi, bundan bizning xabarimiz bölmadi. Biroq ilohiy adolatning möl-köl berib turgan rizqi, suv-havosi, hattoki tirikligini ham boşqalardan qizğanayotgan tönğiç kelinning bunday gaplarini eşitgan oqibatli odamlar larzaga tuşardilar, albatta.

"Agar suv bilan havo kelinning qölida bölsaydi, ehtimol qaynonasiga bir qultum ham suv va bir yutum ham havoni bermasdi", derdilar uni biladiganlar. Ana şunday bir paytda, keksalikning xazonrez boğida mahzun umrguzaronlik qilayotgan kampir erta-keç, öğli, kelini, ularning haqiga eng yoruğ duolar, tilaklar bilan kun keçirardi. Joynamoz ustida qiblaga yuzlanib, söragani faqat yaxşilik edi. Inson ertaga boşidan nimalar keçişini bilmaskan. Illo, bilmaydi ham. Insonning baxti şundaki, ertangi kunning bölajak voqealarini bilmaydi. Insonning fojiasi şundaki, erta bir kun hayotida yuz berişi mumkin yoki muqarrar bölgan fojialardan ham ğaflatda qoladi.

...Kunlari baxtga qorişgan damlarning birida tönğiç kelinga dard yopişdi. Unça-munça emas, balki zör dard yopişdi. Avvaliga "Ötar-ketar, şunçaki tumov bölsa kerak", deyişdi. Qaraşsaki, tumovga öxşamaydi. Söngra şunçalar urinişdiki, biroq dardni kelindan, kelinni esa darddan



ajratib ololmadilar. Noma'lum tarafdan kelgan dard uning vujudiga eski qadrdonlardek mahkam örnaşib olgandek edi. "Agar ketsam, şu ayol bilan birga ketaman..." deyayotgandek edi bu dard. Na professor şifokorlar, na folbin, na mulla uni yengillata oldi. Tönğiç kelin kun sayin oğirlaşib, ozib-tözib boraverdi. Najot eşiklari göyo "taqa-taq" bekilgandek edi. Iştahasi hamişa "karnay" bölib turadigan kelin bora-bora ovqatdan ham qoldi. Tiniq rang-röyi bargdek sölib, bilqillab turgan vujudi kun sayin ozib keta boşladi.

Garçand kişi bilmas oğir dard uning vujudini, a'zoyi badanini tilka-pora qilayotgan bölsa-da, biroq unda qandaydir behalovatlik, besaranjomlik asari közga taşlanardi. Tevarak-atrofga öqtin-öqtin olazarak, qizğançiqlik va harislik bilan boqardi. Çamasi, bu dunyoning moddiy boyliklari, hoyu-havaslari kelinni tark etmayotgan edi. Yanayam aniqroği, ularning bir-biridan ajralişlari juda oğir keçayotgandi. Liq töla sandiqlar, matolar, tillalar, haşamatli uy-joylarni bemavrid taşlab ketiş fikri qiynoqqa solayotgan edi balki... Kim biladi, bandasining könglidan keçayotgan gaplardan yolğiz Yaratganning özi voqifdir.

Bora-bora kelin tildan ham qoldi. Ilohiy adolatning möjizasini, tengsiz muruvvatini, bandasining muşkulini oson qilganini köringki, raisning ayoli qança zamonlardan beri butun borliğini kemirib, bamisoli zulukdek yopişib yotgan nafsdan, molparastlik, buyumparastlikdan ham qoldi. Göyo uning iç-taşini kişanband etib yotgan dunyoviy havoyi nafs uzilib, parça-parça bölib, tözğib ketgandek edi. Çunki eng sönggi daqiqalarda kelinning yuzida bir yoruğlik, qandaydir xotirjamlik va sokinlik zohir bölganini yonidagilar sezdilar, kördilar. Çamasi, raisning ayoli borayotgan manziliga, hattoki sariq çaqani ham olib ketolmasligini ayon anglab yetgan edi yoki unga anglatilgan edi. Kelinning bu olamdagi baxti şunda ediki, özi ölmasdan burun nafsi öldi. Aslida bu ham bir davlatmandlik edi.

...Tong endi oqarib kelayotgan xira-şira palla edi. Sahardan beri qiblaga yuzlanib, tasbeh ögirib ötirgan muştdekkina kampirning huzuriga nevarasi ohista kirib keldi.

– Momo, hovv, momo! – derkan, nevarasi gapini oxirigaça aytolmasdan yiğlab yubordi.

Kampir ziyrak edi, noxuş bir voqea sodir bölganini sezdi şekilli, seskanib tuşdi.

– Nima gap, bolam, tinçlikmi özi, nega yiğlayapsan, jon bolam?! – dedi ortiga ögirilib xira közlari bilan qararkan kampir.

– Keliningiz... onam – derkan, nevarasi yana yiğlab yubordi.

Bu sovuq xabardan kampirning vujudi larzaga keldi. Özini bazör qölga olib, duoga qöl kötardi: "Yaratgan egam, kelinimning muşkulini özing oson qilgin, oxirati obod bölsin! Navbat aslida meniki edi-ku, navbatni men sörab turgan edim-ku! Kelinim tuşmagur şoşibdi-da, şoşqaloqlik qilibdi-da, mening yölimni olibdi-da!" deya kampir nola qilardi. Keyin esa eşitilar-eşitilmas qilib dedi:

– Gödakkinalari endi nima böladi? Ey Xudoyim, özing najot ber, sabri jamil ato et...

Malkolm MUGGERIJ.: “FAQAT IKKINÇI darajali maqsadlarga erişiş mumkin...”

* * *

Insonning tubanligi tajriba va kuzatişlar orqali eng oson isbotlanadigan haqiqat, ayni paytda esa aql-idrok tomonidan eng qattiq inkor etiladigan hodisadir.

* * *

Insonlar Xudoga işonmay qöysa, heç narsaga işonmay qöyadi, degan gap bor. Aslida esa haqiqat bundan ham aççiqroq: ular endi har qanday narsaga işonaveradi.

* * *

Bizni oxir-oqibat kommunizm ham, faşizm ham emas, balki insonning özini Xudo örniga qöyişi halok qiladi.

* * *

Tasavvur qiling, azob-uqubatlarni butunlay yöq qildik. Dunyo naqadar dahşatli joy bölardi! Hozirning özida ham insonning fe’li yetarliça oğir. Agar u heç qaçon azob çekmasa, mutlaqo çidab bölmas mavjudotga aylanardi.

* * *

Heç qaçon unutmang: oqim böylab faqat ölik baliqlar suzadi.

* * *

Marks va Freyd — xristian sivilizatsiyasini yemirgan ikki buyuk şaxs. Birinçisi muhabbat xuşxabarining örniga nafrat xuşxabarini olib kirdi, ikkinçisi esa insonning öz xatti-harakatlari uçun javobgarligi haqidagi eng muhim tuşunçaga putur yetkazdi.

* * *

Dastlab Yolğon bor edi. Yolğon xabarga aylandi va oramizda yaşay boşladi — inoyatsiz va soxta holda.

* * *

Bizning boşimizga tuşişi mumkin bölgan eng katta falokat — bu dunyoda özimizni butunlay uyimizdagidek his qila boşlaşimizdir.



* * *

Bizning zamonamizdagi eng halokatli uçta ixtiro — homiladorlikdan saqlovçi tabletka, fotoapparat va yadro qurollaridir. Birinçisi jinsiy munosabatni bepuştlik bilan, ikkinçisi haqiqatni xayolot bilan, uçinçisi esa xavfsizlikni vayronagarçilik bilan boğladi.

* * *

Odamlar e'tiqodni özi aslida işonmaydigan narsaga işonişga yordam beradigan bir vosita, deb tuşunişadi.

* * *

Men evolyutsiya nazariyasi, ayniqsa uning amaliyotda qöllanilgan şakllari kelajak tarix kitoblaridagi eng katta hazillardan biriga aylanişiga mutlaqo işonaman. Avlodlarimiz şunçalik zaif va şubhali bir farazning odamlar tomonidan naqadar işonuvçanlik bilan qabul qilinganiga hayratlanişadi.

* * *

Har qanday yangi xabar aslida yangi odamlar boşidan keçirayotgan eski voqeadir.

* * *

Ommaviy axborot vositalari, şubhasiz, Iblisga Odam Ato va Momo Havo jannatdan quvilganidan beri berilgan eng katta imkoniyatni taqdim etdi.

* * *

Ta'lim — zamonamizning ulkan safsatasi va firibgarligi. U bizni hayotga tayyorlaşni va'da qiladi hamda ösmirlar jinoyatçiligidan tortib, qarilikdagi aqliy zaiflikkaça bölgan barça muammolarning universal davosi sifatida tavsiya etiladi.

* * *


Men heç qaçon baxtli boy odamni uçratmaganman. Ammo boy bölişni istamaydigan kambağal odamni juda kamdan-kam uçratganman.

* * *

Hayotning ayrim holatlarda muqaddas, boşqa holatlarda esa qadrsiz bölişini tasavvur ham qilib bölmaydi.

* * *

Öylaşimça, har bir davrning özига xos xomxayoli böladi. Bizning davrimizning xomxayoli esa — ilm-fan.



* * *

Kelajak tarixçilari reklamani zamonamizning çinakam yovuz hodisalaridan biri sifatida baholaşadi. Çunki reklama odamlarni tinimsiz nimanidir xohlaşga undaydi: buni istang, uni istang, yana boşqasini istang...

* * *

Faqat ikkinçi darajali maqsadlarga erişiş mumkin... Hayotning mohiyatini anglaşga uriniş esa muqarrar ravişda muvaffaqiyatsizlik hissi bilan yakunlanadi.

Yomon hazil — voqelikdan qoçiş, yaxşi hazil esa uni boriça qabul qilişdir.



* * *

Televideniye insonlarni aqlsiz qilib qöyiş uçun yaratilmagan. U şunçaki insonlarning özidagi aqliy böşliqning taşqi ifodasidir.

* * *

Qarilikning köplab huzurbaxş jihatlaridan biri — turli narsalardan voz keça oliş.

* * *

Iso öz hayotlik davrida tarixga heç qanday ta'sir körsatmagan. Men buni Xudoning alohida marhamati deb bilaman. Hatto Xudoning köplab işlarida namoyon böladigan kinoyali hazilining yana bir namunasi, deb öylaşni yoqtiraman. Nazarimda, butun insoniyat tarixidagi eng muhim şaxsning öşa davrdayoq mavjud bölgan xotiraçilar, kundalik yozuvçilar, şarhlovçilar va tarixnavislar e'tiboridan çetda qolişi juda örinli bölgan.

* * *

Insonning özini baxtli deb e'lon qilişida qandaydir kulgili, hatto biroz uyatli jihat bor. Butun bir xalq yoki millatning özini baxtli deb da'vo qilişi esa bundan ham battar.

* * *

Televideniyeda özimni göyo fohişaxonada pianino çalayotgan odamdek his qilaman. Vaqti-vaqti bilan u yerdagilarni — mijozlar va xodimalarni — ma'naviy yuksaltiriş umidida "Men bilan qol" qöşiğini çalib, özimga tasalli beraman.

* * *

Bu dunyoda men uçratgan, heç qaçon şubhalanmaydigan yagona odamlar materialistlar va ateistlardir.

* * *

Amerika fuqarolari zimmasiga yuklangan "baxtga intiliş" majburiyati ularni yoşlik davriga xos kayfiyat, did va qobiliyatlarni abadiy saqlab qolişga urinişga undaydi.

* * *

Men televizor antennasini olib taşlatganman. Bu xuddi prostata bezini operatsiya qildiriş bilan teng ma'naviy ahamiyatga ega.

* * *

Jinsiy mayl materializmning tasavvufi, materialistik jamiyatning esa yagona mumkin bölgan dinidir.

* * *

Faoliyat va kuraş odami bölgan kişilarning juda oz qismi öz vaqtida, munosib tarzda sahnani tark eta olgan.

* * *

Barçamiz özimizga yoqmaydigan insonlarni hurmat qilamiz, hurmatga loyiq deb bilmagan insonlarimizni esa yoqtiramiz.

* * *

Böyalgan toş qarşisida sajda qilayotgan ibtidoiy odamlar menga har doim Eynşteyn yoki Bertran Rasseldan köra haqiqatga yaqinroq köringan.

* * *

Inglizlarning mehrini qozonişning eng oson yöli — şunçaki uzoq umr köriş. Işonçim komilki, masalan, Oskar Uayld qirq yoşlarida vafot etmay, töqson yoşgaça yaşaganida, uni mehribon va hurmatli bir oqsoqol sifatida körişardi.

Sayohat, albatta, insonning dunyoqarashini toraytiradi.

Kuçli va boy bölişning tölovi — odamlarning nafratiga uçraş.

* * *

Biz erkin jamiyatda yaşaymiz, deb tinimsiz gapiramiz. Axir özimizni erkin bölmagan jamiyatlarda yaşayotgan, baxtsiz insonlarga qarama-qarşi qöyişni yaxşi köramiz-ku.

* * *

Amerikalik ayollar tanasini jozibali körsatiş uçun unga naqadar azob berişadi! Ularning gözalligi ulkan bir sanoatga aylangan. Jozibasini saqlab qoliş yölidagi intizomiga rohibalar yoki sportçilar ham havas qilişi mumkin, garçi ular uçun ham bu ortiqça darajada maşaqqatli tuyulsa-da.

* * *

Siyosatçilar hokimiyatga juda keç erişadilar. Menimça, u imkonsiz vaziyatni meros qilib oldi va bu vaziyatni hal qiliş uçun uning imkoniyatlari ham, salohiyati ham yetarli emas.

* * *

Men non söragan edim, menga tinçlantiruvçi dori berişdi.

* * *

Buyuk sivilizatsiya taraqqiyotining muayyan bosqiçida san'atkor avval ruhoniy, oxir-oqibat esa masxarabozga aylanadi.

* * *

Qari siyosatçilar ham qari aktyorlar singari sahna çiroqlari ostida yana jonlanadi.

* * *

Yer yuzida jannat quriş haqidagi ğoyalarning muammosi şundaki, ular bir kun kelib röyobga çiqişi mumkin. Ana şunda ularning soxtaligi hammaga ayon böladi.

* * *

Bu dunyoda men uçun öz fikrimni boşqa odamlar bilan bir xil ekanini bilişdan köra yoqimsizroq narsa yöq.

* * *

Siyosatda ham, ayollar ortidan quvişda ham muvaffaqiyatsizlik hal qiluvçi ahamiyatga ega.

* * *

Maxfiylik razvedka uçun xuddi diniy ibodatdagi liboslar va xuşböy tutatqilar yoki spiritistik seansdagi qoronğilik kabi zarur. U biror foydasi bor-yöqligidan qat'i nazar, har qanday şaroitda saqlanişi şart.

* * *

Hazil-mutoyiba — inglizlar mutlaqo jiddiy munosabatda böladigan deyarli yagona narsa. Angliyaliklarni kuldirişga urinişdan köra ayançliroq maşğulot yöqligini hayotning özida anglab yetdim.

* * *

Men özimning tuzalmas kitobxon va ziyoli ekanimni tan olaman.

* * *

Yalpi milliy mahsulot bilan yalpi milliy tafakkurni qiyoslaş — ajoyib kinoya. Jamiyatning iqtisodiy ösişi aql-idrok yuksalişini ham anglatadimi, degan savolni qöyadi.

* * *

Jurnalistikaning eng uluğ fazilati, şubhasiz, uning ötkinçiligidir.

* * *

Tanazzulga yuz tutgan jamiyat hazil-mutoyibadan xuddi tinkasi qurigan odam yelvizakdan qoçgandek qoçadi.

* * *

U şunçaki zerikarli odam emas edi — zeriktiriş borasida butun Angliya nomidan iş körardi.

“MOTIVATSIYA” GIRDOBI

ZAMONAVIY VIJDONSIZNING VIJDONLI IQRORLARI

Bir qaraşda murakkab tuyuladigan, aslida yuzaki tuşunçalarga suyanadigan, uquv va iştiyoq mohiyati evrilib ketgan zamonimizda tafakkur ham biryoqlama bölib qolgandek. Bugun tiriklikning bor-yöq ma’nosi birgina nuqtaga – odam bolasining gardaniga tuşgan eng zil yuk, ya’ni “hayotda nimagadir erişiş” degan manzilga yetib borişgagina taqalib qolgan. Şu qutbning yulduzini közlagan odam esa kun sayin ado bölib boryapti... Şuurimizning qat-qatlariga sin-



gib ketgan, kelib çiqişi mavhum, biroq hukmi qat'iy bir aqida bor. U bilan bahslaşib köring-çi! Odam tinimsiz harakatda, burç va majburiyatlar iskanjasida yaşaşga mahkum – men aytayotgan aqida şu.

Bugungi dunyo – tinim bilmay işlaydigan ulkan fabrikaning özginasi. Fabrikaning vijdonlisi bölmaydi, men esa, azizim, uning ğildiragidagi mitti bir murvatman, xolos. Vazifam oddiy: temir-tersakni bir maromda çiqillatib, katta çarxpalakning koriga yaraş. Men öqigan kitoblarda esa nemis bobolar: "Odamning vazifasi uning hayot mazmunini belgilaydi", deyişadi...

Öt qalaganlar qatorida bölmasang ham, şu qozonda el qatori qaynamadingmi – aybdorsan. Özingni oqlayapsanmi – yalqovsan. Jimsanmi – şubhali nusxasan, balki esing oğib qolgandir. Çarçadingmi – demak, oqimga qarşisan. Hatto öz ota-onang uçun ham nobakor farzandsan...



Göyo maqsadsiz yaşaş eng oğir gunohdek

Çizğiçda tortilgandek bu beşafqat qolip tirik odamning tabiatiga sira töğri kelmaydi. U jonsiz matohga mos tuşar, ammo inson – temir-tersak emas-ku! Odam bolasi goh gurillab yonadigan, gohi zörğa miltillab qoladigan ğaroyib, ilohiy bir fonarga öxşaydi. Agar uning köksida öt bölmasa, heç qanday intizom yo qistov uni yaşnatib yuborolmaydi.

Bugunning odami yalqovligi yo irodasizligi uçun töxtab qolayotgani yöq. Gap boşqa yoqda: u holdan toygan. Biz jamiyat qozonidagi darzni odamning "epsizligi"ga tönkaşga, öz ustimizdan özimiz hukm öqişga örganib qolganmiz.





Odamning qöli işga bormasa, bu – isyon

Odamzod azaldan bitta tuşunçaga bandi: tinmay “maqsad” qidiramiz. Bu urinişda qandaydir diniy andişa, körinmas hadik bor – göyo maqsadsiz yaşaş eng oğir gunohdek. Vaholanki, tabiatning özida heç qanaqa “maqsad” yöq. Öylab köring: çigirtka sakraş böyiça özіga reja belgilamaydi, quşlar tuxum bosiş böyiça majburiyat olib, hisobot topşirmaydi. Tabiat şunçaki yaşaydi. U nimaga qodir bölsa, öşanga aylanadi, borini boriça köz-köz qiladi. Tiriklik qonunining asl mağzi şu: hayot – kimdir bölişga emas, özligiça qolişga intiladi.

Odam esa – muqimlik izlaydigan beqaror jonzot. Unga şunçaki odam bölib yaşaş kamlik qiladi. U “omadli”, “öta işçan”, “tartibli” körinişga jon-jahdi bilan çiranadi. Özidan bölak har kim bölişga tirişadi. Va aynan şu bema’ni poygada yer yuzidagi jamiki jonzotlardan köra tezroq sillasi quriydi. Asl Mohiyatdan esa allaqaçon uzoqlaşib ketgan...

Katta portlaş va koinotning tuzilişi haqida köp öylayman... Agar umr – bor-yöği bir lahzalik çaqin, poyonsiz zulmat qöynidagi mitti uçqun bölsa, qanday “maqsadlar” haqida gap bölişi mumkin? Çaqin öz oldiga maqsad qöymaydi – u çaqnaydi! Biroq odam özini poygadaman deb öylaydi. Uning bor dardi – eldan ortda qolmaslik, sur’atni tuşirmaslik, safdan çiqib ketmaslik. Göyo kimgadir hisob berayotgandek, kimdir çetdan turib unga baho qöyayotgandek va qandaydir maxfiy daftarga yutuqlarini yozib borayotgandek xavotirda yaşaydi. Holbuki, heç kim heç narsani hisoblab borayotgani yöq.

Bizdan avval ötgan milliardlab odamlar qani? Faqat soqov toşlar, çirigan suyaklar yo bir hovuç kul qolgan, xolos. Şohlar-u gadolar, jahongir fotihlar-u darveş doniş-mandlar – barining borar joyi bitta... Bu haqiqatni ovoz çiqarib aytiş xatarli, çunki u xayolimizdagi barça omonat ovunçoqlarni çilparçin qiladi. Odam özining ikki yöqlik – tuğiliş va ölim orasidagi tasodifiy lahza ekanini anglagan ondayoq, u qurgan maqsadlar imorati nam tekkan qoğozdek uvalanib ketadi. Ana şunda dahşatli va örinli savol tuğiladi: agar umrimiz şu qadar qisqa va omonat bölsa, nega öz hayotimiz bilan emas, birovlar çizib bergan qoliplar bilan yaşayapmiz?

E’tibor berganmisiz, odam yayrab, baxtiyor yurgan kezlarida “Özimni işlaşga qanday majburlasam ekan?” deb boş qotirmaydi. Köngli töq odamning harakati





yengil, erkin, ba’zan me’yoridan ortiq jöşqin böladi (fizika darsligidagi “xaotik” degan söz esimga tuşadi – haqiqiy “tartibsizlik”ning naqadar tartibli ekanini öylab hayron qolaman).

...U taqdirning oğir zarbalarini ham, kundalik taşvişlarni ham oson yengadi. Xuddi qaddini tiklagan navbahor guliga öxşaydi – yerning tortiş kuçi u uçun pisand emas. Ammo u odamning köngliga ğaşlik, mung çökişi bilan harakat taqqa töxtaydi. Göyo tomiriga qörğoşin quyilgandek, eng mayda yumuş ham toğdek oğir körinadi.

Qarang-a, odam zotiga “motivatsiya” degan matoh faqat baxtsiz çoğidagina kerak bölar ekan!

Motivatsiya – majruh ruhiyatning qöltiqtayoğidir.

Ayni şu nuqtada zamonaviy tamaddunning eng aççiq masxarasiga duç kelamiz. Bizni quvonç bilan emas, motivatsiya bilan yaşaşga köndirişdi. Baxt – göyo yöl-yölakay topiladigan ikkinçi darajali narsa, boş muddao esa – unumdorlik emiş. Bu xuddi gulga suv emas, ösişning foydasi haqida ma’ruza kerak degandek gap.

Köngil buloği qurib qolgan odam özini puç sözlar bilan ovutişga tuşadi. “Öz-özini rivojlantiriş” haqidagi son-sanoqsiz kitoblarni titkilaydi, saharlab qanday tetik turiş, özига qanday işoniş haqidagi aqlli va’zlarni tinglaydi. Vaholanki, haqiqat jön: senga qanday yaşaşni örgatişlariga muhtoj bölib qolibsanmi, demak, yaşamayapsan!


Odamning qöli işga bormayotgan bölsa, buni yalqovlikka yöyiş – kaltabinlik. Aslida bu – isyon: insonning ruhi va tani özига begona, tabiati kötarmaydigan yumuşni bajarişdan boş tortyapti. Bunda özi ham anglamagan bir tozalik, olijanob qaysarlik bor. Bu – hamma narsa sendan “qolipdagi” odam bölişni talab qilayotgan pallada, özligingni asrab qolişning sönggi çorasidek...

Köpçilikdagi behollikning ildizi çuqur. Ğarbça turmuş tarzi odamni tinim bilmas robotga aylantirdi. Şarqona dunyoqaraş esa bu berahm tegirmonni yanada şiddatladi... Odam haftada beş kun özi suymagan işda har daqiqasiga la’nat öqib ter tökişi, dam oliş kunlari esa miyasini turli kayf beruvçi içimliklar yo bema’ni ermaklar bilan karaxt qilib, özidan qoçişi kerak. Öz kasbidan bezor odam – bugungi dunyo uçun odatiy hol. Buni raqamlar ham tasdiqlab turibdi.

...Odam loy emaski, istagança pişitib, xohlagan qolipga solaversang. U yo sinadi, yo butunlay böyin egmay qöyadi.

Mana, deylik, yigirma beş yoşli yigit... Bundan yigirma yetti yil burun u qayerda edi? Heç qayerda! U umuman yöq edi. Özining bir tutam umridan söng u yana ğoyib böladi – bu gal juda uzoqqa, abadiyatga singiydi... Koinot vaqt tarozisi oldida bir odamning umri çaqmoq çaqqançalik ham emas. Borliqning asosiy qismi – yöqlik. Biz köproq yöqmiz, juda oz fursatgina tirikmiz, xolos. Şunday ekan, mana şu mitti va omonat uçqunni özingiz suymaydigan, tabiatan yot, könglingizga yoruğlik bermaydigan işlarga sovuriş – eng katta uvol emasmi? Çuvalçang uçaman demaydi, quş yer ağdarmaydi, fil daraxtga tirmaşmaydi. Nega endi odam bolasi hamma narsani eplaşi, hamma joyda hozir-u nozir bölişi şart deb öylaymiz? Çunki quloğimizga tabiatning bir parçasi emas, uning “xöjayini”san deb quyib qöyişgan. Eng katta xomxayol – şu.

Nega tiriklik şiddati sezilmayapti?



Odam hayotni butun vujudi bilan tuygan çoğda heç qanday zöriqişsiz, öz-özidan harakatga tuşadi. Agar tiriklik şavqi söngan bölsa – heç qanaqa usul, çiroyli reja yo temir intizom kor qilmaydi. Odam – burama öyinçoq emas, kalit solib yurgizib bölmaydi. Şuning uçun "Nega eplay olmayapman?" deb emas, "Nega sönding?" degan savolni köndalang qöyiş kerak emasmi?..

Nega köksingdagi çöğ sönib qoldi? Nega tiriklik şiddati sezilmayapti?

...Közga ilinmaydigan bir haqiqat ham bor: qöli işga bormayotgan odam hali yengilgani yöq. U "yonmagan", xolos. U hali harakat – hayotning örnini bosuvçi emas, uning tabiiy va gözal davomi böladigan manzilga yetib kelmagan. Bu söroqlar – ojizlik ham emas, odam umridagi eng rostgöy va samimiy tanaffusdir.

Tiriklik heç qanday undovga – motivatsiyaga muhtoj emas. U faqat bitta narsani – butunlikni tilaydi.

Butunlik degani "yutuq" yo "natija" emas, özligingni sönggi tomçisigaça his qilib yaşaşdir. Şundagina harakat öz-özidan, tabiiy tuğiladi. Subhidamda olamni çuğur-çuğurga töldiradigan quş kabi – "vazifam" deb emas, sayramasa böğilib qolişi sabab qiladi.

Bizni bunday haqiqat çöçitadi. Çunki u juda oddiy. Haddan taşqari rost. U butun boşli tekinxör bozorni – şaxsiy rivojlaniş, motivatsiya, unumdorlik sanoatini şubha ostiga qöyadi.

Hayotni "ruhşunoslar"ning kitoblaridan öqib örganib bölmaydi. Uni faqat yaşab, yurakdan ötkazib biliş mumkin. Ana öşanda köz oldimizni tösib turgan parda kötariladi-yu, haqiqat oydek ravşan böladi: biror işni boşlay olmayotgan odam – xasta ham, ojiz ham, yalqov ham emas. U şunçaki böyniga ilingan böyinturuqlarni uloqtirib, özining hayoti boşlanadigan nuqtani qidiryapti, xolos. Bu – ruhning öz vatanini izlaşi demak.

Men parvoz uçun kuç yiğyapman! Siz-çi?..

Akmaljon YÖLDOŞEV

"Nega eplay olmayapman?" emas, "Nega sönding?"




20 -OKTABR

— JASORATLI ADIB

ODIL YOQUBOV

TAVALLUDIGA 100 YIL TÖLDI!



Yozuvçining 1989-yil 16-iyunda butun ittifoqni larzaga solgan SSSR xalq deputatlari qurultoyidagi nutqidan parchalar

* * *

Bu odamlar maşaqqatli mehnatlari evaziga qançadan haq olişayotir?! Bizning opa-singillarimiz quyoşning radiatsiya soçuvçi nurlari tiğida, jazirama oftobda zahmat çekişayotir, Ha, ular bajarayotgan iş ayol zotiga munosib emas. Oftobning zahri tufayli ham, zaharli ximikatlarning huda-behuda qöllanilişi tufayli rak, oşqozon-içak va sariq kasalliklari, ayollarning kamqonligi va boşqa xastaliklar behad urçidi. Ayollar va bolalar ölimi ösişiga ham sabab şu. Ularning turmuş darajasi qay holatda? Paxta dalasida mehnat qiladigan ayollarimiz qoş qoraygandan keyingina yovondan uyga qaytişadi, bola-çaqaga obi-yovğon pişiriş kerakmi? Kerak. Öçoq boşiga borişadi va otam zamonidagiday tappi qalab, qozon qaynatişadi. Qaddi basti neçundir yaşin urgan qayinlarni eslatuvçi şu ayollarning barkaşday qoraygan yuzlariga közim tuşsa, közlarimdan beixtiyor yoş tirqaraydi. Qani ulardagi ayollik nafosati? Qani sarv qomatlar, qani latofat, nazokat! Közlari töla mung, armon va hasrat.

* * *

Bizning Örta Osiyo tabiiy iqlimi jihatidan jahonda tengsiz imkoniyatga ega ekani tarixiy manbalarda ham qayd etilgan. Dunyodagi eng şirin ne'matlar — meva-çeva-yu, sabzavotlar şu yerda yetiştirib kelingan. Qovun, tarvuzning şirasi tilni yorgan. Tabiiy boyliklardan ilmga zid ravişda şafqatsizlarça foydalaniş yetmiş yil mobaynida şunga olib keldiki, bugun ölkamiz ekologik halokat yoqasiga kelib qoldi.

* * *

Biz yetmiş yil badalida, ha-ha, bir neça asrga "tatigulik" mana şu davr içida jon qadar aziz bölgan juda köp qadriyatlarimizdan judo böldik. Şular içida şunday bir qadriyat ham borki, ming afsus, uning örnini biron-bir narsa bilan qoplaş bağoyat muşkuldir. Tirikçilikning muşkullaşganligi, birida oçin, birida töqin yaşayotganimiz tufayli, insoniy qadr-qimmatni yer bilan bitta qilguvçi uzundan-uzoq navbatlarda navbat kutişlar tufayli yuz berdi u. Inson bolasiga xos bölgan eng olijanob fazilat bölmiş rahm-şafqatdan, muruvvatdan asar qolmadi bizda. Boz ustiga şu xislat örnini toşbağirlik işğol etdi. Kişilar mehr-oqibatsiz, yon-veridagilar dardiga loqayd, iltifotsiz.

* * *

...Meros edi xatolar,
voris bölar bötam ham;
xato sabab jannatdan
quvilgandi Otam ham.

Tan olmasam – bu gunoh:
yaşolmayman begunoh...
meni bunça sevasiz,
o, iştiboh, iştiboh!

Sizga rahmat qarz bölsin,
o, mening xatolarim!
Buyur, Xudo, dars bölsin
to mening xatolarim.

Dono, Doro bölib gar
töradimmi Atodan?!
Qilingan xato! Qaytar
qilinmagan xatodan!

Mansur JUMAYEV

Rassom Umar RAJABOVning 2026-yilda işlangan “Ilk xato” kartinasi

